ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

4-son
(Iyul-Avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
S. Bulatov	4	Insonning botiniy kamoloti haqidagi tasavvufiy fikrlarni me'morchilik tilida ifoda etgan yodgorlik
V. Shukurov	10	Milliy kontent tushunchasi va uning ta'lim berishi jarayonidagi ahamiyati
D. Alibayev	15	O'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligining o'rni va ahamiyati
X. Yakubova	24	Inklyuziv ta'limda stereotiplar va ularni yengish yo'llari
M. Tilakova	30	Ta'limda inklyuziv yondashuvning dolzarbligi
M. Muradova	34	Bo'lajak o'qituvchilarni partisipativlikka tayyorlashda kommunikativ malakalarning ahamiyati
M. Xasanova	38	Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi
J. Ergashev	43	Talabalarni integrativ yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari
J. Buriyev	46	Talabalarni mustaqil faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
O. Abdunazarova	51	Nutqni rivojlantirish jarayonining mazmuni, komponentlari va pedagogik omillari
R. Jandullaeva	55	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish
N. Razokova	58	Aqli zaif o'quvchilar matematik tasavvurlarini shakllantirishning adaptiv-didaktik modeli
B. Jo'raeva	62	Yo'l qurilish chizmalarining turlari (plan, profil, kesim) va ularning muhandislik loyihalash jarayonidagi o'rni
G. Matyakubova	67	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanini o'qitishda talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini diagnostika qilish
G. Tojiyeva	72	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda lisoniy, madaniy va lingvomadaniy intuitsiyaning ahamiyati
TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT		
U. Kubayev	75	Virtual muhitdan foydalanish natijalarini tahlil qilish usullari va tajribaviy tadqiqotlar
F. Tangriyeva	80	O'quvchilar intellektual rivojlanish darajalarinidiagnostik o'rganish va rivojlantirish
I. Pulatov	84	Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari va psixologik tayyorgarligini aniqlashda kompleks diagnostika tizimining ilmiy-uslubiy asoslari
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
B. Turakulov	90	Pedagogik texnologiyalar asosida professional talimda kasbiy faoliyatini rivojlantirish
M. Kubayeva	94	Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish

	TA’LIMDA MENEJMET	
F. Boboyev	97	Kasbiy ta’lim tizimini boshqarishda dasturiy-maqsadli va kompetensiyaviy yondashuvlar uyg‘unligining metodologik asoslari
Z. Abralova	105	Bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruvchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli
	TA’LIMDA MARKETING	
Z. Kaxorova	109	Kichik biznesni rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy imperativlari
	MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH	
A. Ishonkulov	115	O‘qituvchilar malakasini oshirishda informal ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning funksional modeli va davlat talablari integratsiyasi
	MAKTABGACHA TA’LIM	
N. Abdullayeva	119	Maktabgacha yoshdagi bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari va pedagogik amaliyoti
O. Raxmatillayev	123	Maktabgacha ta’limda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishning axborot-tahliliy asoslari
	PSIXOLOGIYA	
U. Tashbayeva	126	Pedagoglar emotsional intelektini rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi
ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ		
Н. Хайдаров, С. Санакулова	130	Зелёная экономика и её роль в стратегии устойчивого развития
	ПСИХОЛОГИЯ	
А. Токжанова, Г. Кусаметова	135	Развитие цифровой культуры будущих психологов как метод предотвращения стресса

Saidaxbor BULATOV,
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markaz katta ilmiy xodimi, p.f.d., O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori, Rossiya xalqaro pedagogik ta'lim fanlari akademiyasining (МАНПО) akademigi

INSONNING BOTINIY KAMOLOTI HAQIDAGI TASAVVUFIY FIKRLARNI ME'MORCHILIK TILIDA IFODA ETGAN YODGORLIK

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyoning qadimgi tarixiga nazar tashlasak, ayrim san'at asarlari borki, ular orqali butun bir davrning dunyoqarashini anglash mumkin. Me'moriy bezaklarida ayniqsa qush tasviri ana shunday noyob yodgorliklar sirasiga kiradi. Ular o'zining chuqur ezotrik ya'ni maxfiy ramziy mazmuni bilan tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda. Biz maqolada Buxorodagi Nodir Devonbegi madrasasi qanosidagi (timpanidagi) bezagini diniy-irfoniy tahlili haqida ilmiy farazimizni bayon etmoqdamiz.

Tayanch so'zlar. Mohiyat, Humo, Nodir devonbegi madrasasi, hattotlik, epigrafika, xat turlari, peshtoq, timpan, arab yozuvi, suls, kufiy, toqi, arxitektura, g'oya, ramz, timsol, naqsh, xona, ilohiy, moviy rang, mantiq, o'simliksimon, bezak.

В этой статье, если мы обратимся к древней истории Центральной Азии, мы увидим произведения искусства, через которые можно понять мировоззрение целой эпохи. Изображение птиц в архитектурных украшениях – один из таких редких памятников. Они привлекли внимание исследователей своим глубоким эзотерическим, то есть тайным символическим содержанием.В данной статье мы представляем нашу научную гипотезу, основанную на анализе декоративных элементов тимпана медресе Надир-диванбеги в Бухаре.

Ключевые слова. Сущность, шумо, медресе Надира Девонбеги, хаттот, эпиграфика, типы букв, пешток, тимпан, арабская письменность, сулс, куфический, токи, архитектура, идея, символ, эмблема, узор, комната, божественный, синий цвет, логика, растительный, украшение.

And this state, esli my obratimsya k ancient history of Central Asia, my vision of the production of art, through which you can understand the whole world of epoxy. Izobrazhenie ptits v arkhitekturnyx ukrasheniyax – odin iz takikh redkix pamyatnikov. Oni privlekli vnimanie issledovateley svoim glubokim esotericheskim, to est taynym simbolicheskim soderjaniem. In this article, we present our scientific hypothesis regarding the analysis of the decoration on the tympanum of the Nadir Divan Beg Madrasah in Bukhara.

Key words. Essence, xumo, Madrasah of Nadir Devonbegi, hattot, epigraphy, types of letters, peshtoq, tympanum, Arabic script, suls, Kufic, toqi, architecture, idea, symbol, emblem, pattern, room, divine, blue color, logic, plant-like, decoration.

"Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir"[1].


Shavkat Mirziyoyev

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi yig'ilishidagi O'zbekistonda islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida nomli"-Toshkent shahri, 2017-yil 23-iyun ma'ruzasidan. Ma'rifat gazetasi, 2017-yil 24-iyun, №50 (9011).

Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sulton) qurdirgan (1622-1623) Nodir devonbegi madrasasi Labihovuz majmuasining sharqiy qismida joylashgan. Dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo‘q, hovli atrofi 4 tomondan 2 qavatli kichik hujralar bilan o‘ralgan. Hujralarga o‘ymakori usulida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tabodonga panjaralar o‘rnatilgan. Bezaklar hovliga pishiq g‘ishtlar yotqizilgan.

Madrasa qanosida (timpanida) tasviriy namoyon kompozitsiyaning diniy-irfoniy talqini:

Qanosdagi (timpan) afsonaviy qushlar (humoga o‘xshash obrazlar), o‘simliklar, rang va shakllar, pechak islimi, afsonaviy to‘ng‘iz hamda inson chehrasiga o‘xshash quyosh tasviri oddiy badiiy element emas. Tasavvufda xar biri o‘ziga xos majoziy ma’noga ega ularni ezotrik va ekzotrik ramz turlarini alifbosini bilgan badiiy ma’lumotga ega mutaxassis bo‘lishi kerak. Tasavvuf falsafasida har bir chiziq va aylana ilohiy tartibning ramzi hisoblanadi.




Nodir devonbegi madrasasi. 1622–1623 yillari bunyod etilgan.

Eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri – qanosdagi qush va quyosh tasvirlari. Islom me’morchiligida jonli mavjudotlarni tasvirlash kam uchraydi, shuning uchun bu bezaklar juda noyob hisoblanadi.

1. Kompozitsiyada bosh qahramon humo qushi tasvirlangan. Humo qushining qadimiy Sharq mifologiyasida (jumladan, “Avesto”da) hamda musulmon tasavvuf (so‘fiyona) adabiyotida (jumladan, Shahobiddin Yahyo Suhravardiy (1155–1191), Farididdin Attor (1145–1221) va Alisher Navoiy (1441–1501) dostonlarida) donishmandlik va komil inson obrazini yaratishda foydalanilganidan, shuningdek, Imomqulixon hukmronlik yillarida (1611–1642 yillar) Buxoro xonligida tasavvufning, xususan, xojagon-naqshbandiya tariqatining ta’siri barcha sohalar kabi me’morchilikda ham yaqqol ko‘zga tashlanga-

nidan kelib chiqib, mazkur tasvirni quyidagicha izohlash mumkin:[2]

Humo – afsonaviy qush bo‘lib, baxtu-iqbol ramzi hisoblanadi. Shuning uchun humo tasvirini kishilar qadimdan amaliy san’at turlari – naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, zardo‘zlik, kashtachilik, kulolchilik kabi sohalarda,



Buxorodagi Nodirdevonbegi madrasasi qanosidagi tasvir qismlari. Madrasa bezaklaridagi irfoniy g‘oyalarni quyidagi jihatlarda ko‘rish mumkin:

1. Ikki yo‘nalishli pechak islimi (xoshiya naqsh) – tun bilan kunni o‘tishi ya’ni inson umrini o‘tkinchligini bildiradi.

2. O‘simliksimon naqsh – tiriklik, koinot, tabiat umuman olganda olam ramzi.

3. Humo – insonlar obrozi.

4. Afsonaviy oq rangdagi to‘ng‘iz – nafs, harom luqma.

5. Yuzi odamning yuziga o‘xshab ketadigan quyosh tasviri – ruhiy yuksalish ramzi, ilohiy muhabbat va Haq taologa ishora ramzi. Bu ramzlar insonning ma’naviy kamolot yo‘liga ishora qiladi.

Me’moriy bezaklarda ramziy ma’noda hamda tumor sifatida foydalanib kelganlar. Badiiy adabiyotlarda ham humo qushi qadimdan ramziy ma’noda ishlatib kelingan. Masalan, Alisher Navoiy ham “Lison ut-tayr” asarida qushlar haqidagi talqinlarni keltirishda xalq og‘zaki ijodi an’analariga asoslanadi. Dostonda aynan Humo timsoli ham yaratilgan. Humo tasviri O‘zbekistonning Davlat gerbida baxt timsolida keltirilgan. Xalqimiz orasida shunday naql bor: ya’ni “Bu qush kimning boshiga soya solsa, baxt topib, u toju- taxt egasi bo‘ladi”, – deydilar[3].



2. Oq rangda afsonaviy to‘ng‘iz tasviri. To‘ng‘iz-harom luqma ramzini bildiradi. Dunyoda har bir jonzod rizqi bilan tug‘iladi. Shu rizqni topib yemoqda ehtiyot bo‘lingiz, chunki, luqma ikki hil bo‘ladi: biri – halol ikkinchisi – harom. Kimki, halol luqmaga harom luqmani aralashtirsa oqibati yomon bo‘ladi, – deb ta’kidlanadi muqaddas kitoblarimizda. Bu ko‘plab rivoyat, maqol, hikoyalarda o‘z aksini topgan[4].

Oq rangda afsonaviy to‘ng‘iz tasviri.

Qur’oni karimda to‘ng‘iz (cho‘chqa) go‘shtining harom ekani bir necha joyda ochiq bayon qilingan. Masalan:

Qur’oni karim, Baqara surasi, 173-oyat: “... Sizlarga o‘lik, qon, to‘ng‘iz go‘shti va Allohdan boshqaga atalgan narsalar harom qilindi...”

Qisqacha aytganda, Qur’oni karimda to‘ng‘iz go‘shtining haromligi bir marta emas, bir necha bor takrorlanib ta’kidlangan. Bu islomdagi ozuqa-halollik qoidalarining qat’iy

[2] https://t.me/buxoronoma 1920 • 29-aprel 2025

[3] Bulatov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. (Monografiya) – T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 227-228-betlar.

[4] Bulatov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. (Monografiya) – T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 228-bet.

qismi hisoblanadi.

To‘ng‘izni oq rangda olinishida hikmat ibratlari bo‘lib, hamma narsa oq rangda bo‘lgani bilan halol bo‘lavermaydi yoki hamma narsa sariq bo‘lgani bilan oltin bo‘lmas deyiladi.

3. Yuzi odamning yuziga o‘xshab ketadigan quyosh tasviri.

Bu tasvirdagi quyosh- haqiqat va ilohiy nur, Haq taologa ishoradir[5]. Jaloliddin Rumiy asarlarida gul, qush, quyosh kabi obrazlar ilohiy muhabbat va ma’rifat ramzlari sifatida qo‘llaniladi[5].

Tasvirdagi rang va shakllarning ramziy ma’nosi:


Ko‘k va firuza ranglar – ma’naviy poklik

Bezaklardagi ko‘k, havorang va firuza tuslar:

– samo;

– abadiylik;

– ruhiy musaffolik ma’nolarini anglatadi.



Yuzi odamning yuziga o‘xshab ketadigan quyosh tasviri.

Bu ranglar insonni moddiy dunyodan yuqori ma’naviy holatga chorlaydi.

a) Humo tasvirida qo‘llanilgan yashil-moviy va yashil ranglar islomni va jannatni ramziy ma’nosi. (Qur’onda yashil rang jannat rangi sifatida talqin qilinadi); Qur’onda yashil rang jannat (jannat ahli) bilan bog‘liq holda tilga olinadi va u ramziy jihatdan farovonlik, hayot va ne’matlarni ifoda qiladi.

Qur’onda bir necha oyatlarda jannat ahli yashil liboslarda tasvirlangan. Masalan:

Qur’oni karim. Al-Insan 76:21: jannat ahli ipakdan tikilgan yashil liboslar kiyishi aytilgan.

Kahf surasi 18:31: ular yashil ipak kiyimlar va zeb-ziynatlar bilan bezanishi bayon qilingan.

Shu sababli islom an’anasida yashil rang:

– jannat va abadiy hayot ramzi;

– baraka va tinchlik belgisi;

– ilohiy ne’matlarning ifodasi deb qabul qilinadi.

Sakkizta jannatdan biri “Jannat un-na’im” (ne’matlarga to‘la jannat) yashil rangda bo‘ladi.


Humo qushini ikki qanotini oq rangda olinishi poklik va halollik yo‘lida parvoz qilishini bildiradi.

a) quyosh nurlarini tasvirlashda ishlatilgan oltin rang Alloh taolo qudratining ramzi, ilk yorug‘lik timsoli sifatida ifodalangan;

[5] Masnaviy ma’naviy. – Tehron: Amir Kabir, 2011. – 1-lijd, B. 35–42.

b) tasvir fonida ishlatilgan ko‘m-ko‘k (lojuvard) rang ilhom, donishmandlik, to‘g‘riso‘zlik, parhezkorlik va trans holati ramzidir; shuningdek, bu rang misollar olamining rangi bo‘lib, ichki olamning kengligi va koinotning cheksizligi timsolidir[6].

v) Ikki spiralsimon ikki navdalar ikki olamning abadiy spiralsimon xarakatini bildiradi. Ikki spiralsimon naqshlar biri oltin rangli navda ilm yo‘lini, ikkinchi oq navda poklik, xalollik va pokizalik yo‘lini ramziy ifodalangan. Oppoq gullar gallaktikalarni spiralsimon xarakatini bildiradi. Ushbu gallaktikalar tizimi metagalaktikani ramziy ifodalaydi.



Nodir devonbegi madrasasi qanosidagi bezaklar.
Kompozitsiya zaminida o‘simliksimon naqshlarni spiralsimon xarakatda berilishi va koinot harakati bilan uyg‘unlikda harakati.

Nodir Devonbegi madrasasi peshtoqidagi bu tasvir yana shundan dalolat beradiki, Ashtarxoniylar zamonidan, jumladan Imomqulixon davridan boshlab Buxoro xonligi madrasalarida diniy ilmlar tasavvuf bilan birga o‘qitilgan, bu darslarda buyuk so‘fiy shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlaridan, jumladan, uning “Lison ut-tayr” dostonidan darslik sifatida keng foydalanilgan[7].

2025-yil 29-aprelda Buxoro gazetasida olim Kamoliddin Rahimov “Madrasa peshtoqidagi tasvir talqini” deb nomlangan qiziqarli maqolasida Buxorodagi Nodir Devonbegi madrasasi qanosidagi kompozitsiyani o‘zgacha tahil qilgan:

“a) ikki Semurg‘ yuqoridagi oyatlarda eslatilgan ikki payg‘ambar – Muhammad (s.a.v.) va Muso (a.s.) timsoli, ikki ohu esa mazkur payg‘ambarlarga, ularning shariatlariga ergashgan mo‘minlar;

b) ikki Semurg‘ tasavvuf (sayru suluk) yo‘lida soliqqa yo‘lboshchilik qiluvchi, uni Haq taolo visoliga yetkazuvchi murshid, ikki ohu esa ushbu murshidga ergashgan muridlar”[8], deb xulosaga kelgan.

2016-yilda S.S. Bulatov va M.S. Soipovalarnig “Badiiy tahlil tamoyillari”[9] monografiyada Buxorodagi Nodir Devonbegi madrasasi qanosiga ishlangan tasvirni “Bu o‘tkinchi ya’ni sinov dunyosida, kimki, o‘z nafsini harom luqmadan tiya olsa, u dunyoda eng baxtli insondir”, deb xulosaga keladi.

2003-yilda nashr qilingan O‘zbekiston milliy ensiklopediyani 6-jildining 376-betida: “Peshtog‘i o‘ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o‘simliksimon naqshlar

[6] https://t.me/buxoronoma1920 • 29-aprel 2025
[7] https://t.me/buxoronoma1920 • 29-aprel2025
[8] https://t.me/buxoronoma1920 • 29-aprel 2025
[9] Bulatov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. (Monografiya) – T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 230-bet.

orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy humo qushi va bug‘uni o‘tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo‘yoqlarda aks ettirilgan”[10] deyilgan. Ming afsuski, qanos tasvirida bug‘uni o‘tlab yurgan tasviri umuman yo‘q. Biznigcha ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosaga keldik:

Xulosa qilib aytganda, bizning farazimizcha afsonaviy oq rangdagi to‘ng‘izni changallab quyoshga qarab parvoz qilayotgan jaryonda humo qushini holati: “Bu o‘tkinchi dunyoda insonlar agar o‘z nafsini harom luqmadan ya’ni inson ruhini jism ustidan g‘alaba qila olsalargina ular, ilohiy muhabbatga erisha oladilar” degan irfoniy g‘oya tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi yig‘ilishidagi O‘zbekistonda islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida nomli”Toshkent shahri, 2017-yil 23-iyun ma’ruzasidan. Ma’rifat gazetasi, 2017-yil 24-iyun, №50 (9011).

2. Vohidov Sh. Temirov Sh. Milliy o‘zlikni anglashning ma’naviy asoslari. // “Milliy sado” jurnali 2014, N1. 15-bet.

3. https://t.me/buxoronoma1920 29-aprel 2025

5. Qur’oni karim. – Toshkent: Sharq, 2001. – 22:46: Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din. – Qohira: Dar al-Ma’rifa, n.d.Muhyiddin Ibn Arabiy. Futuhot al-Makkiya. – Beyrut: Dar Sodir, n.d.Abdurahmon Jomiy. Devon. – Tehron: nashryot noma’lum, n.d.

6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 3-juz. Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr. – T.: “Xilol -Nashr”, 2018 – 387-bet.

7. Bulatov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. (Monografiya) – T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 227-228-betlar.

8. Sahih Muslim, hadis №1015

9. O‘zbekiston milliy ensiklopediya. 2003-yil 6-jild, 376-bet

10. Navoiy A. Lison ut-tayr. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

11. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010. – 45-bet.

[10] O‘zbekiston milliy ensiklopediya. 2003-yil 6-jild, 376 bet

Vasliddin SHUKUROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi, assistent

MILLIY KONTENT TUSHUNCHASI VA UNING TA’LIM BERISHI JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy kontent tushunchasi va uning ta’lim jarayonidgi ahamiyati keng yoritib berilgan. Qolaversa milliy mediakontentni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar, ta’limda ananaviy va raqami kontentlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Milliy kontent, mediakontent, ta’lim, axborot texnologiyalari, raqamli ta’lim.

В данной статье всесторонне освещены понятие национального контента и его значение в образовательном процессе. Кроме того, проанализированы факторы, способствующие развитию национального медиаконтента, а также значение традиционного и цифрового контента в образовании.

Ключевые слова. национальный контент, медиаконтент, образование, информационные технологии, цифровое образование.

This article provides a comprehensive overview of the concept of national content and its importance in the educational process. In addition, it analyzes the factors that contribute to the development of national media content, as well as the significance of traditional and digital content in education.

Key words. National content, media content, education, information technologies, digital education.

Bugungi globallashuv sharoitida axborot maydonida kurash yanada keskinlashib bormoqda. Turli axborot xurujlari va yot g‘oyalar insonning fikrlashi hamda ruhiy dunyosiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday jarayonlarda eng muhim omillardan biri odamlarning diqqatini jalb qilish, ularning qarashlarini boshqarishga urinishdir. Shu sababli ziddiyatli vaziyatlarda har bir davlat o‘zligini asrab qolishi, milliy manfaatlarini himoya qilishi uchun jamiyatda siyosiy savodxonlik, ma’naviy-ma’rifiy bilim va tanqidiy tafakkur darajasi yuqori bo‘lishi zarur.

Bu holatlarga befarq qarash, yolg‘on va ishonchsiz axborotlar demokratik jarayonlarga putur yetkazishi, jamoatchilik fikrini noto‘g‘ri yo‘nalishga burishi va oxir-oqibat jamiyatni turli ijtimoiy muammolar girdobiga olib kirishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar bunday zararli axborot ta’siriga tez berilishi ehtimoli yuqori. Shuning uchun xalqimizni, xususan, yosh avlodni salbiy kontentdan himoya qilishning eng samarali yo‘llaridan biri milliy axborot makonini shakllantirish va uni ishonchli, foydali, ma’rifiy hamda tarbiyaviy milliy kontent bilan boyitishdir.

Mamlakatimizda buning uchun yetarli imkoniyat va salohiyat mavjud. Turli yo‘nalishlarga ixtisoslashgan gazeta-jurnallar, televideniye va radiokanallar, mahalliy nashrlar, internet platformalar, shuningdek nodavlat ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritmoqda. Endi asosiy vazifa ularning ishlash uslubini bugungi zamon talablariga moslashtirish, sifatli kontent yaratish, tezkorlik va ishonchlilikni oshirish, eng muhimi esa milliy qadriyatlarimizni aks ettiradigan, yoshlarni fikrlashga undaydigan va jamiyat

uchun foydali bo‘lgan materiallar sonini oshirishdir. Shundagina milliy axborot makonimiz yanada rivojlanadi va turli tashqi ta’sirlarga nisbatan barqaror immunitet shakllanadi.

Mazkur tadqiqot milliy kontent tushunchasi va uning ta’lim berish jarayonidagi ahamiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslashga qaratildi va nazariy tahlil, taqqoslash va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Mamlakatimiz va xorijlik tadqiqotchilar tomonidan ham milliy kontent va raqamli ta’lim yo‘nalishida turli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, bunda milliy axborot makonini mustahkamlash, ta’lim jarayoniga mos raqamli resurslar yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan. Jumladan, Bektashev E.M., Decuypere M., Grimaldi E., Landri P. o‘z maqolalarida milliy mediakontentni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar, uni tizimli qo‘llab-quvvatlash, sifatli kontent yaratish va tarqatish mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilingan. Qolaversa ta’lim platformalari faqat texnik vosita emas, balki ta’limni tashkil etish, boshqarish va kontent tarqatish jarayonlariga bevosita ta’sir qiluvchi tizim sifatida talqin qilingan.

Bugungi axborot makonida qanday muammolar borligi, ta’limga oid milliy kontent yaratishda xorij tajribasining qaysi jihatlariga e’tibor qaratish zarurligi kabi savollar media sohasiga yangi ishtirokchilar kirib kelayotgani sharoitida milliy kontent yaratish jarayoniga tizimli va ko‘p tomonlama yondashishni taqozo etadi.

Shu o‘rinda milliy kontent tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak. Kontent o‘z-o‘zini ifoda etish, tarqatish, marketing va yoki nashr etish uchun nutq, yozuv yoki har xil san’at turlari kabi biror-bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo‘lgan axborot vositasi hisoblanadi. Har qanday kontent ma’lum maqsadga xizmat qiladi. Kontent siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, ta’limga oid yoki ko‘ngilochar mavzularda bo‘lishi mumkin. Vaholanki, inson ongi va dunyoqarashiga yot bo‘lgan g‘oyalar turli axborotlar orqali singdiriladi va bu jarayonda yuqorida sanab o‘tilgan har bir yo‘nalish o‘z o‘rniga va ta’sir kuchi ega.

Aytaylik ta’lim sohasiga oid xorijiy kontentlarga xuddi shunga mos platforma va formatlarda javob bera olishning o‘zi ham milliy kontent yaratish hisoblanadi. Avval ta’kidlanganidek, aynan mos vositalar orqali javob qaytarish deganda, eng avvalo, kontentning ona tilimizda bo‘lishi, shuningdek, imkon qadar ajdodlarimizning boy ma’naviy va ilmiy merosi hamda milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettirishi nazarda tutiladi.

Milliy kontent tushunchasi, avvalo, mamlakatning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari, til va adabiyotimizning bebaho merosiga tayangan holda shakllanadi. Shu jihatdan an’anaviy darsliklar, qo‘llanmalar, tarixiy manbalar va madaniy arxivlar o‘quvchilarga ajdodlarimiz haqidagi tasavvurni kengaytirish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash hamda o‘zbek madaniyatining o‘ziga xosligini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq so‘nggi o‘n yilliklarda axborot texnologiyalari jadal rivojlangani sabab ta’lim tizimi ham tobora raqamli muhitga ko‘chmoqda. Shuning uchun bugun milliy kontent faqat tarixiy yoki madaniy merosni yoritadigan materiallar bilangina cheklanmaydi u interaktiv elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar, mobil ilovalar, shuningdek ma’lumotlar bazalari kabi raqamli formatdagi zamonaviy ta’lim resurslarini ham qamrab oladi.

Raqamli ko‘rinishdagi milliy kontentning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat milliy qadriyatlar, an’analar va tarixiy voqiyalarni samarali yetkazib berishda, balki ularga zamonaviy texnologiyalar yordamida turli fanlarni interaktiv usullar yordamida faol o‘zlashtirish imkoniyatini ham yaratishdir. Masalan, interaktiv darsliklar va multimedia kontentlar orqali o‘quvchilar nafaqat ma’lumotni o‘zlashtiradilar, balki o‘zaro muloqot, muhokama va ijodiy faoliyat orqali tanqidiy fikrlash ham qobiliyatini rivojlantiradilar.

Shu jarayonda milliy kontent o‘zining ikki qirraliligini an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy texnologik innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish va ularning madaniy o‘ziga xosligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milliy kontentning ta’lim jarayonidagi o‘rni nihoyatda keng va ko‘p qirrali bo‘lib, u pedagogik yondashuvlar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uyg‘unligi asosida amaliyotda tobora faol qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, milliy kontentni raqamli ko‘rinishda yaratish va ta’limga joriy etish jarayoni o‘zining ko‘p bosqichli hamda tizimli xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Birinchi navbatda bunday jarayonda kontentning an’anaviy tarkibiy qismlari ya’ni, turli fanlarga oid o‘quv manbalar raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog‘lanadi. Ya’ni oddiy matnli materiallar zamonaviy formatlarga moslashtirilib, vizual, audio va interaktiv elementlar bilan boyitiladi. Bu esa o‘quvchini faqat o‘qishga emas, balki tahlil qilishga, mustaqil izlanishga va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga undaydi.

Shu maqsadda bugungi kunda ta’lim muassasalari, davlat idoralari, oliy ta’lim tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda mahalliy nashriyotlar hamkorligida turli loyihalar yo‘lga qo‘yilmoqda. Bunday hamkorlik milliy kontentni yaratishda sifat nazorati, metodik asoslanganlik, didaktik talablar, hamda kontentning yagona standartlar asosida ishlab chiqilishini ta’minlaydi. Natijada kontent nafaqat bosma yoki statik ko‘rinishda, balki multimediya, interaktiv va moslashuvchan formatlarda ishlab chiqilib, virtual sinflar, raqamli laboratoriyalar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali o‘quvchilarga taqdim etilmoqda.

Bundan tashqari, milliy kontentning raqamli shaklda yaratilishi faqat ta’limiy emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Bir tomondan, raqamli ta’lim platformalari orqali o‘quvchilar zamonaviy bilimlarni tez va qulay shaklda egallaydi, ikkinchi tomondan esa raqamli savodxonlik, texnologik tafakkur, innovatsion fikrlash kabi ko‘nikmalar rivojlanadi. Bu esa yoshlarning kelajak kasblariga moslashishiga, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga zamin yaratadi.

Raqamli milliy kontent o‘quvchilarga global tajribani o‘rganish bilan birga, uni mahalliy qadriyatlar va real sharoit bilan taqqoslab tahlil qilish imkonini ham beradi. Ya’ni ular dunyodagi ta’lim trendlarini ko‘rishadi, lekin o‘z milliy qarashlari, tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlari asosida fikr yuritishni ham o‘rganishadi. Bu holat nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki yoshlar ongida milliy o‘zlikni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi davlatlarida milliy kontentni raqamlashtirish, uni innovatsion ta’lim platformalariga integratsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar, tajribalar va amaliy loyihalar olib borilmoqda. Shu jarayonlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham milliy kontentni yaratish, uni zamonaviy raqamli muhitga moslashtirish, sifat va samaradorlikni oshirish masalasiga yanada jiddiy yondashish zarur. Ya’ni ta’lim mazmunini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, raqamli ta’lim infratuzilmasini kuchaytirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish va eng muhimi, milliy kontentni tizimli tarzda ishlab chiqib, keng ommaga yetkazish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Umuman olganda, bugungi ta’lim tizimida milliy kontent ikki yo‘nalishda muhim vazifani bajaradi. Bir tomondan, u xalqimizning boy tarixiy tajribasi, madaniy merosi, til va adabiyotga oid bebaho qadriyatlarini yangi avlodga yetkazib, ularda milliy o‘zlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, zamonaviy axborot texnologiyalari, interaktiv raqamli platformalar va turli ma’lumotlar bazalari yordamida o‘quvchilarga global bilimlar, zamonaviy texnologik savodxonlik

hamda amaliy ko‘nikmalarni egallash imkonini yaratadi. Bunday uyg‘unlashuv ta’lim sifatini oshirish bilan birga, yoshlarning kelajakdagi ijtimoiy faolligi va iqtisodiy muvaffaqiyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim omil hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’limga oid ananaviy va raqamli ko‘rinishdagi kontentlar va ularning mazmuniga alhida to‘xtalib o‘tish joiz. Chunki zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari va axborot komunikatsion texnologiyalar global ta’lim tizimiga chuqur integratsiyalashuvi jahonda bu texnologiyalarning ilmiy maqsadlarga mosligi va samaradorligiga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi.

Bilim olishning asosi o‘qish ekanligini hisobga olsak, bugungi kunda ushbu jarayoni tobora raqamli shaklga o‘tayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu o‘zgarish ilmiy jamoatchilikda raqamlashtirishning zamonaviy avlod kognitiv imkoniyatlari, shuningdek, ularning psixofizik va intellektual potentsialiga ya’ni matnli ma’lumotni qabul qilish, tushunish, o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek cheksiz raqamli axborot manbalaridan foydalanish orqali o‘rganish hamda bilim darajasiga ta’sirini keng doirada muhokama qilishga olib keldi.

Ta’limga oid raqamli kontent – bu bizning ta’lim olish va ta’lim berishga bo‘lgan qarashimizni o‘zgartirib, ta’lim berish va ta’lim olish jarayonida cheksiz imkoniyatlar taqdim etgan texnologiya hisoblanadi.

Raqamli kontent ta’lim sohasida haqiqiy inqilobiy o‘zgarishni amalga oshirgani ayni haqiqat. Endi faqatgina an’anaviy o‘quv vositalari emas balki interaktiv o‘quv shakllariga o‘tish imkoniyati kengaymoqda. Bunga misol sifatida video darslar, infografikalar va audio materiallar yordamida axborotni yanada samarali tushunish hamda eslab qolish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim tasavvurimizni rivojlantirib, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarimizni oshiradi.

Raqamli kontent bugun nafaqat ta’lim tizimiga, balki jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ko‘plab jarayonlarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar hamda onlayn yangilik manbalari orqali dolzarb axborotlarga tez va qulay tarzda murojaat qilish imkoniyati ortgani sari, biz ham axborotni tez qabul qilish, uni saralash, tanqidiy baholash va chuqur tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirib bormoqdamiz.

Shu o‘rinda, an’anaviy kontent va raqamli kontent o‘rtasidagi farqlarni yanada aniqroq tushunish uchun quyidagi jadval asosida ularni solishtirib ko‘rish mumkin.

1-jadval. Raqamli va an’anaviy kontentlarning farqi

Xususiyati	Raqamli kontent	Ananaviy kontent
Foydalanish va tarqatish	Internet orqali global tarqatiladi Istalgan vaqt va joydan tezkor kirish imkoniyati	Bosma materiallar Tarqatish va yangilanish jarayoni ko‘proq vaqt talab qiladi
Interaktivlik	Matn, video, audio, animatsiyalar va interaktiv elementlardan iborat Foydalanuvchiga qulay va dinamik imkoniyat yaratadi	Asosan statik Matn va tasvirlar orqali beriladi Interaktivlik chegaralangan
Yangilash va tahrirlash	Oson yangilanadi va tahrir qilinadi O‘zgartirishlar darhol e’lon qilinishi mumkin	Yangilanish qiyinroq Yangi nashr yoki qo‘shimcha bosma materiallar talab qiladi
Foydalanuvchi bilan muloqot	Real vaqt muloqot imkoniyati Fikr almashish va interaktiv muloqot yordamida yanada faol ishtirok etish	O‘quvchi va kontent o‘rtasidagi aloqa passiv Interaktivlik imkoniyatlari cheklangan

Saqlash texnologiyalari	Elektron shaklda saqlanadi Katta hajmdagi ma’lumotlarni joy tejab saqlash va oson qidirish imkoniyatiga ega	Joy va resurslarni ko‘proq talab qiladi

Yuqorida keltirilgan jadvalda ko‘rinib turibdiki, raqamli kontent tezkor, interaktiv va keng ommaga mo‘ljallangan bo‘lsa, an’anaviy kontent ko‘proq doimiylik, ishonchlilik va maxsus tajriba bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi omillar va tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, milliy kontent tushunchasi bugungi kunda ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat o‘quvchilarning akademik bilimlarini oshirishga, balki ularning madaniy, etnik va texnologik identitetini mustahkamlashda, shuningdek, global miqyosda raqobatdosh insonlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, mamlakatimiz ta’lim tizimi doirasida milliy kontentni keng qamrovli va zamonaviy shaklda ishlab chiqish, uni davlat strategiyasi va ta’lim islohotlari doirasida qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masala sifatida e’tirof etiladi.

Bu jarayonni samarali yo‘lga qo‘yish uchun davlat idoralari, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi mutaxassislar o‘rtasida uzluksiz va mustahkam hamkorlik bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, milliy kontentni raqamli shaklda amaliyotga joriy etish o‘quvchilarning intellektual salohiyati, madaniy dunyoqarashi va texnologik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interaktiv ta’lim platformalarini yaratish orqali yanada samarali kechadi.

Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar va innovatsion loyihalar doirasida bir qator ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Birinchidan, raqamli ta’lim resurslari milliy qadriyatlarimiz va madaniy merosimiz bilan uyg‘un bo‘lishini ta’minlash, ya’ni kontent nafaqat zamonaviy, balki mazmunan ham milliy ruhga mos bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, interaktiv ta’lim vositalarining o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishdagi ta’siri empirik tadqiqotlar asosida chuqur o‘rganilishi zarur. Uchinchidan, dunyodagi ilg‘or texnologik yo‘nalishlar hamda innovatsion ta’lim modellarini o‘zbek ta’lim tizimi va milliy mentalitetiga moslashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday izlanishlar milliy kontentni nafaqat nazariy jihatdan asoslash, balki uni amaliy ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish va yosh avlodga qulay shaklda yetkazish nuqtayi nazaridan katta foyda beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuz.uz – yangiliklar portal https://yuz.uz/uz/news/milliy-kontent-u-ozi-nima-qanday-zarurati-bor

2. Decuypere M., Grimaldi E., Landri P. Introduction: Critical studies of digital education platforms // Critical Studies in Education. – 2021. – Vol. 62, No. 1. – P. 1–16.

3. Облако знанийю Образовательный онлайн-сервис для школьников и учителей с тысячами интерактивных работ, входящих в федеральный перечень ЭОР. Цифровой контент в образовании [Электронный ресурс]. – https://oblakoz.ru

4. Dillenbourg P. The evolution of research on digital education // Int J Artif Intell Educ. Published online: 16 February 2016. P. 544 – 560.

5. Bektashev E.M. Milliy mediakontentni rivojlantirish omillari // Ilm-fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta’limning o‘rni hamda rivojlanish omillari. – 2025. – 6-to‘plam, 1-son. – B. 85–89.

Doniyorjon ALIBAYEV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, tayanch doktorant

O‘QUVCHILAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchi-yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, tarbiya jarayonining uzluksizligi va samaradorligini ta’minlashda oila, maktab va mahalla hamkorligining o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar tarbiyasiga doir milliy va umuminsoniy yondashuvlar, tarbiya sifati, pedagogik hamkorlik, oilaviy muhit, mahalla institutining tarbiyaviy salohiyati hamda tarbiyaviy faoliyatni baholash metodlarining ahamiyati yoritilgan. Yosh avlodni barkamol, mustaqil fikrlovchi, ma’naviy yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs etib voyaga yetkazishda hamkorlikka asoslangan tarbiya tizimini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya, o‘quvchilar, oila, maktab, mahalla, hamkorlik pedagogikasi, tarbiya sifati, pedagogik baholash, uzluksiz ma’naviy tarbiya, oilaviy muhit, mahalla instituti, barkamol shaxs, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik, tarbiyaviy monitoring.

В данной статье анализируется социально-педагогическое значение духовно-нравственного воспитания учащейся молодежи, роль сотрудничества семьи, школы и махалли в обеспечении непрерывности и эффективности воспитательного процесса. Также освещены национальные и общечеловеческие подходы к воспитанию молодежи, качество воспитания, педагогическое сотрудничество, семейная среда, воспитательный потенциал института махалли и значение методов оценки воспитательной деятельности. Обоснована необходимость совершенствования системы воспитания, основанной на сотрудничестве, в воспитании молодого поколения как гармонично развитой, самостоятельно мыслящей, духовно зрелой и социально ответственной личности.

Ключевые слова. духовно-нравственное воспитание, учащиеся, семья, школа, махалля, педагогика сотрудничества, качество воспитания, педагогическая оценка, непрерывное духовное воспитание, семейная среда, институт махалли, гармонично развитая личность, национальные ценности, социально-педагогическое сотрудничество, воспитательный мониторинг.

This article analyzes the socio-pedagogical significance of the spiritual and moral education of student youth and the role of family, school, and neighborhood cooperation in ensuring the continuity and effectiveness of the educational process. National and universal approaches to the upbringing of youth, the quality of upbringing, pedagogical cooperation, the family environment, the educational potential of the mahalla institution, and the importance of methods for assessing educational activities are also highlighted. The necessity of improving the system of upbringing based on cooperation in raising the younger generation as a harmoniously developed, independently thinking, spiritually mature and socially responsible person is substantiated.

Key words. Spiritual and moral education, students, family, school, mahalla, cooperation pedagogy, quality of education, pedagogical assessment, continuous spiritual education, family environment, mahalla institution, harmoniously developed personality, national values, socio-pedagogical cooperation, educational monitoring.

Bugungi globallashuv va keskin ijtimoiy-ma’naviy o‘zgarishlar sharoitida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini samarali tashkil etish jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zero, shaxsning barkamol kamoloti, uning ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyati va milliy qadriyatlarga sadoqati,

avvalo, to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiya jarayoniga bog‘liqdir. Shu jihatdan oila, maktab va mahalla hamkorligi asosida o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash, ularda yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish, salbiy illatlarning oldini olish hamda tarbiya jarayonining samaradorligini ilmiy asosda baholab borish muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalani tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jamiyat mavjudki hamisha tarbiyaga ehtiyoj bo‘ladi. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy: “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalarga e’tibor berilmagan bolalardir”[1], degan edi kuyunib. Inson tarbiyasiga o‘z vaqtida e’tibor qaratilmasligi yoki tarbiyaviy ta’sirning kechikishi jamiyat hayotida salbiy oqibatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi va ma’naviy kamoloti bevosita to‘g‘ri yo‘naltirilgan tarbiya jarayoniga bog‘liqdir. Tarbiyadan yetarli darajada bahramand bo‘lmagan inson ko‘pincha jamiyat me’yorlari va ijtimoiy talablarga zid xatti-harakatlarga moyillik bildirsa, ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllangan shaxs, aksincha, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijobiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Yolg‘onchilik, bezorilik, o‘g‘rilik, xiyonat, fohishabozlik, suqast va korrupsiya kabi turli ko‘rinishdagi ma’naviy-axloqiy og‘ishlar, avvalo, tarbiyadagi bo‘shliq, e’tiborsizlik hamda voyaga yetayotgan avlodning nazoratsiz qolishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, bugungi ma’naviy-tarbiyaviy muhit holatini tahlil qilish milliy tarbiya ko‘rsatkichlari yetarli darajada yuqori emasligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, ma’naviyatni targ‘ib etuvchi shaxslarning o‘zlari yuksak ma’naviy fazilatlar sohibi bo‘lmasa, ularning so‘zlari bilan amaliy faoliyati o‘rtasida tafovut yuzaga keladi. Bunday holat tarbiyaviy-tashviqiy ishlarning samaradorligiga jiddiy putur yetkazadi. Zero, ma’naviyatni faqat nazariy jihatdan targ‘ib qilish bilan kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Mazkur sohada qancha ko‘p maqolalar, ilmiy asarlar, ommaviy axborot materiallari yaratilmasin, ko‘rsatuvlar tashkil etilmasin yoki davlat dasturlarida ma’naviyat masalalariga alohida urg‘u berilmasin, agar targ‘ibotchining shaxsiy namunaliligi ta’minlanmasa, barcha sa’y-harakatlar yetarli samara bermaydi.

O‘quvchi-yoshlar o‘rtasida uchrayotgan huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlarining ildizlari ham ko‘p jihatdan qarovsizlik, nazoratsizlik hamda bo‘sh vaqtning mazmunsiz o‘tkazilishi bilan izohlanadi. Bunday vaziyatlarda mas’uliyatni to‘liq ravishda ota-onalar zimmasiga yuklash biryoqlama yondashuv hisoblanadi. Albatta, oilaning farzand tarbiyasidagi o‘rni beqiyosdir, biroq har bir oilaning tarbiyaviy salohiyati bir xil emas. Shu sababli farzand kamolotini faqat oilaning o‘zi bilan cheklab bo‘lmaydi. Ushbu jarayonda maktab, oila va mahalla hamkorligini kuchaytirish, tarbiyaviy ta’sirni uyg‘un va tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish muhim ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

“Oilaning bir o‘zi tom ma’noda farzandga mukammal tarbiya bera olmasligini, uning tarbiyasida bevosita davlat va jamiyat ishtirok etishi” [2] kerakligini Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida asoslab bergan. Mazkur holat tarbiya jarayonida mas’uliyat va javobgarlik doirasini kengaytirish masalasi tarixan ham, zamonaviy ijtimoiy-pedagogik sharoitda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganini anglatadi. Chunki yosh avlod tarbiyasi faqat alohida bir subyekt faoliyati bilan emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘langan ijtimoiy institutlarning hamkorligi asosida samarali tashkil etiladi. Xususan, o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qarovsiz va nazoratsiz qolish holatlarini bartaraf etish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda salbiy ta’sirlarga berilib ketishining

oldini olish faqat oila, mahalla va maktabning yagona maqsadga yo‘naltirilgan, izchil, uzluksiz va o‘zaro muvofiqlashtirilgan hamkorligi ta’minlangandagina ijobiy yechim topadi. Shu ma’noda, mazkur uchlik hamkorligi yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etishning muhim ijtimoiy-pedagogik sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Xitoy donishmandi Syun-Szi “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘lashadi, katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”, deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuil Kant esa “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tarbiyaning ijtimoiy va siyosiy ahamiyati haqidagi qarashlar qadimgi davrlardayoq pedagogik tafakkur markazida bo‘lganini kuzatish mumkin. Xususan, antik davr mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga doir yondashuvlarida tarbiya jamiyat va davlat barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida talqin etilgan. Bu borada Aflotun qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. U ilk bor davlat bilan tarbiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasini nazariy jihatdan asoslab, tarbiyani davlat zimmasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etgan. Uning fikricha, jamiyatning ma’naviy va siyosiy taraqqiyoti bevosita yosh avlodga beriladigan tarbiyaning mazmuni va yo‘nalishiga bog‘liqdir. Shu bois tarbiya faqat shaxsiy yoki oilaviy ehtiyoj doirasidagi hodisa emas, balki davlat miqyosidagi strategik ahamiyatga ega ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, tadqiqotchi N. Egamberdieva ta’kidlaganidek “tarbiyaning ijtimoiy samarasi bevosita inson-davlat-jamiyat uyg‘unligi va uning ravnaqini belgilab, butun milliy, ijtimoiy g‘oyalarning abadiy singdirilishi va tarkib topishida muhim o‘rin tutadi” [3].

Tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkab, ko‘p bosqichli va uzoq muddat davom etadigan jarayon bo‘lib, u uzluksizlik, izchillik va tizimlilik tamoyillari asosida amalga oshirilishini talab etadi. Mazkur jarayonning samaradorligi esa faqat alohida subyekt faoliyati bilan emas, balki ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik darajasi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan qaralganda, mamlakat taraqqiyoti va istiqbolli kelajagini ta’minlashda yuksak ma’naviyatli, ijtimoiy faol va mas’uliyatli yoshlarni voyaga yetkazish pedagogik hamkorlik faoliyatini ustuvor zaruratga aylantiradi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, 1993-yilda “Oila-mahalla-ta’lim tashkiloti hamkorligi” konsepsiyasining ishlab chiqilishi tarbiya jarayonida mas’uliyat va javobgarlik doirasini huquqiy hamda ijtimoiy jihatdan kengaytirishga xizmat qildi.

Mazkur konsepsiyaning asosiy mazmuni yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, ularda ijobiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish va barkamol shaxs sifatlarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Unda o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik, tinchliksevarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish, jamiyatda uchraydigan turli salbiy illatlar, huquqbuzarlik, jinoyatchilik hamda buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetini kuchaytirish kabi ustuvor vazifalar ilgari surilgan. Shu bilan birga, mazkur yondashuv orqali zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatni his etuvchi yoshlarni tarbiyalashdek strategik maqsadni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

“Ta’lim-tarbiya makonida pedagogik hamkorlik munosabatlarining muhim shakllari: tarbiyalanuvchi - ota-onalar, tarbiyalanuvchi - o‘qituvchi, ta’lim tashkilotlari - mahalla organlari, mahalla organlari - ota-onalar faoliyatining maqsad va mazmun jihatidan mushtarakligini baholash asosida o‘quvchi-yoshlarning uzluksiz ma’naviy tarbiya topishlarini ta’minlash” [4] mazkur paradigmalarning ma’naviy-tarbiyaviy hamkorlikdagi uyg‘unligini muntazam monitoring qilib borish amaliyoti bugungi kunda hayotiy zarurat

darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, hamkorlik asosida belgilangan vazifalar hamda amalda bajarilayotgan ishlar natijadorligini aniqlash, tarbiya jarayonining samaradorlik darajasini nazorat qilish va baholash, shuningdek, mazkur hamkorlik faoliyatida istirok etayotgan subyektlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik holatini aniqlash pedagogik metodlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv tarbiya jarayonini faqat umumiy kuzatish yoki subyektiv mulohazalar asosida emas, balki aniq mezonlar, ko‘rsatkichlar hamda ilmiy asoslangan baholash mexanizmlari vositasida tahlil qilish imkonini beradi.

Biroq muammoning murakkab jihati shundaki, oila, mahalla va maktab ta’siri asosida shakllantirilayotgan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini sifat nuqtai nazaridan baholash bevosita, sodda va bir yoqlama amalga oshiriladigan jarayon hisoblanmaydi. Chunki bunday faoliyatning natijalari ko‘p omilli, ko‘p subyektli va uzoq muddatli ta’sirlar bilan belgilanadi. Shu sababli uni faqat bitta ekspertning individual xulosasi asosida aniqlash yetarli ilmiy ishonchlilikni ta’minlamaydi. Aksincha, guruhiy ekspert baholash mexanizmlaridan foydalanish orqali natijalarning xolisligi, aniqligi va ishonchlilik darajasini oshirish mumkin bo‘ladi.

Mazkur vazifani samarali amalga oshirish uchun, eng avvalo, baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini aniq belgilab olish, shuningdek, tarbiyaviy faoliyatni ilmiy asoslangan nazariy hamda amaliy usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Aynan shu jihatlar tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilab beradi hamda uning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim yangilik kasb etishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston yoshlarini ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga doir dolzarb milliy masalalar quyidagilardan iborat:

– yosh avlod ongida milliy o‘zlikni anglash, ulug‘ ajdodlar ma’naviy merosini e’zozlash, xalqimizning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ezgu g‘oya, orzu-intilishlar hamda istiqboldagi strategik maqsad va vazifalarga daxldorlik tuyg‘usini qaror toptirish;

– yoshlarni jamiyatni birlashtirishga, yurt tinchligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga, xalqni ezgu va bunyodkor maqsadlar sari safarbar etishga xizmat qiluvchi milliy g‘oyaga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– xalqaro maydonda Vatan sha’ni va nufuzini munosib himoya qila oladigan, yuksak marralarni egallashga intiladigan, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulariga ega bo‘lgan yetuk avlodni voyaga yetkazish;

– yosh avlodni insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va fuqarolik mas’uliyati tamoyillari asosida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

– mustaqil dunyoqarashga, erkin va tanqidiy tafakkurga ega bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ongli munosabat bildira oladigan shaxsni shakllantirish;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un ravishda o‘zlashtira oladigan, zamonaviy taraqqiyot talablari asosida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qodir barkamol insonlarni tarbiyalash.

Maktab davri o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun tayanch fazilatlarni shakllantiruvchi eng muhim davr hisoblanadi. Tarbiyaviy mas’ullardan maktab o‘quvchilarining har biridagi sifatiy hamda miqdoriy o‘zgarishlarni kuzatib borish, salbiy og‘ishlarni erta aniqlash hamda pedagogik diagnostikani kechiktirmasdan qo‘yish, tarbiya usullarini to‘g‘ri tartibga solish va tarbiyaterapiya ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy tendensiyalarning oldini olishning muhim bosqichi sanaladi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning asosiy mashg‘ulotlari, qiziqish va ehtiyojlarini uzluksiz ma’naviy tarbiyaga muvofiq ravishda shakllantirish, ertangi kunimiz uchun mustaqil fenomenik xususiyatga ega bo‘lgan, jamiyat rivoji uchun ishonchli va faol yoshlarni yetkazib berishdek ijtimoiy talabni qondirishga xizmat qiladi. Demak, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga berilayotgan jiddiy e’tibor ertangi kun-kelajagimizga qaratilayotgan yuksak maqsadlarimizning namunasidir. Bugungi kunda zamona zaylining turli tarbiyaviy ta’sirga ega shiddatli o‘zgarishlari yosh avlod kamoloti yo‘lida yanada yuksakroq mas’uliyat va yangicha talablarni qo‘yib bormoqda.

Aholining sezilarli qismini tashkil etuvchi yoshlarning barkamol shaxs sifatida voyaga yetishini taminlash nafaqat ta’lim tizimini rivojlantirish, balki ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ma’naviy, madaniy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishni ham talab etadi. Shu ma’noda, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga oid islohotlar kompleks xususiyat kasb etib, unda oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faol hamkorlikda ishtirok etmoqda. Ayniqsa, “Oila – mahalla – ta’lim tashkiloti” hamkorligi asosida tarbiyaviy ishlarning uzviy va muvofiqlashtirilgan tarzda yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama sog‘lom, ma’naviy barkamol va ijtimoiy faol etib tarbiyalashning muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizmi sifatida xizmat qilmoqda. Tarbiyaviy faoliyatning hamkorlik pedagogikasi tamoyillari asosida, kechiktirmasdan, o‘zaro birdamlik va mushtarak maqsadlar negizida amalga oshirilishi esa istiqbolda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olishda samarali profilaktik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Farzand tarbiyasini yaxlit va aniq maqsad asosida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu jarayonda ota-ona, o‘qituvchi, mahalla va ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik bosh tarbiyaviy kafolat tizimi sifatida e’tirof etiladi.

Xususan, ota-ona-o‘qituvchi, ota-ona-mahalla kengashi, ta’lim tashkiloti–mahalla kengashi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, shuningdek, ushbu subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib, istiqbolli vazifalarni belgilab boruvchi “ota-ona – ta’lim tashkiloti – mahalla jamoatchilik kengashi” tarbiya jarayonining institutsional tayanchini tashkil etadi. Mazkur tizimning joriy etilishi tarbiya mas’uliyatini bir subyekt zimmasidan chiqarib, uni ko‘p tomonlama ijtimoiy-pedagogik hamkorlik asosida amalga oshirish zaruratidan kelib chiqadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur hamkorlikning tashkiliy mexanizmlari mavjud bo‘lishiga qaramay, uning natijadorligi har doim ham kutilgan darajada namoyon bo‘lavermaydi. Shu bois masalani yangi subyektlarni kiritish orqali emas, balki mavjud tizimning samaradorligini muntazam baholab borish, hamkorlik faoliyatini monitoring qilish hamda tarbiya jarayoniga mas’ul bo‘lgan subyektlar faoliyati ustidan ta’sirchan nazorat mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish orqali hal etish maqsadga muvofiqdir. Demak, bugungi sharoitda asosiy ehtiyoj yangi tizim yaratishda emas, balki amalda mavjud bo‘lgan ta’lim-tarbiya hamkorligi mexanizmlarining ishlash sifatini baholash va takomillashtirishda namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchilik kasbi o‘z mohiyatiga ko‘ra yuksak mas’uliyat, sabr-toqat va uzluksiz pedagogik sa’y-harakatni talab etadigan murakkab kasblardan biridir. Mazkur mashaqqatning asosiy qismi ko‘pincha o‘quvchi-yoshlarning tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, sinf rahbarlari va fan o‘qituvchilari zimmasiga katta yuk yuklaydi. Shu nuqtai nazardan, sinf rahbarlari, avvalo, “Oila-maktab-mahalla hamkorligi” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini chuqur o‘zlashtirishi, o‘quvchilarni rivojlantirish dasturi asosida ishlab

chiqiladigan tarbiyaviy ish rejasini aynan mazkur konseptual yondashuvlarga tayangan holda shakllantirishi va amaliyotga joriy etishi lozim. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, qaysi sinfda ota-ona bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari izchil va samarali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha sinfning ma’naviy-psixologik muhiti ham nisbatan sog‘lom va barqaror shakllanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning maktabdagi va maktabdan keyingi faoliyatiga e’tibor qaratish, ularning darsdan tashqari vaqtini rejali tashkil etish, qiziqish va qobiliyatlariga mos ravishda to‘garaklar hamda foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirish ham ko‘p jihatdan sinf rahbarining tashabbuskorligi va pedagogik faolligiga bog‘liqdir.

Ayni paytda, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishdagi ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, to‘garak va qo‘shimcha mashg‘ulotlarning asosan ta’lim muassasalari doirasida tashkil etilishi, mahalla sharoitida esa yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish bilan bog‘liq imkoniyatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha choralarni talab etadi. Shu jihatdan mahalla institutining tarbiyaviy salohiyatidan yanada kengroq foydalanish muhimdir. Xususan, gerontopedagogik yondashuv imkoniyatlarini hisobga olgan holda, mahalladagi namunali oilalar, katta hayotiy tajribaga ega nuroniylar va obro‘li jamoatchilik vakillari ishtirokida tizimli tarbiyaviy muloqotlarni yo‘lga qo‘yish o‘quvchi-yoshlarda hayotiy tajriba, ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy barqarorlik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, “Oila-maktab-mahalla hamkorligi” konsepsiyasining amaliy samaradorligi nafaqat normativ asoslarning mavjudligi, balki sinf rahbarlari, ota-onalar va mahalla faollarining tashabbuskorligi, mas’uliyati va hamkorlikdagi faolligi bilan ham bevosita belgilanadi.

O.D. Raximovning “Ta’lim sifati va hayot sifati” nomli uslubiy qo‘llanmasida o‘qituvchi sifati masalasi kompleks pedagogik kategoriya sifatida yoritiladi. Unda ta’kidlanishicha, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi subyekt, balki bo‘lajak kadrlarning shaxsiy kamoloti, ilmiy dunyoqarashi va ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy omil hamdir. Shu sababli o‘qituvchi sifati deganda uning kasbiy kompetentligi, ya’ni aniq fan va amaliyot yo‘nalishi bo‘yicha chuqur bilim hamda tajribaga egaligi, pedagogik faoliyatga layoqati va moyilligi, o‘quvchilarning individual qobiliyatlari hamda shaxsiy xususiyatlarini tez anglay olishga xizmat qiluvchi pedagogik kuzatuvchanligi, ta’lim muhitining ichki va tashqi omillari bilan uyg‘un faoliyat olib borish salohiyati, pedagogik jarayonni samarali boshqarish mahorati hamda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kasbiy va shaxsiy fazilatlar tizimi tushuniladi.

O‘qituvchi sifatini baholash jarayonida yuqorida tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar, asosan, bevosita son jihatdan o‘lchab bo‘lmaydigan, murakkab va ko‘p qirrali tavsifga ega omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ularni aniqlashda aniq miqdoriy ko‘rsatkichlardan ko‘ra, bilvosita baholash mezonlariga tayanish zarur bo‘ladi. Jumladan, o‘qituvchining kompetentlik darajasi uning tayanch ma’lumoti, ilmiy daraja va ilmiy unvonga egaligi, pedagogik ish staji, muayyan fan yoki faoliyat sohasi bo‘yicha orttirgan amaliy tajribasi, kasbiy rivojlanish darajasi hamda o‘z mutaxassisligi doirasidagi nazariy va amaliy tayyorgarlik holati orqali baholanishi mumkin[6]. Tarbiyalanuvchilar sifati jamiyat ma’naviy muhitining shakllanishi va barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy indikatorlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim-tarbiya tizimining markaziy subyekti sifatida o‘quvchi shaxsiga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Pedagogik jarayonning mazmuni va yo‘nalishi, hamkorlik asosida olib boriladigan tarbiyaviy faoliyat, o‘quv-metodik dasturlar, darsliklar va ilmiy-uslubiy adabiyotlarning yaratilishi, shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ishlab chiqilishi bevosita o‘quvchilarni har

tomonlama rivojlantirish, ularning ma'naviy-axloqiy, intellektual va ijtimoiy kamolotini ta'minlash maqsadiga xizmat qiladi. Binobarin, ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan barcha islohot va yangilanishlarning bosh mezoni tarbiyalanuvchi shaxsining sifat ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi.

Tarbiya sifati tarbiyalanuvchilarda shakllangan ma'naviy-axloqiy sifatlarning "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasida belgilangan mezon va indikatorlarga muvofiqlik darajasi bilan tavsiflanadi. Mazkur yondashuv tarbiyani shaxs kamolotining maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli va natijaga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik jarayoni sifatida baholash imkonini beradi. Tarbiya kategoriyasining ilmiy asosda shakllanishi tarixiy jihatdan XVIII asrga borib taqalib, I.I. Betskoy tomonidan ushbu tushuncha pedagogik tafakkur doirasida yanada aniq mazmun kasb etgan. Uning qarashlarida tarbiya orqali "yangi avlod"ni shakllantirish mumkinligi, insondagi ezgulik va salbiy xususiyatlarning ildizi tarbiyaga borib taqalishi asoslab beriladi. Bu esa tarbiyaning nafaqat individual, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tarbiya sifati bevosita tarbiyalovchi subyektlarning sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi tarbiyaviy faoliyatning maqsadga muvofiqligi, mazmuni va natijadorligi orqali namoyon bo‘ladi. Tarbiyalanganlik belgisi sifatida o‘quvchi shaxsida kuzatiladigan ijobiy va faol o‘zgarishlar davlat dasturlarida belgilangan strategik vazifalar hamda milliy tarbiya tamoyillariga mos kelgan taqdirdagina mazmunli pedagogik natija sifatida baholanadi. Zero, har qanday tarbiya jarayoni oldindan belgilangan maqsad, vazifa va kutilayotgan ijtimoiy natijalarsiz mavjud bo‘la olmaydi.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Tarbiya ila dars orasida farq bor, chunki: dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi- amal qiluvchi demakdur. Tarbiya esa badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasiga bo‘linur"[8], deydi. Yana: "Qush uyasinda ko‘rganin qiladur. Inson javhari qobilidur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanub, katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lub chiqar. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, Allohdan qo‘rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog‘iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo‘lub qolur"[9], deyiladi. Darhaqiqat, shaxsning dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan munosabati va ijtimoiy xulq-atvorining dastlabki asoslari, eng avvalo, u voyaga yetayotgan oilaviy muhitda shakllanadi. Inson borliqni, ijtimoiy qadriyatlarni va munosabatlar tizimini birinchi navbatda oila vositasida anglaydi hamda aynan shu muhitda hosil qilgan tasavvurlariga tayangan holda jamiyat hayotiga kirib boradi. Shu bois ota-onalarning farzand tarbiyasidagi o‘rni va mas'uliyati nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ota-ona o‘z tarbiyaviy burchini chuqur anglashi, bu jarayonda loqaydlikka yo‘l qo‘ymasligi, farzand tarbiyasini tasodifiy ta'sirlar yoki begona shaxslar ixtiyoriga topshirmasligi, shuningdek, ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarda faol va teng sherik sifatida ishtirok etishi zarur. Ana shunday mas'uliyatli yondashuvgina shaxsning ijtimoiy hayot maqsadlariga munosib, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson bo‘lib voyaga yetishini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Oila" kodeksining tegishli moddalarida oila, ota-ona va farzand tarbiyasi bilan bog‘liq huquq va majburiyatlarning huquqiy asoslari sifatida ham o‘z ifodasini topgan.Oila institutlaridagi ma'naviy muhit darajasiga qarab turli toifalarga bo‘linadi:

– ijtimoiy va tarbiyaviy faoliyati bilan ijobiy namuna bo‘la oladigan oilalar;

– oilaviy munosabatlar tizimida ziddiyatli holatlar ustun bo‘lgan oilalar;

– ma’naviy-axloqiy tarbiya salohiyati yetarli darajada shakllanmagan oilalar;

– o‘zaro munosabatlari me’yoriy va nisbatan barqaror bo‘lgan oilalar [10].

O‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida uchrashi mumkin bo‘lgan dolzarb pedagogik muammolarning yuzaga kelmasligi yoki ularning oldini olish, avvalo, bolaning shakllanayotgan oilaviy muhitiga bevosita bog‘liqdir. Zero, har bir oila o‘ziga xos individual xususiyatlar, qadriyatlar tizimi, ma’naviy muhit va tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu omillar farzand shaxsining rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Shunga qaramasdan, oilalarning tipologik farqlaridan qat’i nazar, tarbiya jarayonida amal qilinadigan asosiy pedagogik tamoyillar va umuminsoniy axloqiy mezonlar o‘zining umumiy mazmunini saqlab qoladi. Ayniqsa, oilada shakllangan muomala madaniyati shaxsning ijtimoiylashuvi, uning atrofdagilar bilan munosabat o‘rnatish uslubi, o‘z fikri va maqsadlarini ifodalash darajasi hamda ichki dunyosining tashqi ko‘rinishida muhim namoyon bo‘ladi. Shu bois oiladagi muomala madaniyati nafaqat farzand tarbiyasining muhim tarkibiy qismi, balki uning boshqa insonlardan farqlanuvchi individual va ijtimoiy qiyofasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri sifatida ham baholanishi mumkin.

Ushbu nuqtai nazarni asoslashda buyuk ma’rifatparvar Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlari muhim metodologik ahamiyatga ega. “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tarbiyali bo‘ladi” [11].

Haqiqatan ham, shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, nozik ruhiy kechinmalari va ijtimoiy fazilatlari dastlab oilaviy muhit ta’sirida shakllanadi. Shu ma’noda, oila yosh avlod kamolotining birlamchi ijtimoiylashuv muhiti va muhim tarbiyaviy instituti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Oiladan keyingi bosqichda mazkur vazifa ta’lim-tarbiya muassasalari zimmasiga yuklanadi. Shu bilan birga, mahalla jamoatchiligi ham yoshlarni tarbiyalash jarayonidan chetda qolmaydigan, aksincha, uning ijtimoiy samaradorligini ta’minlovchi muhim subyektlardan biri hisoblanadi. Binobarin, o‘sib kelayotgan yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, ularda istiqbolga ishonch, ijtimoiy mas’uliyat, salbiy illatlar va buzg‘unchi ta’sirlarga nisbatan barqaror immunitetni shakllantirish, shuningdek, ularni hayotiy sinovlarga bardoshli va kurashuvchan ruhda voyaga yetkazish oila, mahalla va maktab hamkorligining ustuvor ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan sanaladi.

Oilalardagi ma’naviy-axloqiy muhitni kuzatish, mustahkamlash va unga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda mahalla institutining roli benihoya kattadir. Zero, o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy turmush tarzida mahalla qo‘ni-qo‘shnichilik, o‘zaro ko‘mak va ijtimoiy nazorat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy birlik shakli sifatida uzoq yillar davomida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Odatda, oilalar turli marosimlar, tadbirlar yoki muammoli vaziyatlarda mahallaning obro‘li vakillari, oqsoqollari va faollari bilan maslahatlashgan holda ish tutgan. Aynan mahalla doirasida shakllangan odamgarchilik, mehr-oqibat va hamjihatlik muhiti bolalar tarbiyasiga jamoaviy yondashuvni kuchaytirgan. Shu bois mahallaning oilaga ko‘rsatadigan ma’naviy-tarbiyaviy ta’siri ijtimoiy jihatdan samarali va barqaror omil sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamoloti jamiyat taraqqiyoti, davlat barqarorligi va millat istiqbolini belgilovchi ustuvor omillardan biridir. Tarbiya murakkab, uzluksiz va ko‘p subyektli jarayon bo‘lib, uning samaradorligi oilaning tarbiyaviy salohiyati, maktabning pedagogik faoliyati hamda mahalla jamoatchiligining ijtimoiy ta’siri uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Shu bois o‘quvchi-yoshlarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda “oila-mahalla-ta’lim tashkiloti” hamkorligi muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Tadqiq etilgan nazariy qarashlar va amaliy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, tarbiya sifati bevosita tarbiyalovchi subyektlarning mas’uliyati, kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy namunaliligi va hamkorlik faoliyatining natijadorligi bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini baholashda ta’lim-tarbiya sifatini baholash metodlaridan foydalanish, aniq mezonlar va indikatorlar asosida monitoring olib borish tarbiya jarayonining samaradorligini xolis baholash imkonini beradi. Bu esa tarbiya tizimidagi mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlash, salbiy og‘ishlarning oldini olish va tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, oiladagi ma’naviy muhit, ota-onalarning pedagogik madaniyati, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi, mahallaning tarbiyaviy salohiyati hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan uzluksiz ma’naviy tarbiya yoshlarning barkamol kamolotini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, jamiyatimizda ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi, fuqarolik mas’uliyatiga ega, ijtimoiy faol va raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalash uchun mavjud hamkorlik tizimini monitoring qilish, baholash va ilmiy asosda takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 2-jild. –Toshkent: 1917. 17, 55-bet.: www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993. - 224 bet.

3. Eramberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. –Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 8-bet. - 2009, www.ziyouz.com kutubxonasi.

4. Alibayev D.Sh. “Развитие педагогической компетентности у родителей на основе сотрудничества семьи и школы” “Pedagogika” ilmiy-nazariy va meodik jurnali, 1/2024, 246-249 betlar.

5. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. 88-bet.

6. Raximov O.D. Ta’lim sifati va hayot sifati. // O‘quv uslubiy qo‘llanma, Toshkent. - 2015 y., 14-bet.

7. Esanboboev F.T. Ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlari tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish (OTM faoliyati misolida): Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent: O‘zDJTU, 2011. - 20 b.

8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. 2-jild: –Toshkent: 1917. 32-bet.; www.ziyouz.com

9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. 2-jild: –Toshkent: 1917. 35-bet. www.ziyouz.com

10. Safarov O. Oila ma’naviyati. –Toshkent: Ma’naviyat, 2009. 248-bet.

11. Abdurauf Fitrat. Oila. –Toshkent: Cho‘lpon Nashriyoti, 2019. 144-bet.

12. Inaqov Q.Q. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirishning asoslari: Ped.f.n., diss. Namangan - 2019. 11-bet.

Xavajon YAKUBOVA,
O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis Markazi, metodist

INKLYUZIV TA’LIMDA STEREOTIPLAR VA ULARNI YENGISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv ta‘lim jarayonida uchraydigan asosiy stereotiplar, ularning shakllanish sabablari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta‘limning mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy va pedagogik ahamiyati yoritilib, jamiyatda mavjud noto‘g‘ri qarashlarning alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar rivojiga ta‘siri ochib beriladi. Shuningdek, stereotiplarni yengishda ma‘rifiy targ‘ibot, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ota-onalar bilan hamkorlik va ijobiy tajribalarni ommalashtirishning muhimligi asoslab beriladi.

Tayanch so‘zlar. Inklyuziv ta‘lim, stereotip, alohida ta‘lim ehtiyojlari, teng imkoniyat, ijtimoiy integratsiya, pedagogik yondashuv, bag‘rikenglik, ma‘rifiy targ‘ibot, ta‘lim sifati, hamkorlik.

В статье анализируются основные стереотипы, встречающиеся в процессе инклюзивного образования, причины их формирования и пути их устранения. Освещается сущность инклюзивного образования, его социально-педагогическое значение, раскрывается влияние существующих в обществе предрассудков на развитие детей с особыми образовательными потребностями. Также обоснована важность просветительской пропаганды, профессиональной подготовки педагогов, сотрудничества с родителями и популяризации положительного опыта в преодолении стереотипов.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, стереотип, особые образовательные потребности, равные возможности, социальная интеграция, педагогический подход, толерантность, образовательная пропаганда, качество образования, сотрудничество.

The article analyzes the main stereotypes encountered in the process of inclusive education, the reasons for their formation, and ways to overcome them. The essence of inclusive education, its social and pedagogical significance are highlighted, and the impact of existing societal prejudices on the development of children with special educational needs is revealed. It also substantiates the importance of educational promotion, professional training for educators, cooperation with parents, and the dissemination of positive experiences in overcoming stereotypes.

Key words. Inclusive education, stereotype, special educational needs, equal opportunity, social integration, pedagogical approach, tolerance, educational promotion, quality of education, cooperation.

Inklyuziv ta‘lim - bu har bir bolaning, uning jismoniy yoki psixologik xususiyatlaridan qat‘i nazar, sifatli ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga qaratilgan ta‘lim tizimidir. Bugungi kunda dunyo miqyosida inklyuziv yondashuv ta‘limning eng insonparvar va adolatli modeli sifatida e‘tirof etilmoqda. Xususan, UNESCO inklyuziv ta‘limni “barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan jarayon” deb ta‘riflaydi. Shuningdek, UNICEF ham har bir bolaning ijtimoiy kelib chiqishi yoki salomatligidan qat‘i nazar, umumiy ta‘lim tizimida o‘qish huquqini qo‘llab-quvvatlaydi.Biroq inklyuziv ta‘limni amaliyotga joriy etishda turli stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlar uchrab turadi. Ushbu stereotiplar nafaqat alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning rivojlanishiga, balki jamiyatdag ijtimoiy muhitga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Inklyuziv ta‘limdagi asosiy stereotiplar alohida ehtiyojli bolalar umumiy sinfda o‘qiy olmaydi. Bu eng keng tarqal-

gan stereotiplardan biridir. Ko‘pchilik bunday bolalar umumiy ta‘lim dasturini o‘zlashtira olmaydi, degan fikrda bo‘ladi. Aslida esa inklyuziv ta‘lim individual yondashuvni talab qiladi. Moslashtirilgan dastur, differensial metodika va pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali har bir bola o‘z imkoniyati darajasida bilim olishi mumkin. Alohida ehtiyojli bolalar umumiy sinfda o‘qiy olmaydi” degan qarash uzoq yillar davomida jamiyatda mavjud bo‘lib kelgan. Biroq zamonaviy pedagogika, psixologiya va nevrologiya fanlari tadqiqotlari ushbu fikr ilmiy jihatdan asossiz ekanini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda inklyuziv ta‘lim konsepsiyasi dunyo miqyosida e‘tirof etilgan bo‘lib, u barcha bolalarning, jumladan alohida ehtiyojli bolalarning ham umumiy ta‘lim muassasalarida sifatli ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta‘lim g‘oyasi xalqaro miqyosda UNESCO tomonidan ilgari surilgan tamoyillarga asoslanadi. 1994-yilda qabul qilingan Salamanca Declaration inklyuziv ta‘limni barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishning eng samarali yo‘li sifatida belgilagan. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2006-yilda qabul qilingan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya ham nogironligi bo‘lgan shaxslarning umumiy ta‘lim tizimida o‘qish huquqini kafolatlaydi. Bu hujjatlar alohida ehtiyojli bolalarni alohida muassasalarga ajratish emas, balki ularni jamiyatga integratsiya qilish zarurligini ilmiy va huquqiy jihatdan asoslab beradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, alohida ehtiyojli bolalarning umumiy sinflarda o‘qishi ularning ijtimoiy moslashuvi, nutq rivoji, mustaqilligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, tengdoshlar bilan muloqot qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan bolalarda kommunikativ ko‘nikmalar tezroq shakllanadi. Bundan tashqari, umumiy sinfda ta‘lim olayotgan sog‘lom bolalarda ham empatiya, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas‘uliyat hissi rivojlanadi. Demak, inklyuziv ta‘lim faqat alohida ehtiyojli bolalar uchun emas, balki barcha o‘quvchilar uchun ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.Pedagogik nuqtayi nazardan, zamonaviy ta‘lim metodlari differensial yondashuv, individual ta‘lim dasturlari (ITD), ko‘makchi texnologiyalar va moslashtirilgan baholash tizimlari orqali har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos sharoit yaratish imkonini beradi. Masalan, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun Brayl alifbosi, eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun imo-ishora tili yoki subtitrli materiallardan foydalanish mumkin. Intellektual rivojlanishida qiyinchilik bo‘lgan bolalar uchun esa soddalashtirilgan o‘quv materiali va ko‘rgazmali vositalar samarali natija beradi. Demak, muammo bolaning umumiy sinfda o‘qiy olmasligida emas, balki ta‘lim muhitining moslashtirilmaganidadir.Nevropsixologik tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydiki, inson miyasi moslashuvchan (neyroplastiklik xususiyatiga ega) bo‘lib, to‘g‘ri pedagogik yondashuv orqali rivojlanish imkoniyati kengayadi. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit, ijobiy motivatsiya va individual yondashuv orqali ko‘plab alohida ehtiyojli bolalar umumiy dastur doirasida muvaffaqiyatga erisha oladi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta‘lim samarali bo‘lishi uchun muayyan shart-sharoitlar talab etiladi: o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi, maktab infratuzilmasining mosligi, psixolog va defektolog mutaxassislarning mavjudligi, ota-onalar bilan hamkorlik va ijobiy ijtimoiy muhit. Agar ushbu omillar ta‘minlansa, alohida ehtiyojli bolalarning umumiy sinfda o‘qishi nafaqat mumkin, balki pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Alohida ehtiyojli bolalar umumiy sinfda o‘qiy olmaydi” degan fikr jamiyatda uchrab turadigan, ammo zamonaviy pedagogika va ta‘lim tamoyillariga to‘liq mos kelmaydigan qarashdir. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida inklyuziv ta‘lim tizimi joriy etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi – har bir bolaga, shu jumladan alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarga ham teng ta‘lim imkoniyatini yaratishdir. Bu tamoyil xalqaro darajada UNESCO tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi va inson huquqlarining ajralmas

qismi sifatida e‘tirof etiladi.

Alohida ehtiyojli bolalar deganda jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (eshitish, ko‘-rish) rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgan bolalar tushuniladi. Ilgari bunday bolalar asosan maxsus maktablarda ta‘lim olgan. Bu tizim ayrim holatlarda foydali bo‘lsa-da, bolani jamiyatdan ajratib qo‘yish, ijtimoiy moslashuvini cheklash kabi salbiy oqibatlarga ham olib kelgan. Shu sababli, bugungi pedagogik yondashuv inklyuziv ta‘limni ustuvor deb biladi.

Inklyuziv ta‘lim shuni nazarda tutadiki, alohida ehtiyojli bola umumiy sinfda, sog‘-lom tengdoshlari bilan birgalikda ta‘lim oladi. Bunda o‘qituvchi individual yondashuvni qo‘llaydi, moslashtirilgan o‘quv dasturlari, qo‘shimcha metodlar va texnologiyalardan foydalanadi. Zarur hollarda defektolog, psixolog yoki assistent-o‘qituvchi yordam ko‘r-satadi. Bu jarayon nafaqat alohida ehtiyojli bolaga, balki boshqa o‘quvchilarga ham ijobiy ta‘sir qiladi. Chunki ular mehr-shafqat, sabr-toqat, bag‘rikenglik va hamkorlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Alohida ehtiyojli bolalar umumiy sinfda o‘qiy olmaydi” degan fikrni amaliy misollar orqali ko‘rib chiqish va muammoni hal etish yo‘llarini tahlil qilish muhimdir. Zamonaviy ta‘lim tizimida inklyuziv yondashuv keng qo‘llanilib, u xalqaro miqyosda UNESCO tomonidan ilgari surilgan tamoyillarga asoslanadi.Masalan: eshitishida muammosi bo‘lgan bola umumiy sinfga qabul qilindi. Dastlab u o‘qituvchi nutqini to‘liq anglay olmadi va tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiynaldi. Natijada darslarni o‘zlashtirish darajasi past bo‘ldi. Yechim: sinfga surdotarjimon yoki assistent jalb qilindi, o‘qituvchi vizual materiallardan (rasm, slayd, yozma ko‘rsatmalar) ko‘proq foydalana boshladi. Natijada bola dars jarayoniga faolroq qatnasha oldi.

2-misol. Autizm spektridagi bola Autizm spektridagi o‘quvchi shovqinli muhitda o‘zini noqulay his qiladi, guruhli ishlarda qatnashmaydi. O‘qituvchi buni intizomsizlik deb noto‘g‘ri baholashi mumkin.

Yechim: bola uchun tinchroq joy ajratish, qisqa va aniq topshiriqlar berish, psixolog bilan hamkorlik qilish orqali uning moslashuvi ta‘minlanadi. Vaqt o‘tishi bilan u sinf fao-liyatiga asta-sekin qo‘shila boshlaydi. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak alohida ehtiyojli bolalar umumiy sinfda o‘qiy olmaydi degan qarash biryoqlama fikrdir. To‘g‘ri tashkil etilgan inklyuziv ta‘lim tizimi orqali ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish mumkin. Muammo bolada emas, balki sharoit va yondashuvda bo‘lishi mumkin. Sharoit yaratilsa, har bir bola jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladi.

Endi boshqa bir tomonini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak ya’ni Inklyuziya boshqa bola-larning o‘qishiga halal beradi. Ba‘zi ota-onalar inklyuziv sinfda ta‘lim sifati pasayadi, deb o‘ylashadi. Tadqiqotlar esa aksincha natijani ko‘rsatadi: inklyuziv muhitda o‘qigan bolalarda bag‘rikenglik, hamdardlik, ijtimoiy ko‘nikmalar va jamoada ishlash qobiliyati yuqori bo‘ladi. Bu esa ularning shaxs sifatida barkamol shakllanishiga xizmat qila-di.“Inklyuziya boshqa bolalarning o‘qishiga halal beradi” degan fikr jamiyatda tez-tez uchrab turadi. Ayrim ota-onalar va hatto pedagoglar ham alohida ehtiyojli bolalar umumiy sinfda ta‘lim olsa, dars jarayoni sekinlashadi yoki o‘qituvchi e‘tibori asosan shu bolaga qaratilib, boshqa o‘quvchilar zarar ko‘radi, deb o‘ylashadi. Biroq zamonaviy pedagogika va xalqaro tajriba bu fikrni to‘liq tasdiqlamaydi.Inklyuziv ta‘lim tamoyillari xalqaro miqyosda UNESCO tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi – barcha bolalar uchun teng va sifatli ta‘limni ta‘minlashdir. Inklyuziya shunchaki alohida ehtiyojli bolani umumiy sinfga joylashtirish emas, balki ta‘lim jarayonini shunday tashkil etishki, u barcha o‘quvchilar uchun qulay va samarali bo‘lsin.

“Inklyuziya halal beradi” degan fikrning paydo bo‘lishiga bir necha sabablar bor. Birinchidan, agar sinfda o‘qituvchi yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmasa yoki individual yondashuvni bilmasa, dars jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ikkinchidan, moddiy-texnik sharoitlar yetarli bo‘lmaganda, masalan, yordamchi mutaxassislar yoki maxsus jihozlar bo‘lmasa, o‘qituvchi yuklamasi ortadi. Bu esa dars sifatiga ta‘sir qilishi mumkin. Ammo bu muammo inklyuziyaning o‘zida emas, balki uni to‘g‘ri tashkil etmaslikdadir.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan inklyuziv ta‘lim aksincha, boshqa bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, sog‘lom o‘quvchilar sinfdoshiga yordam berish orqali hamkorlik, sabr-toqat, mehr-shafqat kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Guruhli ishlarda turli imkoniyatga ega bolalar birgalikda faoliyat olib borishi natijasida muloqot madaniyati va o‘zaro hurmat shakllanadi. Bu esa nafaqat akademik, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, inklyuziv sinflarda o‘qituvchi differensial yondashuvdan foydalanadi. Ya‘ni bir xil mavzu turli darajadagi topshiriqlar orqali tushuntiriladi. Bu usul nafaqat alohida ehtiyojli bolalar, balki o‘zlashtirishi sust yoki aksincha, yuqori darajadagi o‘quvchilar uchun ham foydalidir. Natijada har bir bola o‘z imkoniyatiga mos ravishda rivojlanadi.

“Inklyuziya boshqa bolalarning o‘qishiga halal beradi” degan fikrni yaxshiroq tushunish uchun aniq misollar va ularning yechimlarini ko‘rib chiqish muhim. Zamonaviy inklyuziv ta‘lim tamoyillari UNESCO tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi va amaliy tajribalar bu yondashuvning samarali ekanini ko‘rsatadi.

Inklyuziya boshqa bolalarning o‘qishiga halal beradi degan fikr ko‘pincha noto‘g‘ri tashkil etilgan jarayondan kelib chiqadi. To‘g‘ri metodika, malakali pedagog, yordamchi mutaxassislar va sog‘lom ijtimoiy muhit mavjud bo‘lsa, inklyuziv ta‘lim aksincha barcha bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.Muammo inklyuziyada emas - uni qanday tashkil etishda.

3. “Alohida ehtiyojli bolalar doimiy yordamga muhtoj” Alohida ehtiyojli bolalar doimiy yordamga muhtoj.Ko‘plab ota-onalar va jamiyat vakillari “alohida ehtiyojli bolalar doimiy yordamga muhtoj” degan fikrga ega. Bu qarash ba‘zan noto‘g‘ri talqin qilinadi. Haqiqat shundaki, alohida ehtiyojli bolalar, masalan, jismoniy, aqliy yoki ruhiy rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgan bolalar, ba‘zi vaziyatlarda yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin, lekin ular butun vaqt davomida mustaqil harakat qila olmaydi degani emas. Zamonaviy pedagogika esa ularning imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan. Alohida ehtiyojli bolalarning doimiy yordamga muhtojligi bir necha holatlarda yuzaga chiqadi: yangi vazifa bilan tanishayotganda, murakkab topshiriqlarni bajarayotganda yoki jismoniy cheklovlar mavjud bo‘lganda. Shu bois inklyuziv ta‘lim va moslashtirilgan yondashuv muhim hisoblanadi. Misollar va yechimlar. 1-misol: Ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchi.

Natija: bola yordam bilan, lekin asta-sekin mustaqil ravishda darslarni o‘zlashtira boshlaydi.

2-misol: Aqliy rivojlanishda kechikishi bor o‘quvchi

Vaziyat: Ba‘zi topshiriqlarni o‘z vaqtida tushunmaydi va har doim yordamga murojaat qiladi.

Muammo: Sinfda vaqt sekinlashadi, o‘qituvchi e‘tibori faqat shu bolaga qaratiladi.

Yechim: Individual o‘quv rejasi tuziladi.Topshiriqlar bosqichma-bosqich, qisqa va aniq shaklda beriladi.

Qo‘shimcha vizual yordamlar (rasmlar, diagrammalar) qo‘llanadi.Natija: bola as-

ta-sekin mustaqil ishlashni o‘rganadi, sinf jarayoni to‘xtamaydi.Alohida ehtiyojli bolalar doimiy yordamga muhtoj degan fikr har doim to‘g‘ri emas. Ko‘pchilik muammolar sharoit, metodika va resurs yetishmasligidan kelib chiqadi. To‘g‘ri yondashuv, individual ta‘lim rejasi, mutaxassislar bilan hamkorlik va moslashtirilgan muhit orqali ular o‘z imkoniyatini maksimal darajada amalga oshiradi. Natijada bolalar asta-sekin mustaqil bo‘lib, yordamga ehtiyoj sezilarli darajada kamayadi, bu esa jamiyat uchun ijobiy natijalarni beradi.Yana bir noto‘g‘ri qarash – bunday bolalar mustaqil bo‘la olmaydi, degan fikr. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muhit ularning mustaqillik darajasini oshiradi. Ko‘plab misollar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyat berilganda ular katta yutuqlarga erishadi.

4 “Inklyuziv ta‘lim faqat nogironligi bor bolalar uchun”.Inklyuziya tushunchasi faqat jismoniy nogironlik bilan cheklanmaydi. U rivojlanishida qiyinchiliklar, nutq buzilishlari, ijtimoiy moslashuv muammolari yoki boshqa o‘ziga xos ehtiyojlarga ega bo‘lgan barcha bolalarni qamrab oladi. Inklyuziv ta‘lim – bu faqat nogiron yoki jismoniy cheklovlari bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan tizim emas. Uning asosiy maqsadi - har bir bolaning individual ehtiyojini hisobga olib, ularni umumiy sinfda teng huquqli ta‘lim olishini ta‘minlashdir. Bu tizim aqliy rivojlanishi kechikkan, sensor yoki o‘quv qiyinchiliklariga duch keladigan, shuningdek psixologik yoki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan bolalarni ham qamrab oladi.Inklyuziv yondashuv nafaqat alohida ehtiyojli bolalarning salohiyatini rivojlantiradi, balki sog‘lom o‘quvchilarni ham bag‘rikenglik, hamkorlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga undaydi. O‘qituvchilar individual metodika, moslashtirilgan darsliklar va yordamchi texnologiyalar orqali barcha bolalarning ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlaydi.Inklyuziv ta‘lim faqat nogironlar uchun emas, balki har qanday alohida ehtiyojli bolalar uchun mo‘ljallangan va barcha o‘quvchilarga teng imkoniyat yaratadi. Bu tizim jamiyatda bag‘rikenglik va tenglikni shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Stereotiplarning kelib chiqish sabablari.Stereotiplar ko‘pincha quyidagi omillar natijasida shakllanadi:Axborot yetishmasligi. Noto‘g‘ri tushunchalar va qo‘rquv. Jamiyatda nogironlikka nisbatan eskicha qarashlar va tajriba vamuloqotning kamligi. Inson o‘zi tushunmagan narsadan qo‘rqadi. Shu bois inklyuziv ta‘limga nisbatan salbiy munosabat ko‘pincha bilim yetishmasligidan kelib chiqadi. Ko‘plab odamlar inklyuziv ta‘limni faqat nogironligi bo‘lgan bolalar bilan bog‘lashadi. Biroq bu qarash to‘liq xato. Inklyuziv ta‘lim – bu har qanday alohida ehtiyojga ega bolalarni, ularning cheklovlari turidan qat‘i nazar, umumiy sinfga qo‘shib, teng huquqli va samarali ta‘lim olishini ta‘minlashni nazarda tutadi. Inklyuziv ta‘lim bu faqat nogiron yoki jismoniy cheklovlari bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan tizim emas. Uning asosiy maqsadi har bir bolaning individual ehtiyojini hisobga olib, ularni umumiy sinfda teng huquqli ta‘lim olishini ta‘minlashdir. Bu tizim aqliy rivojlanishi kechikkan, sensor yoki o‘quv qiyinchiliklariga duch keladigan, shuningdek psixologik yoki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan bolalarni ham qamrab oladi. Inklyuziv yondashuv nafaqat alohida ehtiyojli bolalarning salohiyatini rivojlantiradi, balki sog‘lom o‘quvchilarni ham bag‘rikenglik, hamkorlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga undaydi. O‘qituvchilar individual metodika, moslashtirilgan darsliklar va yordamchi texnologiyalar orqali barcha bolalarning ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlaydi.

Stereotiplar – bu odamlar, guruhlar yoki holatlar haqida noaniq, cheklovchi va ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlardir. Inklyuziv ta‘lim va alohida ehtiyojli bolalar bilan bog‘liq stereotiplar jamiyatda keng tarqalgan: masalan, “alohida ehtiyojli bola doim yordamga muhtoj” yoki “inklyuziya boshqa bolalarning o‘qishiga halaqit beradi”. Ularni yengish

uchun quyidagi yo‘llar samarali hisoblanadi:

1. Ma‘lumot va xabardorlikni oshirish. Jamiyat va ota-onalarni inklyuziv ta‘limning mohiyati va afzalliklari bilan tanishtirish. Seminarlar, konferensiyalar va targ‘ibot tadbirlari orqali stereotiplarni buzish.

2. Shaxsiy tajriba orqali stereotipni yo‘q qilish

Bolalarni birgalikda loyihalar, o‘yinlar va guruhli mashg‘ulotlarda qatnashishga rag‘batlantirish.

Bu boshqa bolalarga alohida ehtiyojli sinfdoshlarini tushunish va hurmat qilish ko‘nikmalarini beradi.

3. Pedagoglar va ota-onalarning rolini kuchaytirish

O‘qituvchilar individual yondashuvni qo‘llash orqali stereotiplarni kamaytiradi.

Ota-onalar esa bag‘rikenglik va tenglik ruhini uyda shakllantiradi.

4. Pozitiv rol modellardan foydalanish.

Alohida ehtiyojli bolalar muvaffaqiyatlarini namoyish qilish.

Masalan, sport, san‘at yoki ilmiy loyihalarda faol qatnashgan bolalar haqida hikoyalar.

5. Muvofiq o‘quv materiallari va muhit yaratish.

Inklyuziv darsliklar, vizual yordamlar va texnologiyalar yordamida stereotiplarni kamaytirish.

6. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Bag‘rikenglik, sabr-toqat, hamkorlik va hurmat mavzularida darslar o‘tkazish.

Stereotiplar ko‘pincha noto‘g‘ri tushunchalar va tajribasizlikdan kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta‘lim faqat nogironligi bor bolalar uchun emas, balki har qanday alohida ehtiyojli bolalarni umumiy sinfga qo‘shib, ularning salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimdir. Alohida ehtiyojli bolalar doimiy yordamga muhtoj degan stereotip noto‘g‘ri, chunki to‘g‘ri yondashuv, individual dastur, yordamchi mutaxassislar va moslashtirilgan muhit orqali ular mustaqil bo‘lishi va sinfdagi faoliyatga samarali qo‘shilishlari mumkin.

Bu jarayon ma‘lumot berish, shaxsiy tajriba, pedagog va ota-ona hamkorligi, pozitiv namuna va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, inklyuziv ta‘lim samarali bo‘ladi va barcha bolalar teng imkoniyatga ega bo‘ladi.

Stereotiplarni yengish – bu jamiyatda bag‘rikenglik, hurmat va tenglik muhitini yaratish demakdir. Ma‘lumot berish, shaxsiy tajriba, pedagog va ota-ona hamkorligi, pozitiv rol modellari va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali noto‘g‘ri qarashlar kamayadi.

Faydolanilgan adabiyotlar

1. Po‘latova D., Xaydarov B. Inklyuziv ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

2. Nurmatova M. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

3. United Nations. (2006). Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). New York: United Nations.

4. Inklyuziv ta’limda individual yondashuv / L. Abdullayeva. – Toshkent: Zamin Nashr, 2023. – 164 b.

5. Inklyuziv ta’limni tashkil etish texnologiyalari / Sh. Yusupova. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 172 b.

Mavjuda TILAKOVA,
Jizzax viloyati Pedagogik mahorat Markazi, “Pedagogika va psixologiya ta’lim texnologiyalari” kafedra mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent

TA’LIMDA INKLYUZIV YONDASHUVNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maqolada global integratsiya, madaniyatlararo almashinuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda tilning o‘rni yanada oshib, uning taraqqiyoti strategik ahamiyat haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bu jarayon nafaqat davlat tili maqomiga ega bo‘lgan tillar, balki keng turkiy tillar oilasi uchun ham qator imkoniyatlari aytib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Global integratsiya, adaptiv muloqot, raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar, dasturiy ta’minotlar, lokalizatsiya.

В статье говорится о том, что в эпоху глобальной интеграции, межкультурного обмена и стремительного развития информационных технологий роль языка возрастает, а его развитие имеет стратегическое значение. Также упоминается ряд возможностей этого процесса не только для языков, имеющих статус государственного языка, но и для широкой тюркской языковой семьи.

Ключевые слова. Глобальная интеграция, адаптивное общение, цифровая среда, социальные сети, программное обеспечение, локализация.

The article discusses the role of language in the era of global integration, intercultural exchange and rapid development of information technologies, and the strategic importance of its development. Also, this process has a number of possibilities not only for languages that have the status of the state language, but also for the broad family of Turkic languages.

Key words. Global integration, adaptive communication, digital environment, social networks, software, localization.

Global integratsiya va texnologik taraqqiyot asrida muloqot vositasi ijtimoiy tenglikni ta’minlovchi strategik resursga aylandi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim tizimida tilning o‘rni kognitiv va ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarini boshqaruvchi asosiy omildir.

Lingvistik adaptatsiya: Global muloqotda ingliz, xitoy, ispan kabi tillarning ustuvorligi milliy tillarning ham terminologik bazasini yangilashga undaydi.

Raqamli til muhiti: Sun’iy intellekt va avtomatik tarjima dasturlari til to‘siqlarini kamaytirib, bilimlar almashinuvini tezlashtiradi.

Inklyuziv ta’lim – bu har bir bolaning ehtiyojidan kelib chiqib, ta’lim olish huquqini ta’minlashdir. Bu tizimda til “to‘siqsiz muhit” yaratishning birinchi bosqichidir. Adaptiv muloqot: Maxsus ehtiyojli bolalar uchun til faqat og‘zaki nutq emas, balki ishoralar, piktogrammalar va muqobil kommunikatsiya shakllarini ham o‘z ichiga oladi. Psixologik integratsiya: To‘g‘ri tanlangan leksika (etiket qoidalari) bolaning jamiyatda o‘zini to‘laqonli his qilishiga yordam beradi.

Misol: “Muloqot – chegara bilmas” loyihasi (Keys tahlili)

Tasavvur qiling, umumta’lim maktabida eshitish qobiliyati past bo‘lgan o‘quvchi tahsil olmoqda. Global integratsiya mahsuli bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar bu jarayonda qanday yordam beradi?

Vaziyat: O‘quvchi dars jarayonida o‘qituvchi nutqini to‘liq tushunishda qiynaladi.

Yechim: Maktabda inklyuziv yondashuv doirasida nutqni matnga aylantiruvchi (Speech-to-Text) mobil ilovalardan foydalaniladi.

Tilning roli: Bu yerda til vizuallashtiriladi. O‘quvchi o‘qituvchi nutqini real vaqt rejimida planshet ekranida o‘qiydi.

Natija: Til to‘sig‘i olib tashlanishi natijasida o‘quvchi sinfdoshlari bilan bir xil darajada bilim oladi va ijtimoiy muloqotga kirishadi.

Til – har bir millatning ruhi, g‘ururi va o‘zligini ifoda etuvchi bebaho xazinadir. Ayniqsa, global integratsiya, madaniyatlararo almashinuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda tilning o‘rni yanada oshib, uning taraqqiyoti strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon nafaqat davlat tili maqomiga ega bo‘lgan tillar, balki keng turkiy tillar oilasi uchun ham qator imkoniyatlar va ayni paytda jiddiy chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.

Davlat tilini rivojlantirish – milliy yuksalishning asosi

Tilni rivojlantirish zarurati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Milliy o‘zlik va g‘ururni mustahkamlash: Ona tili millatni bir butun qilib birlashtiruvchi eng muhim omildir. U tarixiy xotira, madaniy meros va qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy vositadir. Tilimizga bo‘lgan hurmat – Vatanimizga bo‘lgan muhabbatning ifodasi.

2. Davlat boshqaruvi va huquqiy tizimning samaradorligi: Davlat tili barcha rasmiy hujjatlar, qonunlar, qarorlar va davlat organlarining faoliyatida asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Uning boy va aniq bo‘lishi boshqaruv samaradorligini oshiradi.

3. Ta’lim va ilm-fanni yuksaltirish: Fan-texnika taraqqiyotiga mos ravishda yangi atamalar va tushunchalarni o‘zbek tiliga kiritish, ilmiy-texnik adabiyotlarni ona tilida yaratish va tarjima qilish orqali milliy kadrlar salohiyatini oshirish mumkin.

4. Madaniy-ma’rifiy sohaning taraqqiyoti: Davlat tili adabiyot, san’at, teatr, kino va OAV uchun asosdir. Tilning rivoji – madaniyatning gullab-yashnashiga zamin yaratadi.

Tilni va davlat tilini rivojlanishi yo‘lidagi vazifalar:

Terminologik bazani takomillashtirish: Ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga mos keladigan yangi atamalar va tushunchalarni o‘zbek tilida yaratish va standartlashtirish.

Til madaniyatini oshirish: Nutq madaniyati, adabiy til me’yorlariga rioya qilishni targ‘ib etish, so‘zlashuv tilidagi chalkashliklar va xatolarni bartaraf etish.

Raqamli muhitda faollikni oshirish: Internetda, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilidagi sifatli kontent hajmini ko‘paytirish, dasturiy ta’minotlarni lokalizatsiya qilish.

Davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilikni izchil qo‘llash: Barcha sohalarda davlat tilining to‘liq va izchil qo‘llanilishini ta’minlash.

Turkiy tillarni rivojlantirish – umumturkiy qadriyatlarimizni mustahkamlash

Turkiy tillar oilasi, dunyodagi eng qadimiy va keng tarqalgan tillar oilalaridan biridir. Ular o‘zaro yaqin bo‘lishiga qaramay, global integratsiya sharoitida umumiy va o‘ziga xos muammolarga duch kelmoqda.

Turkiy tillarni rivojlantirish zarurati:

1. Umumturkiy madaniy merosni saqlash va boyitish: Turk xalqlari bir xil ildiz va umumiy qadriyatlarga ega. Til – bu merosni avlodlarga yetkazishning asosidir. Turkiy tillarni rivojlantirish orqali o‘tmishdagi buyuk ajdodlarimiz (Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bobur) merosini yanada chuqurroq o‘rganish va targ‘ib etish mumkin.

2. Siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash: Turkiy davlatlar tashkiloti (Turk Kengashi), TURKSOY kabi tuzilmalar doirasida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda tillar muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi. Til yaqinligi hamkorlikni yanada chuqurlashtiradi.

3. Ilmiy-texnologik almashinuv: Turk tilli olimlar o‘rtasida qo‘shma ilmiy tadqiqotlar

o‘tkazish, texnologik yangiliklarni o‘zaro almashish va birgalikda rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi.

4. Global miqyosda nufuzni oshirish: Birgalikda harakat qilish orqali turkiy tillar oilasi jahon miqyosida o‘z mavqeyini mustahkamlashi, dominant tillar bosimiga qarshi turishi mumkin.

Turkiy tillar taraqqiyotidagi asosiy muammolar quyidagilar deb qaralmoqda. Jumladan:

Yagona terminologiyaning yetishmasligi: Zamonaviy sohalar bo‘yicha turkiy tillarda umumiy qabul qilingan atamalarning kamligi.

Turli alfavitlar: Kirill, lotin, arab alfavitlarining mavjudligi xalqlararo yozma muloqotni qiyinlashtiradi.

Raqamli muhitdagi kam faollik: Internetda turkiy tillardagi sifatli kontentning kamligi, sun’iy intellekt tizimlari uchun ma’lumotlar bazasining yetishmasligi.

Turkiy tillar rivojlanishi yo‘lidagi vazifalar:

Yagona lug‘atlar va ensiklopediyalar yaratish: Umumturkiy terminologik lug‘atlar, atamalar lug‘atlarini yaratish va ulardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Madaniy va ilmiy almashinuvni kuchaytirish: Turk tilida nashr etiladigan asarlarni boshqa turkiy tillarga, shuningdek, dunyo tillariga tarjima qilish.

Raqamlashtirishni tezlashtirish: Internetda turkiy tillardagi kontentni yaratishga, dasturiy ta’minotlarni moslashtirishga keng e’tibor qaratish.

Tilshunoslik tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash: Turkiy tillar bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, yosh olimlar maktabini rivojlantirish.

Global integratsiya sharoitida davlat tilini rivojlantirish – bu milliy burch, turkiy tillarni qo‘llab-quvvatlash esa – umumturkiy qadriyatlarimizni mustahkamlash demakdir. Bu ikki jarayon bir-biriga zid emas, aksincha, bir-birini to‘ldiradi. Kuchli davlat tili umumbashariy tillar oilasi ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan turkiy tillar guruhining ham nufuzini oshiradi.

Har birimiz o‘z ona tilimizning pokligi, ravonligi va boyligi uchun mas’ulmiz. Shu bilan birga, turkiy birodarlarimiz tillariga hurmat bilan qarab, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish orqali umumturkiy madaniy merosni asrashimiz va kelajak avlodlarimizga g‘urur bilan yetkazishimiz lozim. Faqat shunda biz globallashuv davrining murakkab sinovlaridan yorug‘ yuz bilan o‘tib, o‘z tilimiz va milliy qadriyatlarimizni munosib tarzda namoyon eta olamiz.

Til – har bir millatning ruhi, g‘ururi va o‘zligini ifoda etuvchi bebaho xazinadir. Ayniqsa, global integratsiya, madaniyatlararo almashinuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda tilning o‘rni yanada oshib, uning taraqqiyoti strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon nafaqat davlat tili maqomiga ega bo‘lgan tillar, balki keng turkiy tillar oilasi uchun ham qator imkoniyatlar va ayni paytda jiddiy chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muhim vazifalar qatorida inklyuziv ta’limga bo‘lgan e’tibor tilni rivojlantirishning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Inklyuziv ta’limga e’tibor – teng imkoniyatlar va til rivoji garovi

Til rivoji masalasi, ayniqsa, globallashuv davrida inklyuziv ta’lim tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning, xususan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning (imkoniyati cheklangan, turli tilli, migratsiya fonidagi bolalar) teng sharoitlarda ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan yondashuvdir.

Til rivojida inklyuziv ta’limning o‘rni va ahamiyati:

1. Har bir bolaning ona tilida ta’lim olish huquqi: Inklyuziv ta’lim falsafasi har bir bolaning o‘z ona tilida bilim olish huquqini ta’minlaydi. Bu esa, davlat tili va mintaqadagi boshqa turkiy tillarning rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Turkiy tillarda ta’lim oluvchi

bolalar uchun maxsus adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalari va dasturiy ta’minotlar yaratish zarurati ortadi.

2. O‘zbek va boshqa turkiy tillarning adaptatsiyasi: Inklyuziv ta’lim sharoitida davlat tili va turkiy tillar surdo-tarjima (imo-ishora tili), brayl yozuvi kabi moslashtirilgan formatlarga o‘tkazilishi kerak. Bu esa, tilning o‘zini boyitadi va uning universal imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Terminologiyaning inklyuzivligi: Yangi atamalar yaratishda nafaqat ilm-fan, balki inklyuziv ta’lim ehtiyojlarini ham hisobga olish lozim. Bu nogironlik, psixologik rivojlanish kabi sohalardagi atamalarni to‘g‘ri va aniq ifodalashga yordam beradi.

4. Madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash: Inklyuziv sinflarda turli etnik guruhlarga mansub bolalar (masalan, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman bolalari) birga o‘qishi mumkin. Bu esa davlat tilini o‘rganish bilan birga, boshqa turkiy tillarning ham hurmat qilinishi va saqlanishini ta’minlaydi.

5. Raqamli inklyuzivlik: Internetdagi ta’lim resurslari, elektron darsliklar va multimedia materiallari nafaqat o‘zbek tilida, balki boshqa turkiy tillarda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlariga moslashtirilishi zarur. Audio kitoblar, kattalashtirilgan shriftlar va imo-ishora tili videosi kabi formatlar bu borada muhimdir.

Inklyuziv ta’lim va til rivojini bog‘lovchi vazifalar:

Maxsus o‘quv dasturlari va metodikalarini davlat tili va turkiy tillar bazasida ishlab chiqish.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ona tilida ta’lim beruvchi malakali pedagoglarni tayyorlash.

Davlat tili va boshqa turkiy tillarning imo-ishora tillarini standartlashtirish va o‘qitish dasturlarini yaratish.

Brayl alifbosida o‘zbek va boshqa turkiy tillardagi adabiyotlar fondini kengaytirish.

Global integratsiya davrida davlat tilini ham, turkiy tillarni ham rivojlantirish umummilliy va umumturkiy ahamiyatga ega bo‘lgan strategik vazifadir. Bu jarayonni yanada samaraliroq qilishda inklyuziv ta’lim tamoyillarini chuqur tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir bolaning, uning qobiliyati yoki kelib chiqishidan qat’i nazar, ona tilida sifatli ta’lim olishini ta’minlash, tilni yanada boyitishga, uning universal imkoniyatlarini kengaytirishga va shu bilan birga milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo‘minova L.R. “Inklyuziv ta’lim” (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Toshkent, 2019-yil. (Muallif O‘zbekistonda logopediya va inklyuziv ta’limning asoschilaridan biri hisoblanadi).

2. Ayupova M.Y. “Logopediya” (Darslik). – Toshkent, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2011-yil.

3. Akbarova S.A. “Inklyuziv ta’limda til o‘rgatishning psixolingvistik jihatlari”. “Pedagogika” ilmiy-nazariy jurnali, 2022-yil.

4. Shomahmudova R. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2011-yil.

5. Yo‘ldoshev J.G‘. “Ta’lim yangilanish yo‘lida”. – Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 2000-yil. (Global integratsiya va ta’lim islohotlari haqida).

6. Nurkeldiyeva D.A. “Korreksion pedagogika va uning zamonaviy rivojlanish tamoyillari”. – Toshkent, 2018-yil.

7. Azizxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. – Toshkent, 2006-yil.

Maftuna MURADOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, “Pedagogika” kafedrasi, o‘qituvchi, (PhD)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PARTISIPATIVLIKKA TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV MALAKALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni partisipativ ta’limga tayyorlashda kommunikativ malakalarning tutgan o‘rni chuqur ilmiy asosda yoritiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida interaktivlik va hamkorlik muhitini shakllantirish zarurati, o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi orqali o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar, ularning ildiz sabablari hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tayanch so‘zlar. Partisipativlik, kommunikativ kompetensiya, interaktiv ta’lim, pedagogik mahorat, ta’lim sifati, innovatsiya.

В данной статье на научной основе раскрывается значение коммуникативных навыков в подготовке будущих учителей к партисипативному обучению. Анализируется необходимость формирования интерактивной и коллаборативной образовательной среды, а также механизмы вовлечения обучающихся через коммуникативную компетентность педагога. Кроме того, выявляются существующие проблемы, их коренные причины и предлагаются научно обоснованные рекомендации по их решению.

Ключевые слова. Партисипативность, коммуникативная компетенция, интерактивное обучение, педагогическое мастерство, качество образования, инновационный подход.

This article scientifically examines the role of communicative skills in preparing future teachers for participatory education. It analyzes the need to create an interactive and collaborative learning environment, as well as the mechanisms for engaging students through teachers’ communicative competence. In addition, the study identifies existing challenges, their root causes, and proposes evidence-based recommendations for addressing them.

Key words. Participatory approach, communicative competence, interactive learning, pedagogical skills, quality of education, innovative approach.

Bugungi kunda ta’lim tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tmoqda. Endilikda o‘qituvchidan nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga yo‘naltirish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan partisipativ yondashuv ta’limning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Biroq mazkur yondashuvning samaradorligi bevosita o‘qituvchining kommunikativ malakalariga bog‘liq bo‘lib, aynan shu omil ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda. Shunga qaramay, mavjud ilmiy tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning partisipativlikka tayyorgarligida kommunikativ malakalarning tizimli rivojlanish mexanizmlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Ayniqsa, ularni amaliy pedagogik faoliyatga integratsiya qilish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Kommunikativ kompetensiya pedagogning kasbiy tayyorgarligida markaziy o‘rin egallaydi. U faqatgina nutq madaniyati yoki gapira olish qobiliyati bilan cheklanmaydi, balki o‘z ichiga tinglay olish, suhbatdoshni tushunish, fikrni moslashtirish, bahs-mu-

nozaralarni boshqarish va o‘quvchilar bilan samarali psixologik aloqa o‘rnatish kabi murakkab ko‘nikmalarni qamrab oladi. Aynan shu jihatlar partisipativ muhitni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Chunki o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan, xatodan qo‘rqmaydigan va o‘zini qadrlangan his qiladigan muhit bo‘lmaguncha, haqiqiy ishtirok yuzaga kelmaydi. Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetensiya tarkibi bir necha komponentlarga ajratiladi: lingvistik kompetensiya (til vositalaridan foydalanish), sotsiolingvistik kompetensiya (ijtimoiy kontekstni hisobga olish), diskursiv kompetensiya (mantiqiy va izchil nutq qurish) hamda strategik kompetensiya (muloqotdagi muammolarni bartaraf etish). Mazkur komponentlarning uyg‘unligi pedagogik muloqot samaradorligini belgilaydi. Masalan, Toshkent shahridagi ixtisoslashgan maktablarda o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi ochiq savollar va guruhiy muhokamalardan foydalanganda hatto passiv o‘quvchilar ham faol ishtirok eta boshlaydi. Shuningdek, pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan o‘tkazilgan rolli o‘yinlar asosidagi treninglarda ularning muloqotga kirishish va fikrni asoslash ko‘nikmalari qisqa muddatda sezilarli darajada rivojlangan. Masalan, ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, o‘qituvchilar tayyorlash dasturlarida amaliy kommunikativ mashg‘ulotlar ulushi 20–30 foizdan oshmaydi, bu esa bitiruvchilarning real pedagogik vaziyatlarga moslashuvini qiyinlashtiradi.

Mavjud amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida kommunikativ malakalarga yetarli darajada e’tibor berilmayapti. O‘quv dasturlarining asosiy qismi nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlar, ayniqsa real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan treninglar yetarli emas. Natijada oliy ta’lim muassasasini bitirgan yosh mutaxassislar sinfga kirganda o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishda, ularni faol jalb qilishda va dars jarayonini interaktiv tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida hali ham an’anaviy, ya’ni o‘qituvchi markazli yondashuv ustunlik qilmoqda. Bunday sharoitda o‘quvchi ko‘proq tinglovchi rolida qoladi, uning fikri, tashabbusi va savollariga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Bu esa partisipativlik tamoyiliga zid bo‘lib, kommunikativ muhitni cheklaydi. Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi integratsiyalashgan modelni taklif etish mumkin:

1) o‘quv dasturlariga kommunikativ yo‘naltirilgan modullarni kiritish;

2) har bir fan doirasida interaktiv metodlarni majburiy qo‘llash;

3) pedagogik amaliyot jarayonida reflektiv tahlilni joriy etish;

4) kommunikativ kompetensiyani baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, darslarda o‘quvchilarning faol ishtiroki ko‘pincha formal xarakterga ega bo‘lib, haqiqiy muloqot va fikr almashinuvi yetishmaydi. Xususan, ayrim darslarda o‘qituvchi nutqi umumiy vaqtning 70–80 foizini egallashi kuzatiladi, bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikr bildirish imkoniyatini keskin cheklaydi. Yana bir muhim jihat – baholash tizimining kommunikativ malakalarni hisobga olmasligidir. Odatda talabalar bilim darajasi testlar yoki yozma ishlar orqali baholanadi, biroq ularning muloqot qilish qobiliyati, fikrni asoslab bera olishi yoki jamoada ishlash ko‘nikmalari e’tibordan chetda qoladi. Bu esa talabalarni kommunikativ rivojlanishga emas, balki faqat nazariy bilimlarni yodlashga yo‘naltiradi.

Mazkur muammolarni chuqurroq tahlil qilganda ularning ildizi tizimli xarakterga ega ekanligi ayon bo‘ladi. Ya’ni muammo faqat metodika yoki o‘qituvchi malakasida emas, balki butun ta’lim tizimining yondashuvida namoyon bo‘ladi. Kommunikativ kompetensiya ko‘pincha qo‘shimcha yoki ikkilamchi ko‘nikma sifatida qaraladi, aslida esa u

zamonaviy pedagogning asosiy kasbiy vositasidir. Shu sababli ushbu yo‘nalishda tub o‘zgarishlar zarur. Avvalo, pedagog kadrlar tayyorlash dasturlarini qayta ko‘rib chiqish lozim. Kommunikativ malakalarni rivojlantirish alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlar tarkibiga integratsiyalashgan holda berilishi samaraliroq bo‘ladi. Har bir mashg‘ulot o‘z mohiyatiga ko‘ra muloqotga asoslangan bo‘lishi, talabalarni fikr bildirishga, savol berishga va muhokamada ishtirok etishga undashi kerak.

Ta’lim tizimida kommunikativ malakalarni rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun ularni faqat metodik darajada emas, balki boshqaruv va institutsional darajada ham qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Chunki kommunikativ kompetensiya individual o‘qituvchi mahorati bilan cheklanib qolmay, balki ta’lim muassasasining umumiy pedagogik madaniyati va ichki muhitiga ham bevosita bog‘liqdir. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar o‘rtasida ochiq muloqot, tajriba almashinuvi va hamkorlik muhiti shakllangan ta’lim muassasalarida darslarning sifati va interaktivligi yuqori bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida “professional learning community” (kasbiy o‘rganish hamjamiyati) modelini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Ushbu model doirasida o‘qituvchilar muntazam ravishda dars tahlillari o‘tkazadi, o‘zaro fikr almashadi va bir-birining tajribasidan o‘rganadi. Natijada nafaqat individual, balki jamoaviy kommunikativ kompetensiya rivojlanadi.

Xalqaro tajribada bunday yondashuv yuqori natijalar berayotgani kuzatilgan bo‘lib, ayniqsa pedagoglar o‘rtasidagi reflektiv muloqot ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi. Bundan tashqari, ta’lim muassasasi rahbariyatining kommunikativ madaniyatga bo‘lgan munosabati ham muhim ahamiyatga ega. Agar boshqaruv darajasida ochiqlik, fikr almashish va konstruktiv muloqot qo‘llab-quvvatlansa, bu holat avtomatik tarzda o‘quv jarayoniga ham ko‘chadi. Shu boisdan kommunikativ malakalarni rivojlantirishni faqat auditoriya doirasida emas, balki butun ta’lim tizimi miqyosida kompleks yondashuv asosida amalga oshirish zarur.

Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan keng foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, rolli o‘yinlar va debatlar talabalarni faollashtiradi va ularning kommunikativ malakalarini tabiiy ravishda rivojlantiradi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki uni ifodalash, himoya qilish va boshqalarning fikrini hurmat qilishni ham o‘rganadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ham bu jarayonda muhim vosita bo‘la oladi. Xalqaro tajribalar ham bu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, Finlandiya ta’lim tizimida kommunikativ kompetensiya o‘qituvchi tayyorlashning asosiy elementi sifatida qaraladi va darslar muhokama hamda refleksiya asosida tashkil etiladi. Shuningdek, Singapurda “Teach Less, Learn More” konsepsiyasi asosida o‘quvchilarning faol muloqoti ustuvor yo‘nalish hisoblanadi, AQShda esa “collaborative learning” modeli orqali guruhiy ishlash va kommunikativ ko‘nikmalar tizimli rivojlantiriladi. Ushbu tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan ta’lim tizimlarida kommunikativ kompetensiya alohida fan sifatida emas, balki barcha o‘quv jarayonining integrativ elementi sifatida qaraladi. Bu esa ularning barqaror va yuqori samaradorligini ta’minlaydi.

Onlayn platformalar, forumlar va virtual sinflar orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va jamoaviy ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa kommunikativ muhitni kengaytiradi va uni yanada moslashuvchan qiladi. Xususan, Google Classroom, Zoom yoki Microsoft Teams kabi platformalar orqali sinfdan tashqari muloqot muhiti kengaytiriladi va talabalar o‘rtasida doimiy fikr almashinuvi ta’minlanadi. Baholash tizimini takomillashtirish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Kommunikativ

kompetensiyani baholash uchun aniq mezonlar ishlab chiqilishi va ular amaliyotga joriy etilishi lozim. Masalan, talabaning nutq ravonligi, fikrni asoslash qobiliyati, muloqotdagi faolligi va jamoada ishlash ko‘nikmalari alohida baholanishi kerak. Bu esa talabalarni har tomonlama rivojlanishga undaydi. Amaliy jihatdan har bir darsda ochiq savollar, kichik guruhli muhokama va yakuniy refleksiya bosqichlarini joriy etish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali mexanizm hisoblanadi.

Kommunikativ malakalar tizimli ravishda rivojlantirilgan ta’lim muhitida o‘quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, ularning mustaqil fikrlash darajasi oshadi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yaxshilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi 1,5–2 barobargacha oshishi mumkin. Eng muhimi, bunday muhitda o‘quvchi o‘zini faol subyekt sifatida his qiladi, bu esa partisipativ ta’limning asosiy maqsadiga to‘liq mos keladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, kommunikativ kompetensiyani tizimli rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning partisipativ faoliyatga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini kompleks ravishda yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni partisipativlikka tayyorlashda kommunikativ malakalar hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ularni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lib, zamonaviy pedagogik tizimning ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020. – Toshkent, 2020.

2. Dell Hymes. On Communicative Competence.

3. Jack C. Richards. Communicative Language Teaching Today.

4. Organisation for Economic Co-operation and Development. TALIS International Survey Reports.

5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.

6. Interaktiv ta’lim metodlari bo‘yicha xalqaro tajribalar.

Mashxura XASANOVA,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti, mustaqil izlanuvchi

TIBBIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada tibbiy oliy ta’lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzi (sog‘lom turmush tarzini) ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasining nazariy-metodologik asoslari va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan formal, noformal va informal ta’lim integratsiyasiga asoslangan pedagogik konsepsiya ilgari surilib, uning metodologik-maqsadli, mazmunli, texnologik-protsessual va diagnostik-natijaviy tarkibiy qismlari asoslab berilgan. Tadqiqotda sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarining olti yo‘nalishli tuzilmasi (tibbiy-gigienik, jismoniy-somatik, psixoemotsional, ijtimoiy-muloqot, aksiologik-refleksiv, kasbiy-translyativ) taklif etilib, ularni shakllantirishning metodik algoritmi tavsiya qilingan.

Tayanch so‘zlar. Sog‘lom turmush tarzi, tibbiyot talabalari, pedagogik konsepsiya, formal ta’lim, noformal ta’lim, informal ta’lim, kasbiy kompetensiya, refleksiv-faoliyatli yondashuv, kasbiy toliqish, tibbiy ta’lim metodikasi.

В статье исследованы теоретико-методологические основы и практические аспекты методики формирования навыков здорового образа жизни (ЗОЖ) у студентов медицинских высших учебных заведений. Автором выдвинута педагогическая концепция, основанная на интеграции формального, неформального и информального образования, обоснованы её методолого-целевой, содержательный, технологико-процессуальный и диагностико-результативный компоненты. В исследовании предложена шестинаправленная структура навыков ЗОЖ (медико-гигиенические, физико-соматические, психоэмоциональные, социально-коммуникативные, аксиолого-рефлексивные, профессионально-трансляционные) и рекомендован методический алгоритм их формирования.

Ключевые слова. здоровый образ жизни, студенты-медики, педагогическая концепция, формальное образование, неформальное образование, информальное образование, профессиональная компетенция, рефлексивно-деятельностный подход, профессиональное выгорание, методика медицинского образования.

The article investigates the theoretical-methodological foundations and practical aspects of the methodology for forming healthy lifestyle (HLS) skills among students of medical higher educational institutions. The author proposes a pedagogical concept based on the integration of formal, non-formal and informal education, with its methodological-targeted, content-based, technological-procedural and diagnostic-productive components substantiated. The research offers a six-directional structure of HLS skills (medical-hygienic, physical-somatic, psycho-emotional, social-communicative, axiological-reflexive, professional-translational) and recommends a methodological algorithm for their formation.

Key words. Healthy lifestyle, medical students, pedagogical concept, formal education, non-formal education, informal education, professional competence, reflexive-activity approach, professional burnout, methodology of medical education.

Global epidemiologik o‘tish sharoitida yuqumsiz kasalliklar (YuSK) jahon aholisi o‘limining asosiy sababiga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (JSST) rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda dunyo bo‘ylab YuSKdan kamida 43 million odam vafot etgan bo‘lib, ularning 18 millioni 70 yoshga yetmagan kishilarni tashkil etadi. JSSTning yevropa mintaqaviy byurosi 2025-yilgi hisobotida esa har yili 1,8 million oldini olish mumkin bo‘lgan YuSK o‘limlari qayd etilayotgani ta’kidlangan. Mazkur tendensiya sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni davlat siyosatining

ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi.

Tibbiy oliy ta’lim muassasalari talabalari bu jarayonda alohida o‘ringa ega, chunki bo‘lajak shifokor – nafaqat o‘z salomatligini boshqaruvchi shaxs, balki bemorlar va keng aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini translyatori hamdir. Shu sababli tibbiyot talabalari uchun sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalari ikki qatlamli xarakter kasb etadi: shaxsiy-egzistensial va kasbiy-translyativ. Ammo mavjud pedagogik amaliyot tahlili mazkur ko‘nikmalarni shakllantirishning tizimli holda tashkil etilmaganligini, formal, noformal va informal ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikning sust ekanligini ko‘rsatadi.

Sog‘lom turmush tarzi fenomenining tadqiqot tarixi Kanada sog‘liqni saqlash vaziri M. Lalondning 1974-yilgi “Kanadaliklar salomatligiga yangi qarash” hisobotidan boshlanadi. Undan so‘ng JSSTning Ottava (1986), Jakarta (1997), Bangkok (2005) xartiyalari sog‘lom turmush tarzini ni ommaviy salomatlik siyosatining ustuvor o‘qiga aylantirdi. Ottava xartiyasida salomatlik “kundalik hayot uchun resurs, yashashning maqsadi emas” sifatida yangicha talqin qilindi.

O‘zbekiston pedagogika va tibbiyot fanida sog‘lom turmush tarzini nazariy-amaliy muammolari D.J. Sharipova, V. Karimova, R. Arziqulov, A. Rahmonov, M.F. Xakimova va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, D.J. Sharipovaning hammuallifligidagi “Talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” (Farg‘ona, 2010) monografiyasida talabalar muhitida sog‘lom turmush tarzini ni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimlashtirilgan; V. Karimovaning “Salomatlik psixologiyasi” (Toshkent, 2005) asarida sog‘lom turmush tarzini ning psixologik-aksiologik tayanchlari yoritilgan. R. Arziqulov sog‘lom turmush tarzini ning to‘rt o‘lchovli tuzilmasini (jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, ma’naviy salomatlik) taklif etgan.

Xorij tadqiqotlarida ijtimoiy-kognitiv nazariya (A. Bandura), sog‘liq e’tiqodlari modeli (M. Bekker), rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (I. Ayzen), transteoretik model (Dj. Proxaska) va ijtimoiy-ekologik model (K. Maklaroy, D. Shtokols) xulq-atvorni o‘zgartirishning universal mexanizmlarini ishlab chiqqan. Salomatlik psixologiyasi yo‘nalishining asoschisi Dj.D. Matarazzo 1980-yilda salomatlik xulqini zamonaviy profilaktika tibbiyotining mustaqil tadqiqot ob’ektiga aylantirgan.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan nazariy tahlilga tayangan holda muallif tomonidan quyidagi ta’riflar ilgari surildi. Sog‘lom turmush tarzi – shaxsning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va ma’naviy farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan, tibbiy-gigienik bilimlarga, aksiologik yo‘nalishlarga va o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmlariga asoslangan, milliy-madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan ongli hayotiy faoliyat tizimidir.

Sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari – shaxsning muntazam mashq qilish, amaliy tajriba va refleksiv faoliyat natijasida shakllangan, avtomatlashish darajasiga yetgan, lekin ongli tanlov va qadriyatli yo‘nalish asosida bajariladigan, sog‘lom turmush tarzini ni amaliy hayotda realizatsiya etuvchi kognitiv, amaliy va emotsional-irodaviy harakat va faoliyat majmuidir. Tibbiy oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalari ikki qatlamli xarakter kasb etadi: shaxsiy-egzistensial (o‘zini-o‘zi parvarish qilish) va kasbiy-translyativ (bemorlarda va aholida sog‘lom turmush tarzini ni shakllantirish malakalari) qatlamlari.

Tadqiqot metodikasi to‘rtta o‘zaro bog‘liq nazariy blokka asoslanadi. Birinchi blok – falsafiy asoslar. Ekzistensializm (K. Yaspers, V. Frankl) sog‘lom turmush tarzini shaxsning ongli egzistensial tanlovi sifatida talqin qiladi. Pragmatizm (J. Dyui) “ishlab o‘rganish” (Learning by Doing) konsepsiyasini ilgari suradi. Aksiologik yondashuv (M. Sheler) salomatlikni shaxsning qadriyatli ierarxiyasidagi ustuvor qiymat sifatida talqin qiladi.

Ikkinchi blok – psixologik asoslar. Bixeviorizm (B.F. Skinner) ko‘nikmalarni shakllantirishning operant shartlash texnologiyasini ta’minlaydi. Kognitiv psixologiya (A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi) o‘zini-o‘zi samaradorlik (self-efficacy) mexanizmi orqali sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarini barqaror bajarishning kalit omilini ochib beradi. Gumanistik psixologiya (A. Maslou, K. Rodjers) shaxsning o‘z-o‘zini realizatsiya qilish ehtiyojiga urg‘u beradi. Salomatlik psixologiyasi (Dj.D. Matarazzo) bemorlarni davolanish protokollariga itoat etishini (adherence) oshirish, stressni boshqarish va kasbiy toliqishni oldini olishning texnologik bazasini yaratadi.

Uchinchi blok – pedagogik yondashuvlar. Tizimli yondashuv (V.G. Afanasev, E.G. Yudin) sog‘lom turmush tarzini ni shakllantirishni yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqishni ta’minlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv (I.A. Zimnyaya, D. Xayms) sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarini bo‘lajak shifokorning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismiga aylantiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv (K. Rodjers, I.S. Yakimanskaya) har bir talabaning individual “salomatlik traektoriyasi”ni qurishga imkon beradi. Refleksiv-faoliyatli yondashuv (L.S. Vigotskiy, D. Shyon, D. Kolb) sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarini D. Kolbning tajribaviy o‘rganish sikli (konkret tajriba → refleksiv kuzatish → mavhum konseptualizatsiya → faol eksperiment) orqali shakllantirishning psixodidaktik algoritmini ta’minlaydi.

To‘rtinchi blok – milliy-madaniy asoslar. Hadislardagi “Salomatlik – eng buyuk ne’matdir” degan hikmat, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”dagi sog‘liqni asrash to‘g‘risidagi tavsiyalari, milliy tabobat an’analari, mahalla instituti va oilaviy tarbiya qadriyatlari sog‘lom turmush tarzini ni shakllantirishning ma’naviy-axloqiy zaminini tashkil etadi.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodika to‘rt tarkibiy qismdan iborat. Metodologik-maqsadli blok bosh maqsad – tibbiy oliy ta’lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarining barqaror, integrativ va kasbiy-yo‘naltirilgan tizimini shakllantirishni belgilaydi. Vazifalar: salomatlikni eng yuqori qadriyat sifatida anglash; shaxsiy sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarikompleksini shakllantirish; bemorlarda va aholida sog‘lom turmush tarzini ni targ‘ib qilish bo‘yicha kasbiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘z sog‘lig‘i va boshqalarning sog‘lig‘i uchun egzistensial mas’uliyatni tarbiyalash.

Mazmunli blok sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarining olti yo‘nalishli tuzilmasini qamrab oladi: (1) tibbiy-gigienik ko‘nikmalar – shaxsiy gigiena, oqilona ovqatlanish, uyqu-dam olish rejimi, zararli odatlarga qarshi kurashish; (2) jismoniy-somatik ko‘nikmalar – jismoniy faollik, badan tarbiyasining muntazamligi, o‘zini-o‘zi test qilish; (3) psixoemotsional ko‘nikmalar – stressni boshqarish, emotsional savodxonlik, emotsional o‘z-o‘zini tartibga solish; (4) ijtimoiy-muloqot ko‘nikmalari – sog‘lom munosabatlar, nizolarni hal qilish, samarali muloqot; (5) aksiologik-refleksiv ko‘nikmalar – salomatlikka qadriyatli munosabat, o‘z-o‘zini tahlil qilish, hayot maqsadlarini belgilash; (6) kasbiy-translyativ ko‘nikmalar – bemorlar bilan motivatsion suhbat, jamoatchilikni sog‘lom turmush tarzini ga jalb qilish, sog‘lomlik targ‘iboti.

Texnologik-protsessual blok shakllantirish jarayonining metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini o‘z ichiga oladi. Tarkibiga muammoga asoslangan o‘qitish (PBL), jamoada o‘rganish (TBL), simulyasion trening, motivatsion suhbat ustaxonasi, Kolbning tajribaviy o‘rganish sikli, mustaqil refleksiv portfolio, interaktiv keys-stadi, murabbiy-ustoz (mentoring) yo‘nalish va “yoshlar yoshlarga” (peer-to-peer education) tamoyili kiradi.

Diagnostik-natijaviy blok oltita mezon bo‘yicha baholashni taqdim etadi: kognitiv (sog‘lom turmush tarzini ga oid bilim), aksiologik (salomatlik qadriyati darajasi), mo-

tivatsion (o‘z salomatligini boshqarish motivi), amaliy-operatsional (ko‘nikmalarni real amaliyotda bajarish), refleksiv (o‘zini-o‘zi tahlil qila olish) va kasbiy-translyativ (boshqa odamlarni sog‘lom turmush tarzini ga jalb qila olish). Har bir mezon bo‘yicha uch darajali (past, o‘rta, yuqori) shkala ishlab chiqilgan. Diagnostika vositalari: validatlangan anketalar (SF-36, PHQ-9, GAD-7, IPAQ), mualliflik test-topshiriqlari, kundalik yuritish portfoliosi, OSKI tipidagi simulyasion baholash va 360° kuzatish metodi.

Metodikaning markaziy g‘oyasi – ta’limning uchta turi o‘rtasidagi integrativ aloqa. YuNeSKOning Umrbod o‘rganish instituti (UIL) tomonidan taklif etilgan tasnif bo‘yicha formal ta’lim – ierarxik, standartlashgan, rasmiy sertifikatlash bilan ta’minlangan o‘quv tizimi; noformal ta’lim – rasmiy tizim doirasidan tashqarida uyushtirilgan, oldindan rejalashtirilgan trening va o‘rganish faoliyati; informal ta’lim – kundalik hayot tajribasidan, oila va yaqin ijtimoiy muhitdan o‘z-o‘zidan o‘zlashtiriladigan bilim va ko‘nikmalar.

Tibbiy oliy ta’lim muassasalarida ushbu integratsiya uch o‘lchovda amalga oshiriladi. Gorizontal integratsiya formal, noformal va informal sohalar ichidagi sog‘lom turmush tarzini ga oid mazmun va amaliyotni umumiy maqsad atrofida uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi. Masalan, “Gigiena”, “Jamoat salomatligi”, “Psixiatriya”, “Jismoniy tarbiya” fanlari doirasidagi formal mazmun sog‘lomlik klublari, volontyor aksiyalari kabi noformal faoliyatlar va talabaning oilasi, mahalla muhiti kabi informal kontekst bilan tizimli ravishda bog‘lanadi. Vertikal integratsiya I kursda shakllanadigan boshlang‘ich sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarining V–VII kursga borib kasbiy kompetensiya darajasigacha rivojlantirilishini kafolatlaydi. Subyektli integratsiya talabaning passiv obyektdan faol subyektga – o‘z salomatligi muallifiga hamda kasbiy faoliyatida sog‘lom turmush tarzini translyatori darajasiga o‘sishi jarayonini qamrab oladi.

Integratsiyaning muhim instrumenti – YuNeSKO tomonidan ilgari surilgan RVA (Recognition, Validation, Accreditation – tan olish, validatsiya, akkreditatsiya) tamoyilidir. Bu tamoyil asosida talaba noformal va informal ta’lim doirasida erishgan sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalari portfolio, refleksiv yozuvlar, ekspert baholash va validatlangan test-usullari yordamida rasmiy tan olinishi, o‘quv jarayonining hujjatli natijalari qatoriga kiritilishi mumkin.

Metodikani tibbiy oliy ta’lim muassasasida tatbiq etish olti bosqichli algoritm bo‘yicha amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – diagnostik: talabaning sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalari boshlang‘ich darajasini yuqorida ko‘rsatilgan olti mezon bo‘yicha baholash, individual “salomatlik profil”ini tuzish. Ikkinchi bosqich – maqsad belgilash: har bir talaba uchun individual salomatlik maqsadlarini SMART prinsipi bo‘yicha formulyasiyalash (specific, measurable, achievable, relevant, time-bound). Uchinchi bosqich – o‘rganish: tajribaviy o‘rganish sikli asosida nazariy bilim, amaliy trening va refleksiv tahlilning uyg‘unlashgan tartibini ta’minlash.

To‘rtinchi bosqich – mashqlash: shaxsiy salomatlik rejasiga asoslangan kundalik amaliyotni monitoring portfoliosi orqali qayd etish va takomillashtirish. Beshinchi bosqich – kasbiy transpozitsiya: talabaning klinik amaliyot davrida bemorlar bilan motivatsion suhbat va sog‘lom turmush tarzini targ‘iboti malakalarini shakllantirish (OSKI stansiyalaridagi simulyasiyalar va qishloq vrachlik punktlarida “sog‘lomlik darslari” o‘tkazish). Oltinchi bosqich – refleksiv-baholash: har semestr oxirida dastlabki diagnostika mezonlari bo‘yicha takroriy o‘lchov, shaxsiy-kasbiy rivojlanish traektoriyasini tahlil qilish va metodikani CQI (Continuous Quality Improvement) prinsipi bo‘yicha takomillashtirish.

Tibbiy oliy ta’lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy tibbiy ta’lim rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon berdi.

Birinchidan, tibbiyot talabalari uchun sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalari o‘ziga xos ikki qatlamli – shaxsiy-egzistensial va kasbiy-translyativ – xarakter kasb etadi, bu holat tibbiy ta’lim metodikasida maxsus pedagogik yondashuvni taqozo etadi.

Ikkinchidan, sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali metodikasi falsafiy (ekzistensializm, pragmatizm, aksiologiya), psixologik (bixeviorizm, kognitiv va gumanistik psixologiya, salomatlik psixologiyasi), pedagogik (tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv-faoliyatli yondashuvlar) hamda milliy-madaniy asoslarning uyg‘unlashuvi orqali qurilishi kerak.

Uchinchidan, mualliflik metodikasining metodologik yadrosini formal, noformal va informal ta’limning gorizontal, vertikal hamda subyektli o‘lchovlardagi integratsiyasi tashkil etadi; YuNeSKOning RVA tamoyili integratsiya instrumenti sifatida xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, taklif qilingan metodika to‘rt blokdan (metodologik-maqsadli, mazmunli, texnologik-protsessual, diagnostik-natijaviy) va sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarining olti yo‘nalishidan tashkil topib, tibbiy oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etish uchun olti bosqichli algoritm sifatida amalga oshirilishi mumkin.

Beshinchidan, metodikani keng ko‘lamli tatbiq qilish tibbiyot talabalari orasida kasbiy toliqish tarqalishini pasaytirishga, ularning shaxsiy salomatlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga hamda bo‘lajak shifokor sifatida bemorlar va aholida sog‘lom turmush tarzini ni targ‘ib qilish bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolada bayon etilgan metodika O‘zbekiston Respublikasining “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” umummilliy harakati doirasidagi vazifalarni amalga oshirishda ilmiy-metodik asos vazifasini o‘tashi mumkin. Metodikaning samaradorligini tajribaviy-sinov ishi orqali empirik tekshirish dissertatsiya tadqiqotining keyingi bosqichlarida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-son Farmoni. – Toshkent, 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrdagi “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4063-son Qarori. – Toshkent, 2018.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-son Farmoni. – Toshkent, 2020.

4. Ottawa Charter for Health Promotion. First International Conference on Health Promotion. – Geneva: World Health Organization, 1986. – 5 p.

5. World Health Organization. Global action plan for the prevention and control of noncommunicable diseases 2013–2020 (extended to 2030). – Geneva: WHO, 2019. – 103 p.

6. World Health Organization. Noncommunicable diseases. Fact sheet. – Geneva: WHO, 2025.

7. Almutairi H., Alsubaiei A., Abduljawad S. et al. Prevalence of burnout in medical students: A systematic review and meta-analysis // International Journal of Social Psychiatry. – 2022. – Vol. 68, № 6. — P. 1157–1170. – DOI: 10.1177/00207640221106691.

Jamoliddin ERGASHEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchi, Qarshi davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

TALABALARNI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak pedagoglarni integrativ yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda integratsiya tushunchasining pedagogik mohiyati, fanlararo bog‘liqlikning mutaxassis shakllanishidagi roli va ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. O‘tkazilgan pedagogik tajribalar asosida integrativ modullarning talabalar kasbiy tayyorgarligiga ta’siri baholangan hamda sohani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Tayanch so‘zlar. Integrativ yondashuv, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, kompetensiya, fanlararo bog‘liqlik, oliy ta’lim, talaba.

В статье освещены научно-теоретические основы подготовки будущих педагогов к социально-педагогической деятельности на основе интегративного подхода. В исследовании анализируется педагогическая сущность понятия интеграции, роль междисциплинарной связи в формировании специалиста и механизмы развития социально-педагогических компетенций. На основе проведенных педагогических экспериментов оценено влияние интегративных модулей на профессиональную подготовку студентов, а также выдвинуты научные предложения по совершенствованию отрасли.

Ключевые слова. Интегративный подход, социально-педагогическая деятельность, компетенция, междисциплинарная связь, высшее образование, студент.

This article discusses the scientific and theoretical foundations of preparing future teachers for socio-pedagogical activities based on an integrative approach. The study analyzes the pedagogical essence of the concept of integration, the role of interdisciplinary connections in the formation of a specialist, and the mechanisms for developing socio-pedagogical competencies. Based on the conducted pedagogical experiments, the impact of integrative modules on students’ professional training is assessed and scientific proposals are put forward to improve the field.

Key words. Integrative approach, socio-pedagogical activity, competence, interdisciplinary connection, higher education, student.

Zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – nafaqat tor doiradagi mutaxassisni, balki ijtimoiy muhitning murakkab muammolariga kreativ va tizimli yechim topa oladigan, ko‘p qirrali kompetensiyalarga ega pedagog-kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassislarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni bugungi kunda alohida pedagogik fanlar chegarasidan chiqib, fanlararo sintezni – ya’ni integrativ yondashuvni taqozo etmoqda.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va huquqshunoslik kabi sohalarning tutashgan nuqtasida shakllanadi. Biroq, an’anaviy ta’lim tizimida bilimlarning tarqoq holda berilishi talabalarda yaxlit ijtimoiy manzara va muammolarni kompleks hal qilish ko‘nikmasining yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelmoqda. Shu sababli, ta’lim mazmunini integratsiyalash orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish metodologik jihatdan zaruriyatga aylandi.

Ilmiy-nazariy asoslar. Integrativ yondashuvning nazariy ildizlari ta’lim mazmunini tizimli tashkil etish (L.V. Zankov, V.V. Krayevskiy), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va fanlararo aloqadorlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda integratsiya – bu shunchaki bilimlarni jamlash emas, balki:

– pedagogik mahorat va ijtimoiy moslashuvchanlikning uyg‘unligi;

– nazariy tushunchalar va amaliy ko‘nikmalarning o‘zaro sintezi;

– talabaning qadriyatli-motivatsion va kognitiv sohalarining yaxlit rivojlanishidir.

Mazkur tadqiqotda talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning konseptual asoslarini tahlil qilish, ushbu jarayonning tarkibiy qismlari hamda talabalarning kasbiy shaxs sifatida shakllanishidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish ko‘zda tutilgan.

Hozirgi bosqichdagi adabiyotlar tahlili ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlikning quyidagi fanlararo kesishuvini ko‘rsatmoqda:

Psixologik-pedagogik integratsiya: Talabaning hissiy intellekti va ijtimoiy persepsiyasini rivojlantirish (ijtimoiy pedagogika va psixologiya sintezi).

Texnologik integratsiya: Ijtimoiy muammolarni hal qilishda raqamli texnologiyalar va pedagogik loyihalash usullaridan foydalanish.

Tadqiqotda jarayonni tahlil qilish uchun bir-birini to‘ldiruvchi quyidagi yondashuvlar majmuasi asos qilib olingan:

Tizimli yondashuv: ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlikni o‘zaro bog‘liq elementlardan (maqsad, mazmun, metod, natija) iborat yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Integrativ yondashuv: fanlararo (pedagogika, psixologiya, sotsiologiya) bilimlarni sintez qilish orqali talabalarda kompleks kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Faoliyatli yondashuv: talabalarni shunchaki nazariy bilim oluvchi emas, balki ijtimoiy loyihalar va amaliy vaziyatlarda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida qarashga yo‘naltirilgan.

Mavzuni yoritishda quyidagi nazariy va amaliy usullar kombinatsiyasidan foydalanildi:

Nazariy usullar: mavzuga oid falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni qiyosiy-mantiqiy tahlil qilish, mavjud ta’lim standartlari va o‘quv rejalarini analiz qilish.

Empirik usullar: talabalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnomalar (anketa), suhbatlar va pedagogik kuzatuvlar.

Modellashtirish: Integrativ yondashuvga asoslangan ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlikning nazariy modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot jarayoni oliy ta’lim muassasalarining talabalari o‘rtasida tashkil etildi. Bunda asosiy e’tibor talabalarning ijtimoiy muammolar bilan ishlashga bo‘lgan motivatsiyasi, bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati va kreativ fikrlash darajasiga qaratildi.

Izlanish uch bosqichda amalga oshirildi:

Aniqlovchi bosqich: Talabalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyat haqidagi tasavvurlari va hozirgi tayyorgarlik holati tahlil qilindi.

Shakllantiruvchi bosqich: O‘quv jarayoniga integrativ modullar va fanlararo loyihalar joriy etildi.

Nazorat bosqichi: Qo‘llanilgan integrativ yondashuvning samaradorligi matematik-statistik usullar yordamida qayta tekshirildi va xulosalandi.

Natijalar va muhokama

O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning samaradorligi quyidagi ko‘rsatkich-

larda namoyon bo‘ldi:

Bilimlar tizimi: Talabalarda ijtimoiy muammolarga nisbatan “Tor doiradagi pedagogik yondashuv” o‘rniga “Kompleks ijtimoiy-psixologik qarash” shakllandi. Sinov guruhi talabalarining 78 foizi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda bir vaqtning o‘zida ham huquqiy, ham psixologik normalarni tatbiq eta olishini ko‘rsatdi.

Kompetensiya darajasi: Integrativ modullar asosida dars o‘tilgan talabalarda ijtimoiy-pedagogik diagnostika qilish ko‘nikmasi an’anaviy guruhga nisbatan 24 foizga yuqori natijani berdi.

Kreativ yechimlar: Loyihaviy ta’lim usuli (Project-based learning) orqali talabalar tomonidan “Murakkab ijtimoiy muhitdagi bolalar bilan ishlashning integrativ modeli” loyihasi ishlab chiqildi.

Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning sifat ko‘rsatkichlarini o‘zgartiradi.

Nazariya va amaliyot sintezi: Muhokama jarayonida aniqlandiki, talabalar pedagogik nazariyalarni ijtimoiy real voqelik bilan bog‘lay olganlarida, ularning kasbiy motivatsiyasi ortadi. Bu V.A. Slasteninning kasbiy tayyorgarlik haqidagi konsepsiyasini yangi – zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar mazmunida to‘ldiradi.

Fanlararo muloqotning roli: Tajriba shuni ko‘rsatdiki, “Ijtimoiy pedagogika” fani tarkibiga “Ijtimoiy psixologiya” va “Ijtimoiy huquq” elementlarining tizimli integratsiyalashuvi talabalarning kommunikativ to‘siqlarini bartaraf etishga yordam beradi.

Kutilmagan natijalar: Tadqiqot davomida ma’lum bo‘ldiki, integrativ yondashuv nafaqat bilim darajasini, balki talabalarning empatiya (hissiy yaqinlik) darajasini ham oshirar ekan. Bu esa ijtimoiy pedagog uchun eng muhim shaxsiy sifatlardan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integrativ yondashuv asosida shakllangan ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalar bitiruvchining zamonaviy jamiyatdagi murakkab ijtimoiy jarayonlarga moslashishini va mutaxassis sifatida samarali faoliyat yuritishini kafolatlovchi asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 b.

2. Jo‘rayev R.A. Ta’limda integratsiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: “Fan”, 2005. – 160 b.

3. Rustambekova M.H. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2021. – 64 b.

4. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2008. – 288 b.

5. Безукова В.С. Основы педагогической интеграции. Монография. – Екатеринбург: Изд-во СИПИ, 1996. – 152 с.

6. Галагузова М.А. Социальная педагогика: Курс лекций. Учебное пособие для вузов. – Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2000. – 416 с.

7. Чапаев Н.К. Теоретико-методологические основы педагогической интеграции. Диссертация доктора педагогических наук. – Екатеринбург, 2019. – 462 с.

8. Drake S.M., Burns R.C. Meeting Standards Through Integrated Curriculum. – Alexandria: Association for Supervision and Curriculum Development (ASCD), 2004. – 178 p.

Javohirbek BURIYEV,
Samarqand davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

TALABALARNI MUSTAQIL FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada talabalarning mustaqil faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan. Unda raqamli ta’lim muhiti, integrativ axborot ta’minoti, elektron resurslar, virtual laboratoriyalar va mustaqil ta’lim platformalarining talabalar o‘quv faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Mustaqil faoliyat, mustaqil ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, integrativ axborot ta’minoti, elektron resurs, virtual laboratoriya, o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy rivojlanish, talaba, pedagogik muammo.

В данной статье совершенствование готовности студентов к самостоятельной деятельности рассматривается как актуальная педагогическая проблема. Раскрывается значение цифровой образовательной среды, интегративного информационного обеспечения, электронных ресурсов, виртуальных лабораторий и платформ самостоятельного обучения в организации учебной деятельности студентов.

Ключевые слова. Самостоятельная деятельность, самостоятельное обучение, цифровая образовательная среда, интегративное информационное обеспечение, электронный ресурс, виртуальная лаборатория, самоуправление, профессиональное развитие, студент, педагогическая проблема.

This article examines the improvement of students’ readiness for independent activity as a significant pedagogical problem. It highlights the role of the digital educational environment, integrative information support, electronic resources, virtual laboratories, and independent learning platforms in organizing students’ learning activities.

Key words. Independent activity, independent learning, digital educational environment, integrative information support, electronic resource, virtual laboratory, self-management, professional development, student, pedagogical problem.

Jahon ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitida talabalarning mustaqil faoliyatga tayyorgarligini integrativ axborot ta’minoti vositasida takomillashtirishning kreativ-integrativ modulli texnologiyalari ta’lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati talabadan o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini, asta-sekin aqlini boshqarishni o‘rganishni va o‘z e’tiqodlari, qadriyatlari va xulosalarini mantiqiy nazorat qilishni talab qiladi. ta’limda aqliy mustaqil faoliyatga asoslanganligi sababli, ta’limda aqliy mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berish ва an’anaviy axborot tizimi va ilovalar modellari o‘rnini bosuvchi yoki ularni takomillashtirishga qaratilgan dasturiy vositalarni yaratish va amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida o‘rganishning mustaqil faoliyatga tayyorgarlik ahamiyati quyidagicha: o‘qituvchi va talabalar mustaqil ta’lim platformalaridan foydalanadilar, samarali o‘qitish va baholash tamoyillari qo‘llaniladi; yangi paradigma bilan ta’limdan foydalanish: guruh ichidagi tabaqalashtirilgan ta’lim xarakterini rivojlantirish va umumiy kompetensiyaga yo‘naltirilgan fanlararo qo‘shma o‘quv loyihalarini takomillashtirishdan iborat.

Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda o‘quv materiallarining turli shakllari, elektron resurslar, yangi mavzularni o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan savollarga ixtiyoriy vaqtda javob olish imkoniyatini beradigan integrallashgan elektron manba, tabiiy fanlarning yo‘nalishlari bo‘yicha virtual laboratoriya mashg‘ulotlari talabalar tomonidan o‘quv fanlarini mustaqil o‘rganishga zarur bo‘ladigan resurslardan sanaladi.

Mustaqil faoliyatga tayyorgarlik ahamiyati mazmunidan kelib chiqqan holda, mustaqil ta’lim o‘z-o‘zidan ta’lim olish degani emas, balki talabalarning o‘qituvchiga qaram bo‘lmasligi uchun ularning hohish va raqamli ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘quv jarayonidir. Mustaqil ta’lim bilan talabalar samarali ta’lim usullarini aniqlay oladilar, o‘quv topshiriqlarini yaxshi bajara oladilar va o‘quv faoliyatini mustaqil bajara oladilar.

Xaris Mudjimanning ta’kidlashicha, mustaqil ta’limning bir qancha xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular foydalaniladigan ta’lim resurslari, o‘rganish joyi, o‘qish vaqti, o‘rganish tempi va ritmi, qanday o‘rganish va ta’lim natijalarini baholashda ko‘rinadi (1-rasm):



1-rasm. Mustaqil ta’limning maqsadlari

Yuqorida 1-rasmda keltirilgan mustaqil ta’lim maqsadlarini o‘rganish jarayonida, albatta, siz o‘z-o‘zini o‘rgatadigan turli manbalar va o‘quv vositalaridan, shuningdek, Internet kabi axborot texnologiyalaridan foydalanishingiz mumkin bo‘ladi.

Ushbu mustaqil ta’lim maqsadlari orqali o‘quv faoliyati uchun qulay sharoitga ega bo‘lgan har qanday joyda amalga oshirilishi mumkin, masalan, ta’lim tizimlari, uylar, kutubxonalar va boshqalar.

Mustaqil ta’lim maqsadlarini qanday o‘rganish kerak. Ya’ni, ta’lim yo‘lini talabalarning o‘rganish turini va bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv qobiliyatlarini moslashtirish orqali aniqlash mumkin. Mustaqil ta’lim maqsadlarini o‘quv jarayonidagi o‘rni va ahamiyatiga to‘xtalamiz: bu talabalarda o‘z-o‘zini tarbiyalash va individual o‘zini o‘zi anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi; bu inson hayotida uzluksiz ta’lim beradi; mustaqil faoliyat ko‘nikmalarni berishni maqsad qilmaydi. U talabalarga ushbu ko‘nikmalarni to‘g‘ri mustaqil izlashga o‘rgatishdan iborat bo‘ladi.

Talaba bilishi kerak bo‘lgan narsa va o‘qituvchi o‘zi biladi va qila oladi deb o‘ylaydigan narsalar o‘rtasida katta tafovut mavjud.

Shu sababli mustaqil ta’lim maqsadlarini bajarilishida ta’lim oldida munozarali vazifa turibdi: bir tomondan, talabaning intellektual jarayonlarini rivojlantirish va unga yangi bilim darajasiga ko‘tarilishiga yordam berish uchun bizda mavjud bo‘lgan barcha resurslardan foydalanish, boshqa tomondan - o‘qitiladigan materiallarni iloji boricha qulay qilish.

Bu muammoni qanday hal qilish mumkin? Tegishli vazifalarni tayyorlash orqali, puxta o‘ylangan va rejalashtirilgan, mantiqiy va mustaqil faoliyat amaliyoti. Ma’lum bo‘lishicha, har bir topshiriqning mustahkam yechimi bilan talabalar ma’lum ko‘nikmalarni to‘liq va puxta egallaydilar, shuningdek, bu ko‘nikmalardan hayotda ijodiy foydalanishga o‘rganadilar.

Mustaqil faoliyatga erishish uchun mo‘ljallangan bir qator ikkinchi darajali maqsadlar ham mavjud:

– talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini muvofiqlashtirish va birlashtirish;

– nazariy bilimlarni rivojlantirish va kengaytirish;

– vazifaga javob topish uchun o‘quv adabiyotlaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– talabaning bilish faoliyatini rivojlantirish, ularning ijodiy rejasi va roli;

– fikrlash erkinligini rivojlantirish, o‘zini rivojlantirish, amalga oshirish va takomillashtirish qobiliyatini amalga oshirish;

– amaliy ko‘nikma va malakalarni yaratish;

– tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga hissa qo‘shish;

– umume’tirof etilgan jahon standartlari darajasida samarali mustaqil kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berish;

– umumiy ko‘nikma va qobiliyatlarni yaratish va o‘ziga xos xususiyatlarni ajratish;

– umumiy xususiyatlarni aniqlash, bu xususiyatlarni solishtirish va olingan ma’lumotlar asosida umumlashtirishni o‘rgatish;

– umumiy va har xil xususiyatlar bilan taqqoslashni o‘rgatish;

– asosiy xususiyatlar asosida dalillar yaratishni o‘rganish.

Bularning barchasi oliy ta’lim muassasalarida mustaqil faoliyatlarni bajarish uchun odatiy holdir. Ammo bu turdagi mustaqil faoliyatlarning asosiy vazifasi talabalarda o‘qish va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishdir.

Har safar mustaqil faoliyatda ishlash qiyinlashib borayotganday bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, o‘qituvchi talabalarning kognitiv qiziqishlarini rag‘batlantirishga, fikrlash jarayonlaringizni uyg‘otishga va rivojlantirishga, ilmiy dunyoqarash va muloqot qobiliyatlarini yaratishga harakat qiladi.

Talabalarning mustaqil faoliyati usullari:

Talabalarning mustaqil faoliyatlarini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan adabiyotlarda ushbu turdagi ish turlarining quyidagi tasnifini topish mumkin:

– talabalar so‘rovi;

– qiyosiy tahliliy tadqiqotlar;

– o‘quv va ta’lim muammolarini hal etish;

– turli axborot manbalari bilan ishlash;

– tadqiqot faoliyati;

– mustaqil faoliyatning tuzilishi.

Mustaqil faoliyat quyidagi ish turlarini o‘z ichiga oladi:

– auditoriya darsiga (ma’ruza, seminar, laboratoriya ishi, amaliy mashg‘ulot) tay-

yorgarlik ko‘rish va unga oid ishlarni bajarish;

– o‘quv rejasi va mavzusi bo‘yicha fanning individual mavzusini mustaqil o‘rganish;

– amaliyotga tayyorgarlik ko‘rish va topshiriqlarni bajarish;

– matnlar va taqdimotlar nazoratini yaratish;

– diagrammalar, chizmalar, grafiklarni chizish;

– yakuniy attestatsiyaga tayyorgarlik, yakuniy malaka topshiriqlarini yozish;

– seminarlar, to‘garaklar, ilmiy izlanishlar;

– konferensiyalar, seminarlar, va shu kabi tadbirlarda ishtirok etish.

B. P. Yesipov mustaqil ishlarning tasnifini taklif qiladi, unga ko‘ra mustaqil faoliyat turli didaktik vazifalarni hal qilishi mumkin:

1. Eng yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun qo‘llaniladigan mustaqil ish:

a) boshlang‘ich: materiallarni o‘rganish;

b) o‘qituvchining tushuntirishini tinglashda bajariladi: jadvallar, chizmalar chizish; ma’ruza matnlari to‘plami;

2. Kitob materiallari bo‘yicha mustaqil xizmat: kitob materiallarini o‘qish va savollarga javob berish; o‘quv adabiyotlari paragrafining rejasini olish; maqola rejasini to‘plash, uning nazariyalarini farqlash.

3. Talabalarning eng yangi bilimlarni o‘qituvchi tomonidan mustaqil ravishda egallashi

4. Talabalarning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishni o‘rganishi: Hisobot; yaratish; kognitiv vazifalarni yakunlash; ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashq qilish; amaliy ish.

5. Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini yangilash va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha mustaqil xizmat: Xulosa; nazorat ishi.

Bundan tashqari M.G.Garunov, P.I.Pidkasistiy va boshqalarning qarashlariga qo‘shilish mumkin, ular mustaqil ishni talaba faoloiyatini tashkil qilish vositasi, o‘qitishning tashkiliy shakli deb hisoblaydilar. Mustaqil ishlarni o‘qitishda mustaqil faoliyatni tashkil qilishning o‘ziga xos vositalari sifatida qarash kerak.

Mustaqil faoliyatning turlariga mos tasnifi:

– ta’lim kasblari va talabalarining axborot mazmunini boshqarishda ma’lum faktlar va faoliyat usullarini to‘plashni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish;

– talabaning o‘quv ma’lumotlarining o‘zgarishini takrorlashni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish;

– bilimlarning individual funksional elementlarini ularning turli xil o‘zgarishlarida va bu bilimlarning butun tuzilishida takrorlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish;

– mustaqil va teng ravishda yangi ma’lumotlarni taqdim etish jarayonida talabalarning ishtiroki.

Mashhur tadqiqotchilar mustaqil ishning quyidagi turlarini ajratadi: ish va darslik; ma’lumotnoma adabiyotlari bilan ishlash; rejalashtirilgan ish va jihozlar; insholar va eslatmalar; o‘qituvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha tekshirish va tahlil qilish; laboratoriya ishi; fotografik asarlar.

N.I.Voytina tasnifida talabalar faoliyatining xarakteri quyidagicha:

– mustaqil faoliyatning reproduktiv turi (ilgari olingan ko‘nikmalarni takrorlash va ular bilan ishlash);

– mustaqil faoliyatning ijodiy turi (mavjud ko‘nikmalarning o‘ziga xosligi va ularni ijodiy qismni qayta ishlash).

Talabalar mustaqil faoliyati tarkibiga quyidagi faoliyat turlari kiritilib, ular mustaqil o‘quv faoliyatiga nisbatan turdosh tushunchadir. Bular: gnostik; tashkiliy-texnik; axbo-

riy; kommunikativ; konstruktiv tushunchalardir. Mustaqil faoliyati tarkibida jarayonli va mantiqiy-mazmuniy komponentlarning ajratib ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quv-pedagogik faoliyatning gnostik elementi talabalarning fikrlash mahsuldorligi darajasini, fikrlash tejamliligini va bilimlilik darajasini aks ettiradi. Ko‘pgina tadqiqotchilar mustaqillikni o‘quvchi-talabalarning aqliy rivojlanish tavsifi sifatida qaraydilar. Bilish malakalari – bu bilimlarni mustaqil egallash malakalari hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslanib, mustaqil faoliyatiga uning mohiyatini va komponentli tarkibini hisobga olgan holda ta’rif berish imkonini berdi. Bu talabaning o‘zi tomonidan loyihalashtirilgan faoliyat bo‘lib, jarayon va natijani nazorat qilish va korreksiyalashga daxldor bo‘lib, talaba tomonidan tuzilmalashtirilgan faoliyatdir. Bular talabaning psixologik xususiyatlarini va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olgan holda olib boriladi, hamda ularning kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi hisoblanadi, jamiyatdagi o‘z o‘rnini aniqlash, o‘z kuchini jalb qilish va o‘zini boshqarish jarayonlarining jadal amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning mustaqil faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki raqamli ta’lim muhiti sharoitida talaba faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt emas, balki o‘z ta’lim ehtiyojlarini anglaydigan, maqsad qo‘ya oladigan, zarur axborot manbalarini tanlaydigan, o‘z faoliyatini rejalashtiradigan va natijalarini baholay oladigan faol shaxs sifatida shakllanishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarning mustaqil faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishda o‘qituvchining vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U talabalarning bilish faolligini rag‘batlantiruvchi, mustaqil izlanishga yo‘naltiruvchi, ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi pedagogik sharoitlarni yaratishi lozim. Demak, mustaqil faoliyatga tayyorgarlikni takomillashtirish ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimini raqamli va integrativ yondashuvlar asosida yangilashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andreas Kosasih, Haris Mudjiman, ST.Y. Slamet, Budhi Setiawan. The Development of Writing Learning Model Based on the Arces Motivation for Students of Senior High School . Journal of Education and Practice www.iiste.org. ISSN 2222-1735 (Paper) ISSN 2222-288X.Vol.4, No.12, 2013, 127-130 p.

2. Knowles M.S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. Methodological guide. New York.: 135p.

3. Tursunov S.K. Ta’limda elektron axborot recurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik acoclari (pedagogika oliy ta'lim muassasalari “Web-dizayn” fani misolida) Pedagogika fanlari nomzodi diccertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2011. – 23 b.

4. Есипов, Б.П. Самостоятельная работа учащихся в процессе обучения/Б.П. Есипов. – М.: Глобус. – 2009. – 131с.

5. Байлук В.В. Самостоятельная деятельность студентов как система. Педагогическое образование в России, №8, 12-27ст. 2016.

6. Войтина Н.И. Планирование и организация самостоятельной работы студентов педагогического колледжа // Совершенствование самостоятельной работы студентов в системе технического образования. Сборник статей по материалам университетского научно-практического семинара. - Магнитогорск: МаГУ, 2003. - с. 40-44

Odina ABDUNAZAROVA,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat Milliy instituti, tayanch doktorant

NUTQNI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING MAZMUNI, KOMPONENTLARI VA PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada nutqni rivojlantirish jarayonining nazariy-metodik asoslari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, uning mazmuni, tarkibiy komponentlari va pedagogik omillari o'zaro bog'liqlikda yoritiladi. Shuningdek, o'zga tilli o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning lingvistik, psixologik va metodik xususiyatlari ochib beriladi.

Tayanch so'zlar. Nutqni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, o'zga tilli o'quvchilar, psixolingvistika, bilingvizm, interaktiv metodlar, nutq madaniyati.

В данной статье на основе системного подхода анализируются теоретико-методические основы процесса развития речи, а также во взаимосвязи рассматриваются его содержание, структурные компоненты и педагогические факторы. Кроме того, раскрываются лингвистические, психологические и методические особенности формирования речевой компетенции у учащихся, для которых язык обучения не является родным.

Ключевые слова. развитие речи, коммуникативная компетенция, иноязычные учащиеся, психолингвистика, билингвизм, интерактивные методы, культура речи.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of speech development based on a systematic approach, and examines its content, structural components, and pedagogical factors in their interrelation. It also reveals the linguistic, psychological, and methodological features of developing communicative competence in non-native language learners.

Key words. Speech development, communicative competence, non-native language learners, psycholinguistics, bilingualism, interactive methods.

Zamonaviy globallashuv sharoitida ko'p tillilik (bilingvizm va polilingvizm) jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimida o'zga tilli o'quvchilarning nutqini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki tilni o'zlashtirish jarayoni nafaqat lingvistik birliklarni egallash, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy metodik yondashuvlarda nutqni rivojlantirish o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bilan bevosita bog'liq holda qaraladi. Shu sababli nutqiy faoliyatni rivojlantirish masalasi lingvistik, psixologik va pedagogik omillar uyg'unligida o'rganilmoqda.


Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, "Tilni o'zlashtirish – bu nafaqat lingvistik birliklarni egallash, balki muloqot jarayonida ularni funksional qo'llashni ham o'z ichiga oladi" [1: 45]. Demak, nutqni rivojlantirish jarayoni faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmay, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, A.A. Leontyev fikriga ko'ra, nutq faoliyati psixologik jarayon sifatida tafakkur, motivatsiya va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqdir [2: 28]. Bu esa o'zga tilli

o‘quvchilarda nutqni rivojlantirishni kompleks yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi masalalari X. Muxitdinova tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan [3: 85-88]. Shuningdek, G.A. Asilova ilmiy ishlarida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida til va nutq integratsiyasi muhim o‘rin tutishi qayd etiladi [4: 54-56].

Nutqni rivojlantirish samaradorligi ko‘p jihatdan qo‘llanilayotgan metodlarga bog‘liq. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va nutqiy faolligini oshiradi [3: 88]. Vizual vositalar tushunishni yengillashtirsa, o‘yin texnologiyalari motivatsiyani kuchaytiradi, CLIL yondashuvi esa til va mazmun integratsiyasini ta’minlaydi. Tadqiqot jarayonida rolli o‘yinlar, rasm asosida hikoya tuzish, muammoli vaziyatli topshiriqlar (case-study), FSMU, dramatizatsiya, “Virtual sayohat”, SWOT tahlil, INSERT, “Oltita fikrlovchi qalpoq”, dialog va monolog mashqlari hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Metodlarni tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, til bilish darajasi (A1-B1) va ta’lim maqsadlari hisobga olindi. Har bir metodning didaktik imkoniyatlari oldindan baholangan holda dars tizimiga kiritildi.

Nutqni rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishga qaratilgan ko‘p bosqichli pedagogik tizimdir. Ilmiy manbalarda bu jarayon “kommunikativ faoliyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli ta’lim jarayoni” sifatida talqin etiladi.


Shu asosda nutqni rivojlantirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:



1-chizma. Nutqni rivojlantirish yo‘nalishlari

Bu jarayon o‘zga tilli o‘quvchilarda yanada murakkablashadi. Chunki ular ikki til tizimini bir vaqtda o‘zlashtiradi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “ikkinchi tilni o‘rganishda ona tilining ta’siri muqarrar bo‘lib, u interferensiya hodisasini yuzaga keltiradi” [2: 74].

Nutqni rivojlantirish jarayoni integrativ xarakterga ega bo‘lib, bir nechta komponentlarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Leontyev nazariyasiga ko‘ra, nutq faoliyati psixologik va lingvistik birliklarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi [2: 35]. Shu asosda quyidagi komponentlar ajratiladi:



2-chizma. Nutq rivojining komponentlari

1. Lingvistik komponent. Bu komponent tilning barcha birliklarini egallashni o‘z

ichiga oladi: fonetika (tovushlar), leksika (so‘z boyligi) va grammatika (gap tuzilishi).

2. Psixologik komponent. Nutq faoliyati insonning ichki psixik jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Bu komponent tafakkur, xotira, diqqat, motivatsiya va nutqiy ishonchni o‘z ichiga oladi.

3. Kommunikativ komponent. Bu komponent muloqotga kirishish, suhbatni boshlash va davom ettirish, fikr almashish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

4. Metodik komponent. Mazkur komponent nutqni rivojlantirishda qo‘llaniladigan o‘qitish usullari va texnologiyalarini o‘z ichiga oladi.

5. Madaniy komponent. Nutq etiketi, muomala madaniyati, milliy va ijtimoiy me’yorlarni bilish ushbu komponentga kiradi.

Nutq rivoji yuqoridagi komponentlarning alohida emas, balki o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida amalga oshadi. Ularning integratsiyasi quyidagi tarzda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, lingvistik va kommunikativ komponent integratsiyasi natijasida o‘quvchi o‘rgangan so‘z va grammatik birliklarni real muloqotda qo‘llay boshlaydi. Masalan, yangi o‘rganilgan so‘zlar dialog va rolli o‘yinlarda ishlatilganda mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, psixologik va kommunikativ komponent uyg‘unligi o‘quvchining nutqiy faolligini belgilaydi. Agar o‘quvchida ishonch va motivatsiya yuqori bo‘lsa, u muloqotga faol kirishadi.

Uchinchidan, metodik komponent barcha komponentlarni birlashtiruvchi vosita hisoblanadi. O‘qituvchi to‘g‘ri metod tanlash orqali lingvistik bilimlarni kommunikativ faoliyatga aylantiradi va psixologik to‘siqlarni kamaytiradi.


To‘rtinchidan, madaniy komponent kommunikativ jarayonni to‘g‘ri yo‘naltiradi. O‘quvchi nafaqat to‘g‘ri gapirishni, balki vaziyatga mos, madaniyatli nutqni qo‘llashni o‘rganadi.

Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, interaktiv metodlar qo‘llanilgan guruhda nutqiy faollik an’anaviy usullarga nisbatan 15-20% ga oshgani aniqlandi.

1-jadval. Tadqiqot jarayonida nutqni rivojlantirishda qo‘llanilgan interaktiv metodlarning samaradorligi

№	Metod nomi	Rivojlantirilgan ko‘nikma	Kuzatilgan natija (%)
1	Rolli o‘yinlar	Dialogik nutq, muloqotga kirishish	+18%
2	FSMU metodi	Mantiqiy fikrlash, monolog nutq	+15%
3	Vizual metodlar	Lug‘at boyligi, tushunish	+17%
4	Muammoli vaziyat (case)	Mustaqil fikrlash, nutqiy faollik	+16%
5	Raqamli texnologiyalar	Qiziqish va nutqiy ishtirok	+20%

Bu metodlar quyidagi pedagogik omillar bilan uyg‘unlashganda yuqori natija beradi:



3-chizma. Pedagogik omillar

Tadqiqotchi olim Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi” [5: 41]. Bu texnologiyalardan foydalanilganda o‘quvchilarning og‘zaki nutqida erkinlik, fikrni izchil bayon etish, lug‘at boyligidan foydalanish darajasi oshgani kuzatildi. Shuningdek,

psixologik to‘siqlar (tortinchoqlik, xatodan qo‘rquv) kamaygani aniqlandi.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim muhitida nutqni rivojlantirishning ajralmas qismiga aylandi. Tadqiqot davomida kuzatilganidek, raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligini an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli darajada oshirdi. Jumladan, Google Classroom platformasi orqali yozma nutq topshiriqlari va tezkor feedback tizimi joriy etilganda, o‘quvchilarning yozma nutq savodxonligi 17-19 foizga yaxshilandi. Kahoot va Quizizz kabi gamifikatsiya asosidagi platformalar esa leksik birliklarni o‘yinli muhitda mustahkamlash orqali so‘z boyligini rivojlantirishda samarali bo‘ldi. Elsa Speak ilovasi yordamida o‘tkazilgan talaffuz mashqlari esa fonetik komponentni rivojlantirishda, ayniqsa rus va tojik tilli o‘quvchilar uchun, interferensiyani kamaytirdi. Vigotskiy ta’kidlagan “yaqin rivojlanish zonasi” kontseptsiyasi nuqtayi nazaridan qaraganda, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar (ChatGPT, speech recognition) o‘quvchiga o‘z darajasiga mos individual korreksiya imkonini beradi va o‘qituvchi yukini kamaytiradi [2: 28]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga kiritishda “o‘qituvchi-moderator” filtrining zarurligi ham isbotlandi: texnologiya nutqiy xatolarni birlamchi saralasa, o‘qituvchi muloqot mantiqini va kommunikativ samaradorlikni yakuniy nazorat qiladi. Demak, raqamli texnologiyalarning nutq rivojiga ta’siri faqat vosita sifatida emas, balki to‘laqonli pedagogik yondashuv sifatida talqin etilishi lozim [6: 18-21].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nutqni rivojlantirish jarayoni ko‘p komponentli va integrativ tizim bo‘lib, uning samaradorligi lingvistik, psixologik, kommunikativ, metodik va madaniy omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqdir. O‘zga tilli o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda esa interferensiya, psixologik to‘siqlar va cheklangan lug‘at boyligi kabi muammolarni hisobga olish zarur [6: 18-21].

Shu bilan birga, kommunikativ yondashuvga asoslangan interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi va erkin muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Demak, nutqni rivojlantirish samaradorligi to‘g‘ri tanlangan metodika, qulay psixologik muhit va tizimli pedagogik yondashuv bilan ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Passov E.I. Kommunikativ metodika asoslari. – Moskva: Prosveshcheniye, 2017.

2. Leontyev A.A. Psixolingvistika asoslari. – Moskva: Smysl, 2003.

3. Muxitdinova X. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi. o‘quv qo‘llanma /– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

4. Asilova G.A. Bojxona va soliq yo‘nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish (rus guruhlarida): Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017.

5. Yo‘ldoshev R. Pedagogik texnologiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishi. – Toshkent, 2018.

6. Abdunazarova O. T. (2026). Nutqni rivojlantirish jarayonining mazmuni, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik omili va afzalliklari. Universum: Psixologiya va ta’lim , 2 (1 (139)), 18-21.

Raya JANDULLAEVA,
Qaraqalpog‘iston respublikasi Qanliko‘l tumani 14-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan usullar keltirilgan. Xususan, o‘quvchilar uchun darsdan tashqari kitob o‘qishning foydali darajasi va o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalariga ta’sir qiladigan eng samarali usullardan biri darsdan tashqari kitob o‘qish ekanligi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, hikoya, sarlavha, asar, bolani fikri, syujet, monologik nutq, reja tuzish.

В данной статье представлены методы, оказывающие положительное влияние на речевые навыки учащихся начальных классов. В частности, показана полезность внеклассного чтения для учащихся. Подчеркивается, что одним из наиболее эффективных методов, влияющих на речевые навыки учащихся, является внеклассное чтение.

Ключевые слова. Начальный класс, рассказ, заголовок, произведение, мнение ребенка, сюжет, монологическая речь, составление плана.

This article presents methods that have a positive impact on the speech skills of elementary school students. In particular, it demonstrates the benefits of extracurricular reading for students. It emphasizes that one of the most effective methods for improving students' speech skills is extracurricular reading.

Key words. Primary school, story, title, work, child's opinion, plot, monologue, outlining.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqining o‘sish darajasi to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o‘ynaydi. o‘quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so ‘zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o‘zaro bog‘liqligini yoritishga yunaltirilishi lozim. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o ‘zaro bog‘lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba’zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim.

Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har qaysi qismdagi

asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o‘tiladi, ya’ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o‘qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratliligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o‘ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o‘quvchilar topgan sarlavhani jam oaviy muhokam a qilish, reja tuzish jarayonining o‘zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o‘z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim. Asarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja xattaxtaga yozilsa, hikoya mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchillikda o‘zlashtirishdir. Reja asosida qayta hikoyalash o‘qituvchi savoliga javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning xiyla mustaqil shaklidir. 0 ‘qilgan asar m azm unini o‘zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich qisqartirib hikoyalash hisoblanadi.

Qisqartirib hikoyalash uchun 2–3 qismga bo‘linadigan, bu bo‘limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o‘rgatish quyidagicha uyushtiriladi: o‘qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo‘ygan qismini o‘qiydi va o‘quvchilar bilan birgalikda eng muhim , asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o‘quvchilar ba’zan asardagi so‘zlardan foydalanadilar. Bu o‘quvchilarga qiyinlik qilsa, bo‘limdagi asosiy fikrni o‘z so‘zlari bilan aytib berishlari mumkin. Keyin o‘quvchilar o‘qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o‘quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoya qiladilar. O‘qilgan asarni qisqartirib hikoya qilishga II sinfdan boshlab o‘rgatiladi. Tanlab hikoyalash ham bolalam ing tafakkuri va nutqini o‘stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o‘quvchi: 1) o‘qilgan matndan bir qism ini, lining chegarasini ongli ravishda ajratib so‘zlab beradi; 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; 3) hikoya m azm unini faqat bir sujet yo‘nalishida so‘zlab beradi. O‘quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang‘ich sinf izohli o‘qish darslarida keng qo‘llaniladigan metodik usullar yordam beradi: 1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash; 2) hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash; 3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish.

O‘quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o‘qilgan matnni tahlil qiladi. Bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o‘stiradi va o‘qilgan matn mazmunini o‘zlashtirishga yordam beradi. Hikoyani o‘qish bilan bog‘liq holda o‘tkaziladigan ijodiy ishlar ham o‘quvchilar nutqini, tafakkurini o‘stiradi. Bular: 1) ijodiy qayta hikoyalash; 2) inssenirovka qilish; 3) o‘qilgan asarga rasm chizish; 4) hikoyani davom ettirish. Ijodiy qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoyaning sharoiti yoki shaklini o‘zgartirib hikoya qilinadi. Bunda hikoyani yangi epizodlar bilan to‘ldirib hikoya qilish ham mumkin. Inssenirovka yoki sahnalashtirishda o‘quvchilar o‘qilgan hikoyani sahnabop qilib o‘zgartiradilar. Buning uchun ular hikoyaga ssenariy haqida, kiyim-kechaklari, qatnashuvchilarning imo-ishorasi haqida o‘ylaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar (bu tilni o‘rgatish nuqtai nazaridan eng muhim ish hisoblanadi). O‘qilgan hikoyaga rasm chizishda o‘quvchi rassomlar tom onidan chizilgan rasmlardan o‘qilgan asaming mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o‘zi rasm chizadi. Agar o‘quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o‘zi chizm oqchi bo‘lgan rasmni og‘zaki tasvirlab beradi, ya’ni so‘z bilan chizadi. O‘qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo‘llaniladi.

Metodikaning vazifalaridan biri STO‘ uchun kitoblar tanlash, o‘qiladigan adabiyotlar

ro‘yxatini tavsiya qilish, yillik o‘quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir. Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlashda quyidagi tam oyillarga amal qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko‘zda tutiladi. Bunda o‘quvchilarga vatanimiz o‘tmishi, mustaqillik uchun kurash, xalq qahramonlari, xalq turmushi haqidagi, oilada, maktabda va jamoat joylarida o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrab-avaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.

2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e ’tiborga olinadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, sh e’rlar, topishmoqlar, maqollarni o‘qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Kitobning o‘quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi. 1-sinfda kichik hikoya va ertaklarni o‘qish tavsiya etilsa, 2–4-sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro‘y berayotgan turli voqealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmli xabarlarni o‘qish ham tavsiya etilishi mumkin.

4. Kitob tanlashda o ‘quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o‘qishi hisobga olinadi.

Bunda o‘quvchilar o‘ziga qiziqarli bo‘lgan o‘zbek va xorijiy bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini o‘zi tanlashi muhim ahamiyatga ega. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi. Umuman olganda, kitobni to‘g‘ri tanlash sinfdan tashqari o‘qish muvaffaqiyatini ta’minlashning muhim shartidir. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o ‘quvchilar badiiy va ilmiy ommabop kitoblani mustaqil o‘qiy va tanlay oladigan, ularning m azm un-m ohiyatini tushunadigan bo‘lishlariga erishish lozim. Bu jarayonda o‘quvchilam ing faqat kitoblarninggina emas, balki gazeta va jurnallar mutolaasiga ham qiziquvchan faol kitobxon bo‘lishlariga e’tibor qaratiladi. Mavjud dasturlarda sinfdan tashqari o‘qish davomida o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bolalar yozuvchilarining asarlarini tanlay bilish, mustaqil o‘qigan kitoblarini, ulardagi qahramonlaming xattiharakatlarini baholash, asar sujetidagi muhim o‘rinlarni ajrata olish, sinfdan tashqari o‘qish kundaligi yuritish kabi ko‘nikmalarni egallash belgilab berilgan. Sinfdan tashqari o‘qish, o‘z navbatida, qiziqarli va o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, o‘quvchilam ing bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, kundalik hayotga faol munosabat uyg‘otadi. Shuning uchun ham bu xildagi darslaming qurilishi ham xilma-xil bo‘ladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilar o‘qigan kitoblari hisobga olinadi, yangi kitoblar tavsiya etiladi.

O‘quvchilarda muayyan mavzularda tavsiya etilgan asarlar ichidan kitob tanlash va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, ulami o‘qigan asari mazmunini qisqacha so‘zlab berishga o‘rgatish lozim. O‘qish mavzusi sinfda o‘qiladigan asarlar mavzusi bilan uyg‘unligiga, ta’lim-tarbiya birligiga, mavsumiy, bosqichli va bolalar qiziqishiga rioya qilgan holda belgilanadi hamda asarlar tanlanadi. Talabalarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda darsdan tashqari o‘qish usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Shuning uchun, bu usulni dars davomida qo‘llash har bir talabada ijobiy ta’sirga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma’qulova B., Nasriddinova D. Kitobim – oftobim (1-sinfdan tashqari o ‘qish kitobi). – T.: O‘qituvchi, N M IU , 2008.

2 . Boshlang‘ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari / Tuzuvchilar: Abdullayeva Q., Ochilov M., Nazarov K., Fuzailov S., Bikboyeva N. – T., 1994.

3. Yo‘ldoshev J. G‘.,Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004. 10. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish. – T.: O‘qituvchi, 1960.

4. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda imlosi qiyin so‘zlarni o‘rgatish. – T.: 1964.

Nargiza RAZOKOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, katta o‘qituvchi

AQLI ZAIF O‘QUVCHILAR MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING ADAPTIV-DIDAKTIK MODELI

Annotatsiya

Maqolada aqli zaif o‘quvchilarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va samarali pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda adaptiv-didaktik modelning tarkibiy qismlari, o‘quvchilarning intellektual darajasiga moslashtirilgan yondashuvlar va ularning ijtimoiy moslashuvdagi o‘rni yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Maxsus ta’lim, matematika, ta’lim, masala, metod, model, tadqiqot, analiz, sintez, texnologiya, individual, aqli zaif o‘quvchilar, harakat.

В данной статье анализируются специфические особенности и эффективные педагогические технологии формирования математических представлений у учащихся с умственной отсталостью. В исследовании освещены компоненты адаптивно-дидактической модели, подходы, адаптированные к интеллектуальному уровню учащихся, и их роль в социальной адаптации.

Ключевые слова. Специальное образование, математика, образование, задача, метод, модель, исследование, анализ, синтез, технология, индивидуальный, учащиеся с умственной отсталостью, действие.

This article analyzes the specific characteristics and effective pedagogical technologies for developing mathematical concepts in students with intellectual disabilities. The study highlights the components of an adaptive-didactic model, approaches tailored to students' intellectual levels, and their role in social adaptation.

Key words. Special education, mathematics, education, problem, method, model, research, analysis, synthesis, technology, individual, students with intellectual disabilities, action.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida inson qadri, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish ijtimoiy-siyosiy islohotlarning bosh mezoniga aylandi. Xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan “Inson qadri uchun” va “Davlat – inson uchun” degan ezgu tamoyillar jamiyatning har bir a’zosiga, xususan, alohida ko‘mak va e’tiborga muhtoj bo‘lgan qatlamlarga munosib sharoit yaratishni nazarda tutadi. Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”[1] asarida qayd etilganidek, madadga muhtoj insonlar va oilalarga chinakam ko‘mak va yordam berish, ularga mehr-oqibat ko‘rsatish bugungi hayotimizning bosh qoidasiga aylanib bormoqda.

Taraqqiyot strategiyasining to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan “adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” vazifasi ta’lim tizimi oldiga ham muhim talablarni qo‘ymoqda. Bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarni izchil isloh qilish sharoitida, jismoniy yoki psixologik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan (alohida ehtiyojli) bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta’lim muhitiga integratsiya qilish – ya’ni inklyuziv ta’limni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mazkur maqolada taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli ijtimoiy siyosat prinsiplari asosida, inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning pedagogik va korreksion qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash hamda

ularda ta’limiy tushunchalarni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

O‘zbekistonda ushbu sohaning yirik vakili bo‘lgan olim G‘.B. Shaumarov [2] va rus olimasi M.S. Pevznerlarning [3] ko‘p yillik fundamental tadqiqotlariga ko‘ra, aqli zaiflik – bu shunchaki intellektual qobiliyatlarning miqdor jihatdan vaqtincha kamligi yoki kechikishi emas, balki ona qornida yoki erta bolalik davrida bosh miya po‘stlog‘ining turli xil patogen omillar ta’sirida organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan, bola ruhiyati va psixikasining sifat jihatdan butunlay o‘ziga xos tarzda tizimli qayta qurilishini anglatuvchi barqaror holatdir.

Maxsus ta’lim tizimining hozirgi bosqichida imkoniyati cheklangan bolalarga sifatli ta’lim berish va ularni jamiyatga moslashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Matematika fani, ayniqsa, hayotiy masalalarni yechish bo‘limi, aqli zaif o‘quvchilarda tayanch o‘quv harakatlarini, xususan bilish va tartibga solish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Aqli zaif o‘quvchilar oliy ruhiy funksiyalarining rivojlanish xususiyatlari tufayli matematik bilimlarni o‘zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning tafakkuri konkret xususiyatga ega bo‘lib, analiz, sintez va umumlashtirish kabi operatsiyalar yetarli darajada rivojlanmagan. Adaptiv-didaktik model aynan mana shu nuqsonlarni korreksiyalash va o‘quv materialini bolaning individual imkoniyatlariga moslashtirishga qaratilgan.

Adaptiv-didaktik yondashuv doirasida tabaqalashtirishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

N.P. Pavlova pedagogik tabaqalashtirish tizimida o‘quvchilarni o‘quv faoliyatidagi mahsuldorligiga ko‘ra to‘rtta guruhga ajratadi va ularning har biri bilan qanday yondashish lozimligini o‘rganib chiqqan [4].

V.P. Simonovning yondashuviga ko‘ra, o‘quvchilarning matematik materialni o‘zlashtirish darajasi va bilimni qabul qilishning kognitiv mezonlari o‘sish tartibida besh bosqichga ajratiladi [5].

M.S.Pevzner o‘z tadqiqotlarida nuqsoni bor bolalarni o’qitish jarayonida topshiriqlarning xususiyatiga ko‘ra tabaqalashtirish mezonlarini taklif etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quv materiallarini tanlash uchta muhim komponent orqali namoyon bo‘ladi [6]:bular murakkablik darajasi, hajm mezoni, bajarilish shakli orqali.

Shuningdek, tabaqalashtirishda o‘quvchining intellektual nuqsoni darajasi (yengil yoki o‘rta darajadagi aqli zaiflik) asosiy klinik mezon bo‘lib xizmat qiladi, chunki bu darajalar o‘quv harakatlarining shakllanish sur’ati va muddatlarini belgilab beradi.

Kairova L.A. Aqli zaif bolalarga matematikani o‘qitishda o‘qituvchi faoliyatidagi o‘zgarishlarni o‘rganib tavsiyalar bergan [7].

Кузьмина-Сыромятникова Н.В. Aqli zaif bolalarga matematikani o‘qitishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanishni targ‘ib qilgan.

Matematik tasavvurlarni shakllantirish modeli faoliyatli yondashuv va aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi adaptiv metodlardan foydalanildi:

Bosqichma-bosqich o‘qitish texnologiyasi: Dastlabki bosqichda matematik va nutq tayyorgarligi amalga oshiriladi. Nutqiy tayyorgarlik matematik yuklamaga ega bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini tushuntirishni o‘z ichiga oladi.

Masala mazmunini narsalar, rasmlar yoki sxematik tasvirlar yordamida ko‘rsatish. Smart Board kabi texnik vositalardan foydalanish vaziyatni dinamikada tushunishga yordam beradi.

O‘quv materialini soddadan murakkabga qarab, doimiy takrorlash asosida kengaytirib borish kerak. Individual va tabaqalashtirilgan yondashuvda esa: O‘quvchilarni bilish imkoniyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish va har bir guruh uchun o‘quv materialining hajmi hamda murakkabligini moslashtirish lozim. Taniqli olim D.L. Ferguson o‘zining xalqaro ta’lim tendensiyalariga bag‘ishlangan yirik tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, inklyuziv ta’limning jamiyat oldidagi asosiy chaqirig‘i “har bir o‘quvchini va barchani birdek o‘qitishda davom etish” hamda ta’lim sifatini hammaga bir xil darajada, lekin turlicha yondashuvlar orqali ta’minlashdan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning qo‘llanilishi natijasida aqli zaif o‘quvchilarning matematik tasavvurlarida ijobiy dinamika kuzatildi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Eksperimental o‘qitishdan so‘ng o‘quvchilarning tartibga solish harakatlari 1,7 baravarga, bilish harakatlari esa 1,5 baravarga oshdi.[4] Yengil aqli zaif o‘quvchilar uchinchi sinfga kelib matematik masalalarni yechishda yuqoriroq natija ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘rta darajadagi aqli zaif bolalarda bu jarayon ancha kech va sekin amalga oshishi aniqlandi.

Amaliy mashg‘ulotlar (yasash, o‘lchash, chizish) orqali o‘zlashtirilgan ma’lumotlarning 70% gachasi o‘quvchilar xotirasida saqlanib qolishi isbotlandi.

Aqli zaif o‘quvchilar tafakkurining konkretligi va vaziyatga bog‘liqligi, ularda matematik masalalarni yechishda modellashtirish usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Quyida shunaqa o‘quvchilar uchun matematik masalalarni modellashtirishning asosiy usullari keltirilgan:

1. Narsaviy-amaliy modellashtirish. Bu usul masalaning mazmunini real narsalar yoki atrof-muhitdagi ob’ektlar yordamida aks ettirishni anglatadi.

Predmetli harakatlar: Masala shartini narsalar bilan bevosita manipulyatsiya qilish orqali ko'rsatish (masalan, savatchaga olma solish yoki olish).

Sanoq tayoqchalari: Ikki xonali sonlarni modellashtirishda tayoqchalar dastasidan foydalanish o'quvchilarga sonning tarkibini vizual tushunishga yordam beradi.

Hayotiy vaziyatlar: “Polizni sug'orish" yoki “Do'konga borish” kabi kundalik hayot ssenariylarini modellashtirish orqali arifmetik amallar mazmuni tushuntiriladi.

2. Grafik va sxematik modellashtirish. Aqli zaif bolalarga narsaviy idrokdan mavhum tushunchalarga o'tishda yordam beradi.

Sxemalarga asoslangan o'qitish: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sxemalar yordamida masalalarni yechish umumiy strategiyalarga qaraganda ancha samaraliroqdir.

Chizmalar va diagrammalar: Masala shartini qisqa yozuv, jadval yoki grafik tasvirlar (masalan, doiraviy yoki ustunli diagrammalar) ko‘rinishida ifodalash.

Rangli belgilash: Masala savollarini ranglar bilan ajratib ko‘rsatish o‘quvchining diqqatini asosiy maqsadda jamlashga yordam beradi.

3. Dinamik va texnik modellashtirish. Zamonaviy vositalar masaladagi vaziyatni harakatda ko‘rsatish imkonini beradi. Smart Board (Interaktiv doska): Bu texnologiya yordamida masalaning shartini dinamikada ko‘rsatish o‘quvchilarga vaziyatni yaxshiroq anglash imkonini beradi.

4. Dramatizatsiya usuli. Masala shartini o‘yin yoki kichik sahna ko‘rinishi shaklida ijro etish. Masala-dramatizatsiyalar: O‘quvchilar masaladagi “personajlar” rolini o‘ynaydilar, bu esa ularga miqdoriy o‘zgarishlarni bevosita his qilishga yordam beradi. Rolli o'yinlar: Masalaning shartini syujetli-rolli o‘yinning bir qismi sifatida modellashtirish.

Adaptiv-didaktik modelning samaradorligi o‘quv materialining hayot bilan bog‘liqligi va ko‘rsatmaliligi bilan belgilanadi. Aqli zaif bolalar uchun matematik termino-

logiyaning konkret tasavvurlardan uzilib qolishi bilimlarni o‘zlashtirmaslikka olib keladi. Shuning uchun o‘qitish jarayonida o‘quvchining shaxsiy tajribasiga tayanish zarur. Masalan, foiz mavzusini o‘rganishdan oldin uning kundalik hayotdagi (ish haqi, bank hisobi) ahamiyatini tushuntirish motivatsiyani oshiradi.

Modelning adaptivligi nafaqat mazmunni soddalashtirishda, balki o‘quv muhitini to‘g‘ri tashkil etishda ham namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarga topshiriqlarni ‘‘kichik qismlar’’ metodi bilan berish va ularning charchash darajasini hisobga olish darsning samaradorligini ta’minlaydi. Shuningdek, matematik bilimlarni mehnat ta’limi, rasm chizish va boshqa fanlar bilan integratsiya qilish o‘quvchida yaxlit obraz shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, aqli zaif o‘quvchilarga matematika o‘qitish jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu nafaqat akademik bilimlarni berish, balki bolaning intellektual va emotsional-irodaviy sohasidagi nuqsonlarni tuzatishning (korreksiya) eng muhim vositasidir. Taklif etilayotgan adaptiv-didaktik model o‘quvchilarning psixofizik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv materialini ularning imkoniyatlariga moslashtirishga asoslanadi.

Ushbu modelning samaradorligi quyidagi asosiy xulosalar bilan belgilanadi:

Korreksion-rivojlantiruvchi yo‘nalish: Matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash operatsiyalari tahlil, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabilari maqsadli ravishda rivojlanadi. Matematik obyektlarning mavhumligini amaliy-predmetli faoliyat bilan bog‘lash orqali bolaning idrok etish qobiliyati faollashadi.

Har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari va “yaqin rivojlanish zonasi”dan kelib chiqib, o‘quv talablarini tabaqalashtirish zarur. Adaptiv model o‘quv materialini kichik “porsiyalar” bilan berish, ko‘rgazmalilikdan keng foydalanish va bilimga erishishning induktiv yo‘lini (xususiy misollardan umumiy qoidalarga) ko‘zda tutadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot stratigiyasi” To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. -416 bet.

2. Певзнер М.С. Дети-олигофрены: Изучение детей-олигофренов в процессе их воспитания и обучения / М.С. Певзнер. – М.: Просвещение, 2011. – 256 с.

3. Перова М.Н. “Методика преподавания математики в специальной (коррекционной) школе” VIII вида: Учеб, для студ. дефект, фак. педвузов. – 4-е изд., перераб. – М.: Гуманит. изд. ' центр ВЛАДОС, 2001. – 408 с.: ил. – (Коррекционная 1 педагогика)

4. Методические рекомендации по организации урочной деятельности обучающихся с умственной отсталостью / авторы-составители Вишнякова Е.А., О.А. Притужалова. – Липецк: ГАУДПО ЛО «ИРО», 2019. – 122 с.

5. Журавлева Е. Ю., Шевченко Л. Е. “Математическое образование детей с ментальными нарушениями в условиях инклюзии”. Часть 1: Учебно-методическое пособие / Е.Ю. Журавлева Л.Е. Шевченко. – ГБОУ ИРО Краснодарского края, 2023. – 108 с.

6. Кузьмина-Сыромятникова Н.В. “Методика арифметики во вспомогательной школе” Изд.2-э,-М.,1949.

7. Каирова Л.А. Коррекционно-развивающие технологии в обучении математике: учебной пособие. Барнаул: АлтГПУ, 2016.-91с

Barchinoy JO‘RAEVA,
Qarshi davlat texnika universiteti, v.v.b. dosent

YO‘L QURILISH CHIZMALARINING TURLARI (PLAN, PROFIL, KESIM) VA ULARNING MUHANDISLIK LOYIHALASH JARAYONIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada avtomobil yo‘llarini loyihalashda muhandislik grafikasining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan plan, bo‘ylama profil va ko‘ndalang kesim chizmalarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda chizmalarni o‘qish va qurish metodikasi, masshtab tanlash qonuniyatlari hamda zamonaviy loyihalash tizimlaridagi o‘rni ilmiy asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Muhandislik grafikasi, yo‘l loyihalash, plan, bo‘ylama profil, ko‘ndalang kesim, BIM texnologiyalari, masshtab, shartli belgilar.

В данной статье анализируется взаимосвязь между основными компонентами инженерной графики при проектировании автомобильных дорог: планом, продольным профилем и поперечным сечением. В исследовании научно обоснованы методика чтения и построения чертежей, закономерности выбора масштаба, а также роль современных систем проектирования.

Ключевые слова. инженерная графика, проектирование дорог, план, продольный профиль, поперечное сечение, BIM-технологии, масштаб, условные обозначения.

This article analyzes the interrelationship between the main components of engineering graphics in highway design: the plan, longitudinal profile, and cross-section drawings. The research scientifically substantiates the methodology of reading and constructing drawings, the laws of scale selection, and the role of modern design systems.

Key words. Engineering graphics, road design, plan, longitudinal profile, cross-section, BIM technologies, scale, conventional symbols.

Zamonaviy transport infratuzilmasini loyihalashda grafik ma’lumotlarning aniqligi va ularni o‘qish ko‘nikmasi muhandislik faoliyatining fundamental asosi hisoblanadi. “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fani doirasida yo‘l qurilish chizmalarini o‘rganish, nafaqat chizish texnikasini, balki uch o‘lchamli obyektni tekislikda loyihalash mantiqini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida loyiha hujjatlarining sifati bevosita qurilishning iqtisodiy samaradorligini belgilaydi. Muhandislik grafikasi fani doirasida yo‘l qurilish chizmalari shunchaki tasvirlash vositasi emas, balki murakkab muhandislik inshootining geometrik modeli hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning kirib kelishi chizmalarni yaratish va o‘qish jarayonlariga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Yo‘l loyihalash hujjatlarini yaratishda Muhandislik va kompyuter grafikasi fanining nazariy asoslari hamda zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (CAD) imkoniyatlaridan kompleks foydalanish transport sohasi rivoji uchun ham ilmiy, ham amaliy jihatdan o‘ta dolzarbdir. Yo‘l elementlarini proyeksiyalashda Muhandislik va kompyuter grafikasi fanining qonuniyatlari asosida chizmalarni raqamli modellashtirish, loyiha yechimlarining aniqligini ta’minlash va muhandislik hujjatlarini shakllantirish jarayonlarini optimallashtirish bugungi kunda soha mutaxassislari oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi – avtomobil yo‘llarining geometrik parametrlarini grafik

tasvirlash metodologiyasini takomillashtirish hamda kompyuter grafikasi vositalari yordamida yo‘l qurilish chizmalarining (plan, profil, kesim) o‘zaro bog‘langan dinamik modelini yaratish tamoyillarini asoslab berish. Talaba va mutaxassislarda chizmalarni o‘qish (dekorodlash), ya’ni shartli grafik belgilardan ob’ektning fazoviy obrazini tasavvur qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish, ya’ni faqat chizmani chizishni o‘rgatish emas, balki chizmadagi grafik ma’lumotni tahlil qilish orqali “loyihani ko‘ra olish” (muhandislik tafakkuri) qobiliyatini shakllantirishdir.

Mazmun-mohiyati va ilmiyligi: Maqolada chizmalarning har bir turi alohida-alohida va yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqilgan. Xususan, relyef sharoitidan kelib chiqib profil chizig‘ini optimallashtirish va ko‘ndalang kesim orqali konstruktiv qatlamlarni aniq belgilashning ilmiy-nazariy asoslari keltirilgan. Maqolada loyihalashning an’anaviy usullaridan avtomatlashtirilgan tizimlarga o‘tishning afzalliklari maqullanadi.

Avtomobil yo‘li murakkab fazoviy obyekt bo‘lib, Muhandislik grafikasida bu yo‘l obyekti uch o‘lchamli fazoviy jism hisoblanib, uning to‘liq geometriyasini ifodalash uchun uchta asosiy ko‘rinish uyg‘unlikda o‘rganiladi:

1. Plan (Yo‘ldan yuqoridan ko‘rinish): Yo‘lning tekislikdagi gorizontal proyeksiyasi. Planning asosiy vazifasi yo‘lning yo‘nalishini (trassasini) va yo‘lning geografik o‘rnini, burilish burchaklarini va relyefga (gorizontallarga) nisbatan joylashishini belgilash. Yo‘l planning asosi – trassadir. Trassa yo‘l o‘qining yer sirtidagi vaziyatini belgilaydi. Planda yo‘lning barcha burilishlari, radiuslari, muhandislik inshootlari (ko‘priklar, quvurlar) va yo‘l bo‘yi infratuzilmasi aks etadi. Planning grafik ifodasi proyeksion chizmachilikning sonli belgili proyeksiyalar usuliga asoslanadi.

Quyida tahlil etiladigan chizmada shimol yo‘nalishi va piketajlar (PK) orqali masofalar aniq ko‘rsatiladi. PK-(piket) – yo‘l bo‘ylab har 100 metrga qo‘yiladigan belgi. PK10 – 10 ta piket (ya’ni 10 × 100 = 1000 metr).

2. Uzunlamas-bo’ylama profil (Yon tomondan ko‘rinish): Yo‘l o‘qi bo‘ylab vertikal kesim. Bo‘ylama profil trassa bo‘ylab yer yuzasining relyefini va loyihaviy vertikal chiziqni ko‘rsatadi. Ushbu chizma yo‘lning balandlik bo‘yicha geometriyasini belgilaydi. Profilning muhandislik ahamiyati shundaki, unda “ishchi belgilar” (loyiha balandligi va yer balandligi farqi) orqali yer ishlari hajmi aniqlanadi. Profilning o‘ziga xosligi shundaki, relyef o‘zgarishlarini vizual aniq ko‘rish uchun vertikal masshtab gorizontal masshtabdan 10 barobar kattaroq qilib tanlanadi (masalan, 1:500 va 1:5000).

3. Ko‘ndalang kesim (Tipik kesim): Yo‘l o‘qiga perpendikulyar bo‘lgan vertikal kesim. Yo‘l kiyimi konstruksiyasini yoritib beruvchi ushbu qismda qatnov qismi soni, kengligi, yelkalar va nishabliklar, yo’lovchi, velosiped yo‘lagi, drenaj ko‘rsatiladi. Bu yerda konstruksion elementlarning (asfalt, shag‘al, tuproq) maxsus grafik shtrixovkalar yordamida ifodalanishi loyihaning “o‘qiluvchanlik” darajasini oshiradi.

Masshtab tanlash va grafik ifodalash

Masshtab – chizmada tasvirlangan o‘lchamning haqiqiy o‘lchamiga nisbati.

Muhandislik grafikasida masshtab axborotning o‘qilishiga bevosita ta’sir qiladi.

Yo‘l qurilish chizmalarida quyidagi masshtablardan foydalaniladi:

Gorizontal chizmalar ya’ni planlar uchun masshtab

Masshtab	Qo‘llanish sohasi
1:500	Shahar yo‘llari, murakkab kesishishlar
1:1000	Shahar va shahar atrofi yo‘llari

1:2000	Tashqi yo‘llar, avtomagistralar
1:5000	Umumiy rejalar, sxemalar
1:10000	Xududiy rejalar, tarmoq sxemalari

Bo‘ylama profillar uchun masshtab

Gorizontal	Vertikal	Qo‘llanish sohasi
1:500	1:50	Shahar yo‘llari
1:1000	1:100	Tashqi yo’llar
1:2000	1:200	Avtomagistralar
1:5000	1:500	Umumiy profillar

Relyefdagi kichik o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun vertikal masshtab (masalan, 1:500) gorizontal masshtabdan (1:5000) 10 barobar kattaroq olinadi. Bu “Muhandislik grafikasi” fanining o‘ziga xos usuli bo‘lib, balandliklar farqini vizual bo‘rttirib ko‘rsatadi.


Ko‘ndalanr kesimlar uchun masshtab:

Ko‘ndalang kesimlar chizmalarida detallashtirish uchun odatda 1:50, 1:100 yoki 1:200 masshtablardan foydalaniladi. Kesim chizmalarida gorizontal va vertikal masshtabl bir xil bo’lishi kerak.

Masshtab tanlashda quyidagi omillar hisobga olinadi: yo’lning muhimligi, chizma tafsilotlari darajasi, chizma hajmi va boshqa omillar.

Metologiya, amaliy tahlil va natija

Maqolada taklif etilayotgan yondashuvning asosi – yo‘l qurilish chizmalarini shunchaki chizish emas, balki ularni kompleks grafik interpretatsiya qilish hisoblanadi. Tadqiqot natijasi sifatida ishlab chiqilgan grafik model loyihani o‘qish va tahlil qilishni soddalashtiradi.



Avtomobil yo‘lining kompleks muhandislik-grafik modeli”

1. Plan, profil va kesimning proyeksion bog‘liqligi (Chizmani o‘qish tahlili)

Chizmalarni o‘qish – bu tayyor grafik tasvirdan obyektning fazoviy obrazini tik-

lash jarayonidir. Maqolada ushbu chizmani o‘qish metodikasi quyidagi bosqichlarda tushuntiriladi:

– Plandan profilga o‘tish: Plandagi (1-rasm) piketlar (PK 0+00 dan PK 10+00 gacha) uzunlamas profilning (2-rasm) gorizontal o‘qiga proyeksiyalanadi. Bunda talaba plandagi yo‘l yo‘nalishining (trassa) relyef bilan bog‘liqligini ko‘radi.

– Uzunlamas - bo‘ylama profilning grafik tahlili: Uzunlamas profilda qizil (loyiha) va qora (mavjud yer) chiziqlarning kesishishi orqali “nol nuqtalarini” aniqlash ko‘rsatiladi. Bu – muhandislik grafikasidagi ikki sirtning kesishish chizig‘ini qurish usuliga misol bo‘ladi.

– Ko‘ndalang kesimning roli: Tipik kesimda (3-rasm) yo‘lning konstruktiv qatlamlari (asfalt, shag‘al, tuproq) vizuallashtirilgan. Bu yerda masshtab va qatlamlar qalinligini chizmada aniq ko‘rsatish metodikasi yoritiladi.

Chizmani o‘qish bo‘yicha amaliy misol:

Chizmadagi PK 4+00 (4-piket) nuqtasini tahlil qilamiz:

Planda: Yo‘l bu nuqtada to‘g‘ri yo‘nalishda ketyapti, yaqinida 115-120 m lik gorizontallar mavjud.

Bo‘ylama profilda: PK 4+00 nuqtasida loyiha balandligi 104,40 m, yer balandligi esa 102,40 m. Demak, bu yerda 2 metrli ko‘tarma (nasip) hosil qilinishi grafik usulda o‘z tasdig‘ini topgan.

Ko‘ndalang kesimda: Bu balandlikka erishish uchun yo‘l cheti 1:1,5 qiyalikda (otkos) pastga qarab chizilgan.

2. Konstruktsion elementlarning chizmalarda aks etishi

Chizmalarni o‘qishda konstruktiv qatlamlar (3-chizmadagi yo‘l kiyimi) muhim rol o‘ynaydi. Shuni ta’kidlash kerakki:

Grafikada qatlamlar turli shtrixovkalar orqali ajratiladi (asfalt – zich nuqtalar, shag‘al – doirachalar).

Har bir qatlamning qalinligi (masalan, asfalt 5 sm, shag‘al-sement 20 sm) chizmadagi maxsus “bayroqcha” yozuvlarida aniq ko‘rsatilishi shart.

3. Maqolaning ilmiyligi va natijasi

Tadqiqot natijasida chizmalarni o‘qishni osonlashtiruvchi “Vizuallashtirish algoritmi” - turli chizmalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishni taklif etiladi:

Chizma turi	Grafik funksiyasi	O‘qishda nimalarga e’tibor berish kerak?
Plan	Gorizontal proyeksiyalash	Yo‘l o‘qi koordinatalari, gorizontallar (relyef) va shartli belgilar.
Bo‘ylama profil	Vertikal kesim	Loyiha nishabligi *i*, ishchi belgilar va ko‘tarma, pasayish, o‘yiqlarning o‘zaro nisbati.
Ko‘ndalang kesim	Detallashtirish	Yo‘l kengligi, yelkalar va yo‘l kiyimi qatlamlarining ketma-ketligi.

Uch turdagi chizmalarning bir-biriga bog‘liqligida muhandislik grafikasining mantiqiy zanjiri quyidagicha shakllanadi:

– Plan → Profil: Plandagi trassa uzunligi profilning gorizontal o‘qini shakllantiradi.

– Profil → Kesim: Profil orqali aniqlangan ishchi belgi (ko‘tarma yoki o‘yiq balandligi) ko‘ndalang kesimning yon qiyaliklari (otkoslari) uzunligini belgilaydi.

– Plan → Kesim: Plandagi burilish radiusi kesimda “viraj” (bir tomonlama qiyalik) qurilishini talab etadi.

4. Amaliy natija va foydalanuvchilar uchun qulaylik

Tavsiya etilayotgan ushbu chizma vizual jihatdan “sodda va mantiqiy bog‘langan” bo‘lib, u:

– Muhandislik grafikasini o‘rganayotgan talabalarga chizmalar o‘rtasidagi geometrik bog‘liqlikni tez tushunish imkonini beradi.

– Kompyuter grafikasida (CAD dasturlarida) loyihalash jarayonida xatoliklarni 20-25% gacha kamaytirishga xizmat qiladi, chunki har bir nuqtaning uchala chizmadagi o‘rni (X, Y, Z koordinatalari) bir-birini nazorat qiladi.

– Taqdim etilgan kompleks chizma (1-rasm) asosida PK 4+00 nuqtasini tahlil qilaylik. Plandagi gorizontallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu nuqtada yer sathining balandligi 102,40 m ni tashkil etadi. Biroq, muhandislik talablaridan kelib chiqib, loyiha balandligi 104,40 m qilib belgilangan.

Natija: Ikki balandlik o‘rtasidagi farq (2 metr) ushbu hududda “ko‘tarma” (nasip) ishlari bajarilishi kerakligini vizual va raqamli tarzda isbotlaydi. Bu muhandislik grafikasidagi “chizmani o‘qish orqali xulosaga kelish” metodikasining amaliy ifodasidir.

Taklif etilayotgan vizual model foydalanuvchilar uchun quyidagi qulayliklarni yaratadi:

Grafik interpretatsiya: Talabalar uchun loyihani 3D shaklda tasavvur qilish vaqtini 30 foizga qisqartiradi.

Xatolarni nazorat qilish: Plan, profil va kesimdagi ma’lumotlarning o‘zaro muvofiqligi (X, Y, Z koordinatalari) muhandislik xatolarini minimallashtiradi.

Integratsiyalashgan o‘qitish: “Muhandislik grafikasi” fanida chizmalarni alohida-alohida emas, balki “Yagona muhandislik obyekti” tamoyili asosida o‘qitishni joriy qilish. Bunda talaba bitta detalni emas, butun bir yo‘l bo‘lagini (plan-profil-kesim bog‘liqligida) loyihalashi lozim.

Vizual savodxonlikni oshirish: Talabalarda “chizmadan ob’ektni ko‘ra olish” qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘quv jarayoniga VR (Virtual borliq) texnologiyalarini kiritish. Bu chizmadagi 2D chiziqlarni 3D fazoda his qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, avtomobil yo‘llari chizmalari o‘zaro dinamik bog‘liqlikka ega bo‘lgan murakkab grafik tizimdir. Avtomobil yo‘llarini loyihalashda plan, profil va ko‘ndalang kesim chizmalarini yaxlit tizim sifatida o‘rganish o‘ta muhimdir. Ushbu uchta chizma o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishi, ya’ni bunda barcha muhandislik chizmalari o‘zaro integratsiya qilinishi zamonaviy texnologiyalarining asosi hisoblanadi. Keltirilgan grafik yondashuv yo‘l qurilishida loyiha hujjatlarini nafaqat chizish, balki ularni fazoviy tasavvur asosida tahlil qilish va “o‘qish” madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda ushbu kompleks yondashuvni qo‘llash kelajakda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayev N.N. Muhandislik grafikasi: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 240 b.

2. Soliyev A.A., Karimov R. Avtomobil yo‘llarini loyihalashning innovatsion usullari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 186 b.

3. To‘rayev J. Chizmachilik va muhandislik grafikasi (Yo‘l qurilishi ixtisosliklari uchun). – Samarqand: “Samo”, 2020. – 154 b.

4. Eastman C., Teicholz P. BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling. – New York: Wiley, 2018. – 480 p.

5. Polshikov M. CAD systems in Road Engineering. – Moscow: “Mashinostroyeniye”, 2022. – 310 p.

Gulnoza MATYAKUBOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta’lim fakulteti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi, v.v.b.dotsenti

ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING ILMIY IJODIY KOMPETENSIYASINI DIAGNOSTIKA QILISH

Annotatsiya

Maqolada “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanini o‘qitishda talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini diagnostika qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida talabalarning ilmiy tafakkuri, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, kreativ yondashuvi hamda mustaqil ilmiy faoliyatga tayyorlik darajasi anketa-so‘rovnoma va pedagogik kuzatish metodlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ilmiy ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali omili ekanligi asoslab berildi.

Tayanch so‘zlar. Ilmiy ijodiy kompetensiya, ilmiy tadqiqot metodologiyasi, diagnostika, kreativ fikrlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, refleksiv ta’lim, muammoli ta’lim, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogika.

В данной статье освещаются вопросы диагностики научно-творческой компетентности студентов в процессе преподавания дисциплины «Методология научного исследования». В ходе исследования уровень научного мышления студентов, их исследовательские навыки, креативный подход и готовность к самостоятельной научной деятельности были проанализированы на основе анкетирования и методов педагогического наблюдения. Также обосновано, что использование интерактивных методов, цифровых технологий и инструментов искусственного интеллекта является эффективным фактором развития научно-творческой компетентности.

Ключевые слова. Научно-творческая компетентность, методология научного исследования, диагностика, креативное мышление, исследовательские навыки, рефлексивное обучение, проблемное обучение, искусственный интеллект, цифровые технологии, инновационная педагогика.

This article discusses the issues of diagnosing students’ scientific and creative competence in teaching the subject “Research Methodology.” During the study, students’ scientific thinking, research skills, creative approach, and readiness for independent scientific activity were analyzed through questionnaires and pedagogical observation methods. In addition, it was substantiated that the use of interactive methods, digital technologies, and artificial intelligence tools is an effective factor in developing scientific and creative competence.

Key words. Scientific and creative competence, research methodology, diagnostics, creative thinking, research skills, reflective learning, problem-based learning, artificial intelligence, digital technologies, innovative pedagogy.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimi oldiga raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyor mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. Zamonaviy jamiyatda talabalarning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, balki ilmiy muammolarni tahlil qilish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, ijodiy yondashuv asosida ilmiy yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan ilmiy ijodiy kompetensiya oliy ta’limning ustuvor pedagogik kategoriyalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini shakllantirishda “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fani alohida o‘rin tutadi. Ushbu fan talabalarda ilmiy

tafakkur, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, analitik va tanqidiy fikrlash, ilmiy muammolarni aniqlash hamda ularni ilmiy asosda hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda ushbu fan doirasida talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini aniqlash, baholash va diagnostika qilish mexanizmlari yetarli darajada takomillashmaganligi kuzatilmoqda. Natijada talabalarning ilmiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini obyektiv baholashda ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy ijodiy kompetensiyani diagnostika qilish mezonlari, indikatorlari va baholash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, integrativ-pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda kompetensiyaviy ta’lim asosida talabalarning ilmiy salohiyatini aniqlash masalalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.


Ilmiy adabiyotlarda “ilmiy ijodiy kompetensiya” tushunchasi shaxsning ilmiy muammolarni mustaqil aniqlash, tahlil qilish, ilmiy farazlarni ilgari surish, tadqiqot metodlarini tanlash hamda innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlari bilan izohlanadi. J.Raven kompetensiyani shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishiga xizmat qiluvchi integrallashgan bilim, ko‘nikma va motivatsion omillar tizimi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, A.V.Xutorskoy kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim natijalarini amaliy faoliyat bilan bog‘lovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida baholaydi. Pedagogik tadqiqotlarda talabalarning ilmiy ijodkorligini rivojlantirishda muammoli ta’lim, interaktiv metodlar hamda refleksiv yondashuvlarning samaradorligi alohida ta’kidlanadi. Xususan, V.Okon muammoli ta’lim texnologiyasi talabalarning analitik va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini asoslab bergan. J.Dyui esa ta’lim jarayonida tajriba va refleksiya uyg‘unligi ilmiy tafakkurning shakllanishida muhim omil ekanligini qayd etadi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarning ilmiy faoliyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Tadqiqotchilar sun’iy intellekt asosidagi platformalar ilmiy axborotlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni qayta ishlash va kreativ g‘oyalarni shakllantirishda samarali vosita ekanligini ta’kidlamoqda. Ayniqsa, ChatGPT, DeepSeek va boshqa SI vositalari ilmiy tadqiqot metodologiyasini o‘qitishda innovatsion yondashuv sifatida ko‘rilmoqda.

Diagnostika jarayonida talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasiga bo‘lgan munosabati, ilmiy tadqiqot faoliyati haqidagi bilimlari, ilmiy muammolarni aniqlash va tahlil qilish ko‘nikmalari, shuningdek, tadqiqotchilik faoliyatida innovatsion va kreativ yondashuvlardan foydalanish darajasi kompleks tarzda o‘rganildi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ilmiy fikrlash darajasi, ilmiy izlanishga bo‘lgan motivatsiyasi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishga tayyorlik ko‘rsatkichlari ham tahlil qilindi. Diagnostik tadqiqotlar jarayonida anketa-so‘rovnomalar, pedagogik kuzatish hamda refleksiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Anketa va testlar orqali talabalarning ilmiy tadqiqot metodologiyasiga oid nazariy bilimlari hamda ilmiy ijodiy kompetensiyasining dastlabki darajasi aniqlangan bo‘lsa, suhbat va kuzatish metodlari yordamida ularning ilmiy tafakkuri, analitik yondashuvi, pedagogik muloqot madaniyati hamda amaliy faoliyatdagi tadqiqotchilik ko‘nikmalari baholandi.

Anketa-so‘rovnoma tahlili


Anketa-so‘rovnoma tahlili

Sizningcha, “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanini o‘qitishda quyidagi faoliyatlardan qaysilari talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi?

A. Ilmiy maqola va tezis yozish mashg‘ulotlari	
B. Muammoli vaziyatlar asosida ilmiy tahlil topshiriqlari	
C. Innovatsion loyiha va startaplar ishlab chiqish	
D. Guruhli ilmiy munozara va debatlar tashkil etish	
E. Raqamli platformalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish	
F.Mustaqil tadqiqot va prezentatsiyalar tayyorlash	


Talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda qaysi omillar muhim deb hisoblaysiz?

Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish	86	26%
Ilmiy rahbar va o‘qituvchilarning metodik ko‘magi	75	23%
Ilmiy konferensiya, loyiha va tanlovlarda ishtirok etish	57	17%
Mustaqil ilmiy izlanish olib borish imkoniyati	50	15%
Ilmiy tadqiqot metodologiyasiga oid nazariy bilimlar	50	15%
Boshqa: _____	16	5%






Quyidagi faoliyatlardan qaysilari talabalarda ilmiy ijodiy kompetensiyani kuchaytiradi deb o‘ylaysiz?

Sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida tadqiqot olib borish
Guruhiy ilmiy munozara va debatlar tashkil etish
Ilmiy seminar va konferensiyalarda qatnashish
Ilmiy maqola va tezislar yozish



Talabalarda ilmiy ijodiy kompetensiyani shakllantirish uchun qaysi pedagogik yondashuvlarni muhim deb hisoblaysiz?

Refleksiv ta’lim yondashuvi	
Mustaqil ilmiy izlanish va kreativ topshiriqlarni ko‘paytirish	
Interaktiv metodlar va guruhiy ishlardan foydalanish	
Muammoli ta’lim texnologiyasi	
Sizningcha, o‘qituvchining qaysi fazilatlari talabalarda ilmiy ijodiy kompetensiyani shakllantirishga kuchli ta’sir qiladi?	
A. Ilmiy salohiyat va tadqiqotchilik tajribasi	
B.Kreativ va innovatsion fikrlashi	
D.Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilishi	
E.Ilmiy muloqot va motivatsiya bera olish qobiliyati	
Sizningcha, qaysi omillar talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin?	
Mustaqil ilmiy izlanishlar uchun imkoniyatlarning cheklanganligi	
Amaliy tadqiqot faoliyatining yetarli tashkil etilmaganligi	
Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan kam foydalanilishi	
Ilmiy rahbar va o‘qituvchilarning metodik qo‘llab-quvvatlashi yetarli emasligi	
Kreativ va tanqidiy fikrlash muhitining sustligi	
Talabalarda ilmiy motivatsiyaning pastligi	

Anketa-so‘rovnoma natijalari talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini shakllantirishga oid nazariy qarashlari, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi, mustaqil izlanishga tayyorlik darajasi hamda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini berdi. Jumladan, respondentlarning ilmiy muammolarni aniqlash, ilmiy axborotlarni tahlil qilish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va tadqiqot metodlaridan foydalanishga oid bilim hamda tasavvurlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari ayrim talabalarda ilmiy faoliyatga qiziqish yuqori ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ilmiy ijodkorlikni amaliy faoliyatda namoyon etish, mustaqil tadqiqot olib borish hamda ilmiy xulosalarni asoslash ko‘nikmalarida yetarli darajada shakllanmagan jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanini o‘qitishda talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqladi. Diagnostik tahlillar asosida talabalarning ilmiy tafakkuri, tadqiqotchilik faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi, kreativ yondashuvi hamda mustaqil ilmiy izlanish olib

borish ko‘nikmalari turli darajada shakllanganligi aniqlandi. Aniqlanishicha, interaktiv metodlar, muammoli ta’lim texnologiyalari, refleksiv yondashuv hamda raqamli platformalardan foydalanish talabalarning ilmiy ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy таъсир ko‘rsatadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ilmiy axborotni tahlil qilish, kreativ g‘oyalarni shakllantirish va mustaqil tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishda muhim pedagogik imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, ayrim talabalarda ilmiy faoliyatni rejalashtirish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish va ilmiy xulosalarni asoslash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar yetarli rivojlanmaganligi kuzatildi. Bu esa ilmiy ijodiy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot yakunida ilmiy ijodiy kompetensiyani diagnostika qilish mezonlari va baholash indikatorlarini takomillashtirish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish hamda talabalarning mustaqil ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash muhim pedagogik shartlardan biri ekanligi asoslab berildi. Ushbu yondashuv oliy ta’lim muassasalarida raqobatbardosh, kreativ va ilmiy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Edward L. Deci and Richard M. Ryan. “The ‘What’ and ‘Why’ of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior.” Psychological Inquiry, 11(4), 227–268, 2000.

2. Barry J. Zimmerman. “Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview.” Theory Into Practice, 41(2), 64–70, 2002.

3. George Siemens. “Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.” International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3–10, 2005.

4. Beverly Park Woolf. Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-learning. Burlington: Morgan Kaufmann, 2010.

5. Charles M. Reigeluth. Instructional Theory and Technology for the New Paradigm of Education. New York: Routledge, 2012.

6. Ryan S. Baker and Paulo S. Inventado. “Educational Data Mining and Learning Analytics.” In Learning Analytics (pp. 61–75). New York: Springer, 2014.

7. Rose Luckin, Wayne Holmes, Mark Griffiths, and Laurie B. Forcier. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. London: Pearson, 2016.

Gavhar TOJIYEVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, ‘‘Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti’’ kafedrasi, o‘qituvchi

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA LISONIY, MADANIY VA LINGVOMADANIY INTUITSIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida lisoniy sezgirlik, lisoniy intuitsiya, madaniy intuitsiya va lingvomadaniy intuitsiyaning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada reflektiv yondashuv, autentik materiallar, kontekstual taxmin, madaniyatlararo vaziyatlar tahlili va kommunikativ topshiriqlar orqali lisoniy hamda lingvomadaniy intuitsiyani rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Tayanch so‘zlar. Lisoniy sezgirlik, lisoniy intuitsiya, madaniy intuitsiya, lingvomadaniy intuitsiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, reflektiv yondashuv.

В статье освещается роль языковой чувствительности, языковой интуиции, культурной интуиции и лингвокультурной интуиции в процессе профессиональной подготовки будущих учителей английского языка. Также в статье показаны способы развития языковой и лингвокультурной интуиции посредством рефлексивного подхода, аутентичных материалов, контекстуального предположения, анализа межкультурных ситуаций и коммуникативных заданий.

Ключевые слова. Языковая чувствительность, языковая интуиция, культурная интуиция, лингвокультурная интуиция, будущий учитель английского языка, коммуникативная компетенция, межкультурная коммуникация.

The article highlights the role of linguistic sensitivity, linguistic intuition, cultural intuition, and linguocultural intuition in the process of professional training for future English teachers. The article also demonstrates ways to develop linguistic and linguocultural intuition through a reflexive approach, authentic materials, contextual assumptions, analysis of intercultural situations, and communicative tasks.

Key words. Language sensitivity, language intuition, cultural intuition, linguocultural intuition, future English teacher, communicative competence, intercultural communication.

So‘nggi yillarda kommunikativ kompetensiya, strategik kompetensiya va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq kommunikativ faoliyatning ichki psixolingvistik mexanizmlari hisoblangan lisoniy va madaniy intuitsiyaning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, lisoniy va madaniy tajribaning integratsiyasi natijasida shakllanuvchi lingvomadaniy intuitsiyaning kasbiy-kommunikativ faoliyatdagi ahamiyatini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Tilshunoslik va psixolingvistika fanlarida lisoniy sezgirlik va lisoniy intuitsiya tushunchalari ko‘pincha o‘zaro yaqin hodisalar sifatida talqin qilinadi. Biroq mazkur tushunchalar mazmunan bir xil emas. Lisoniy sezgirlik til birliklari, grammatik shakllar, semantik munosabatlar va nutqiy qoliplarni sezish hamda farqlash qobiliyatini ifodalaydi. U til tizimidagi qonuniyatlarni anglashning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Lisoniy intuitsiya esa lisoniy sezgirlik negizida shakllanadigan va kommunikativ vaziyatlarda til vositalarini tezkor tanlash imkonini beradigan ichki psixolingvistik

mexanizm hisoblanadi. M.R. Lvov lisoniy intuitsiyani til tizimini intuitiv va ko‘pincha ongsiz egallash mexanizmi sifatida tavsiflaydi. Real kommunikativ vaziyatlarda inson har bir grammatik qoidani ongli ravishda eslab qo‘llamaydi. Aksincha, u avvalgi til tajribasi asosida intuitiv qaror qabul qiladi. Shu sababli lisoniy intuitsiya nutqning ravonligi, spontanligi va tabiiyligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun lisoniy intuitsiya ayniqsa muhimdir. Chunki ular nafaqat o‘zlari chet tilida samarali muloqot qilishlari, balki kelajakda o‘quvchilarda ham tilni intuitiv ravishda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishlari kerak. Notanish so‘zning ma’nosini kontekst asosida aniqlash, grammatik shakllarning vazifasini nutqiy vaziyatda anglash, turg‘un birikmalardan tabiiy foydalanish va uslubiy jihatdan mos til vositalarini tanlash lisoniy intuitsiyaning amaliy ko‘rinishlaridir.

Lisoniy intuitsiyaning rivojlanishida refleksiya muhim o‘rin tutadi. Refleksiya talabaning o‘z nutqiy faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini anglab yetishi va keyingi kommunikativ vaziyatlarda yanada samarali strategiyalarni qo‘llashiga yordam beradi. L.S. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, insonning oliy psixik funksiyalari dastlab ijtimoiy faoliyatda shakllanib, keyinchalik ichki psixik mexanizmlarga aylanadi. Demak, muntazam mashq, muloqot va refleksiya natijasida ongli ravishda bajarilgan nutqiy harakatlar asta-sekin intuitiv darajaga ko‘tariladi.

Chet tilini o‘rganish faqat til tizimini egallash bilan cheklanmaydi. Til ma’lum bir xalqning madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli chet tilini samarali egallash uchun madaniy sezgirlikni rivojlantirish ham zarur hisoblanadi.

Madaniy sezgirlik shaxsning turli madaniyatlarga xos qadriyatlar, xulq-atvor me’yorlari, kommunikativ odatlar va dunyoqarashdagi farqlarni anglash qobiliyatini bildiradi. U boshqa madaniyat vakillarining xatti-harakatlarini to‘g‘ri talqin qilish va ularga nisbatan tolerant munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Madaniy intuitsiya esa madaniy sezgirlik negizida shakllanadigan va madaniyatlararo muloqot jarayonida vaziyatga mos kommunikativ qaror qabul qilish imkonini beradigan mexanizmdir. S.G. Ter-Minasova tilni “madaniyat oynasi” sifatida talqin qilib, milliy qadriyatlar va madaniy ma’nolar aynan tilda o‘z aksini topishini ta’kidlaydi. Shu sababli ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarni grammatik va leksik bilimlar bilan qurollantirishning o‘zi yetarli emas. Ularni ingliz tiliga xos kommunikativ odob me’yorlari, murojaat shakllari, iltimos, taklif, rad etish va minnatdorchilik bildirish kabi nutqiy harakatlarning madaniy xususiyatlari bilan ham tanishtirish zarur.

Masalan, ingliz tilida “Close the window!” shaklidagi buyruq grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, ko‘plab kommunikativ vaziyatlarda pragmatik jihatdan mos hisoblanmaydi. Uning o‘rniga “Could you please close the window?” yoki “Would you mind closing the window?” kabi yumshoq shakllar qo‘llanadi. Bunday farqlarni anglash va mos variantni tanlash madaniy intuitsiyaning namoyon bo‘lishidir.

Tadqiqotimizda lisoniy sezgirlik, madaniy sezgirlik va lingvomadaniy intuitsiya o‘zaro bog‘liq, biroq mazmunan farqlanuvchi hodisalar sifatida talqin qilinadi. Lisoniy sezgirlik lisoniy intuitsiyaning, madaniy sezgirlik esa madaniy intuitsiyaning shakllanishiga zamin yaratadi. Ularning integratsiyasi natijasida lingvomadaniy intuitsiya shakllanadi. Lingvomadaniy intuitsiya lisoniy va madaniy intuitsiyaning integratsiyalashgan shakli bo‘lib, til birliklarini ularning semantik, pragmatik va madaniy mazmuni bilan birgalikda anglash imkonini beradi. L.I. Bogatikova lingvomadaniy intuitsiyani muayyan lingvomadaniy jamoaning milliy-madaniy va etnopsixologik xususiyatlari bilan bel-

gilanadigan, konkret vaziyatga mos verbal va noverbal xatti-harakat sifatida izohlaydi [8:38]. Lingvomadaniy intuitsiya bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki o‘qituvchi o‘quvchilarga nafaqat so‘z va grammatik shakllarning ma’nosini, balki ularning madaniy bo‘yoqdorligi, pragmatik vazifasi va kommunikativ mosligini ham tushuntira olishi kerak. Idiomalar, frazeologik birliklar, metaforalar, kinoya, hazil va bilvosita ma’no ifodalovchi birliklarni tushunish aynan lingvomadaniy intuitsiya bilan bog‘liq. Lingvomadaniy intuitsiyaning rivojlanganligi bo‘lajak o‘qituvchining madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etishi, autentik materiallarni to‘g‘ri talqin qilishi va o‘quvchilarda ham madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishiga imkon yaratadi.

Lingvomadaniy intuitsiya kompensatorli kompetensiyaning muhim psixolingvistik asoslaridan biri hisoblanadi. Kommunikativ qiyinchiliklar yuzaga kelgan vaziyatlarda talaba zarur so‘zni eslay olmaganida, grammatik shaklni tanlashda ikkilanib qolganida yoki madaniy jihatdan mos ifodani topa olmaganida intuitiv mexanizmlarga tayanadi.

Bunday holatlarda kontekstual taxmin qilish, parafrazlash, tavsiflash, sinonimik almashtirish, approksimatsiya va boshqa kompensator strategiyalar aynan lisoniy hamda lingvomadaniy intuitsiya yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli lingvomadaniy intuitsiyaning rivojlanganligi talabaning kommunikativ moslashuvchanligi, strategik faoliyati va kompensatorli kompetensiyasining samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda autentik materiallar, qiyosiy lingvomadaniy tahlil, kontekstual taxmin mashqlari, madaniyatlararo vaziyatlarni modellashtirish va reflektiv topshiriqlardan foydalanish lingvomadaniy intuitsiyani rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari lisoniy sezgirlik, madaniy sezgirlik va lingvomadaniy intuitsiya o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Lisoniy sezgirlik lisoniy intuitsiyaning, madaniy sezgirlik esa madaniy intuitsiyaning shakllanishiga zamin yaratadi. Lisoniy va madaniy intuitsiyaning integratsiyasi natijasida shakllanuvchi lingvomadaniy intuitsiya bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kommunikativ, pragmatik va strategik faoliyatini ta’minlovchi muhim kognitiv mexanizm hisoblanadi. Shuningdek, lingvomadaniy intuitsiya kompensatorli kompetensiyaning muhim tarkibiy asosi bo‘lib, kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish, kontekstual taxmin qilish, parafrazlash va boshqa kompensator strategiyalarni samarali qo‘llash imkonini beradi. Shu bois pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida lisoniy sezgirlik → lisoniy intuitsiya → madaniy sezgirlik → madaniy intuitsiya → lingvomadaniy intuitsiya → kompensatorli kompetensiya zanjiri asosida tashkil etilgan metodik tizimni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes D. On communicative competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 269 p.

2. Baudouin de Courtenay I.A. Selected works on general linguistics. – Moscow: Progress, 1963. – 384 p.

3. Krashen S.D. Principles and practice in second language acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.

4. Lewis M. The lexical approach. – Hove: Language Teaching Publications, 1993. – 200 p.

5. Богатикова Л.И. Межкультурная компетенция и коммуникация. – М.: Флинта, 2010. – 220 с.

Ulug'bek KUBAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, dotsent v.b.

VIRTUAL MUHITDAN FOYDALANISH NATIJALARINI TAHLIL QILISH USULLARI VA TAJRIBAVIY TADQIQOTLAR

Annotatsiya

Maqolada virtual muhitdan foydalanish natijalarini tahlil qilish usullari hamda tajribaviy tadqiqotlar natijalari yoritilgan. Tadqiqot davomida Intel protsessorlari va Nvidia hamda ATI grafik adapterlariga ega turli apparat konfiguratsiyalarida uch o'lchovli obyektlarni vizuallashtirish samaradorligi o'rganilgan. Markaziy protsessor va oqim protsessorlarida diskret to'lqinli almashtirishlar hamda atributli vektor shakllarini rasterlash jarayonlari taqqoslangan. Shuningdek, R-funksiya (RFM) usuli asosida murakkab tuzilishli uch o'lchovli obyektlarni modellashtirish va vizuallashtirish algoritmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, taklif etilgan usul yordamida 3D obyektlarni yaratish vaqti sezilarli darajada qisqarib, xotira sarfi kamayganligi aniqlangan. Virtual muhitlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va foydalanuvchilarning qiziqishini kuchaytirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar. Virtual muhit, R-funksiya, 3D modellashtirish, vizuallashtirish, oqim protsessori, diskret to'lqinli almashtirish, algoritm, virtual reallik.


В данной статье рассмотрены методы анализа результатов использования виртуальной среды, а также результаты экспериментальных исследований. В ходе исследования была изучена эффективность визуализации трёхмерных объектов на различных аппаратных конфигурациях, оснащённых процессорами Intel и графическими адаптерами Nvidia и ATI. Проведено сравнение процессов дискретных вейвлет-преобразований и растеризации атрибутивных векторных форм на центральных и потоковых процессорах. Также проанализированы алгоритмы моделирования и визуализации трёхмерных объектов сложной структуры на основе метода R-функций (RFM). Результаты исследования показали, что предложенный метод значительно сокращает время создания 3D-объектов и уменьшает расход памяти. Обосновано, что использование виртуальных сред способствует повышению эффективности образовательного процесса и усилению интереса пользователей.

Ключевые слова. виртуальная среда, R-функция, 3D-моделирование, визуализация, потоковый процессор, дискретное вейвлет-преобразование, алгоритм, виртуальная реальность.


This article describes methods for analyzing the results of using virtual environments and the outcomes of experimental research. During the study, the efficiency of visualizing three-dimensional objects was investigated on various hardware configurations equipped with Intel processors and Nvidia and ATI graphics adapters. The processes of discrete wavelet transformations and rasterization of attribute vector forms on central processors and stream processors were compared. In addition, algorithms for modeling and visualizing complex structured three-dimensional objects based on the R-function (RFM) method were analyzed. According to the research results, it was determined that the proposed method significantly reduced the time required for creating 3D objects and decreased memory consumption. It was also substantiated that the use of virtual environments contributes to improving the effectiveness of the educational process and increasing users' interest.

Key words. Virtual environment, R-function, 3D modeling, visualization, stream processor, discrete wavelet transform, algorithm, virtual reality.

Amaliy masalalarni yechish taklif etilgan dasturiy vosita bir xil qiymat darajasidagi Intel protsessorli va Nvidia, ATI grafik adapterlariga ega bo‘lgan 20 ta apparat konfiguratsiyasidagi tizimlarda ishga tushirishda olingan natijalarni taqdim etdik. Buning natijasida har bir apparat konfiguratsiyasida har bir tasvir o‘lchami uchun 10 martadan ishga tushirildi. Har xil o‘lchamdagi tasvirlar uchun markaziy protsessor (MP) va oqim protsessor (OP)larda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari DTA (diskret to‘lqinli almashtirishni qo‘llaganda) tasvirlarni vaqtinchalik xotirada yuklanishi vaqti o‘rtasidagi nisbat quyidagicha ko‘rsatilgan (1-2-rasm).




1-rasm. MP va OPda diskret to‘lqinli almashtirishlar



2-rasm. MP va OPda atributli vektor shakllarini rasterlash

Umuman olganda, eksteryer va interyer uch o‘lchovli obyektlarini virtual muhitga joylashtirish uchun OPlardan foydalanishda erishilgan yaxshilanish OPning eng yuqori ko‘rsatkichlarining MPning eng yuqori ko‘rsatkichlariga nisbati 2 martadan ko‘p bo‘lmagan farq qiladi, bu qoniqarli deb hisoblanadi.



3-rasm. R-funksiya (RFM) usuli va geometrik almashtirishlarini qo'llab murakkab tuzulishli uch o'lchovli obyektni vizuallashtirish algoritmining saqlash modul qismini sxematik tuzilmasi

Uch o'lchovli obyektlarini R-funksiya usuli (RFM) yordamida geometrik modellarini ishlab chiqish usulidan foydalanadigan bo'lsak uch o'lchovli obyektni kompyuterda namoyish etish vaqti sezilarli darajada qisqardi va vaqtinchalik xotirada modelni tasvirlash uchun xotira hajmi tejalishi imkoni mavjudligini ko'rsatish mumkin.

R-funksiya (RFM) - funksiya usulidan foydalanigan holda ishlab chiqilgan matematik model va algoritmni baholash formulasi

$$I_{unm} = \left(\sum_{i=1}^{n} Xt_1 \right) \% - \left(\frac{\sum_{i=1}^{n} Xt_{2i}}{\sum_{i=1}^{n} Xt_{1i}} \right) * 100\%$$

Xt_2 - Takomillashgan soddalashtirilgan ko'rinishdagi matematik model asosida ishlab chiqilgan dastur olingan natijalar vaqti

Xt_1 - - MChJ tomonidan olingan natijalar vaqti


$$X_{vaqt} = \left(\frac{500}{30}\right) * 100\% = 16.6\%$$

20 min 100 %

5 min x %

$$M_{sarf} = 100\% - \left(\frac{M_2}{M_1}\right) * 100\%$$

$$I_{unumdorligi} = 30 - \left(\frac{5}{30}\right) * 100\% = 30 - 16.6 = 13\%$$



4-rasm. R-funksiya (RFM) usuli va geometrik almashtirishlarini qo‘llab murakkab tuzulishli uch o‘lchovli obyektni vizuallashtirish algoritmining chizish modul qismini sxematik tuzilmasi

Foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish, ma’lumotlar, xizmatlar, servislar tizim ma’lumotlari to‘plami bo‘lgan axborot resursi uchun vacademia.uz veb-interfeys yaratildi.

Virtual muhitga eksteryer va interyer 3D modellarni skriptlari hamda interfeysni yuklash co‘ngra namoyish etishning “vacademia” klient dasturiy vositasining IDEF0 modeli ishlab chiqildi.

Virtual muhit uchun yangi foydalanuvchi huquqlari (rollari)ning turli rollarda aks

etishi keltirib o‘tildi. Ma’lumotlarning mohiyat-aloqa modeli asosida modellashtirilgan IDEF1x har xil rollarda taqdim qilinishi yoritildi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, virtual muhitlar o‘quv muhitini tashkil qilinib mashg‘ulot jarayonlari uchun vaqt sarfini kamayishi hisobiga ish unumdorligini 5 foizga oshirishga hamda o‘quvchilarni mashg‘ulotga qiziquvchanlik qobiliyatini bir necha barobar oshirishga imkon beradi.

Biz taklif qilgan usuldan oldin an’anaviy ko‘rinishda 3D grafik dasturiy ta’minot paketlaridan foydalangan holda 3D modellashtiruvchi mutaxassis bitta obyektni loyihalash uchun 20 min vaqt sarflasa biz taklif qilgan RFM-funksiya usulidan foydalangan holda 3D obyektlarni qurishda soddalashtirilgan ko‘rinishda 5 minda loyihalashga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazirov Sh.A., Muxamedieva D.T., Nuraliev F.M., Ne’matov A.. “Matematik modellashtirish asoslari”. // Monografiya, Toshkent: Aloqichi. 2020. – 364 b.

2. Arianne D., Pietersea Volkert A.L. Hurman, Beerend P.Hierckcde, Marlies E.J. Reinder. Introducing the innovative technique of 360° virtual reality in kidney transplant education. // https://doi.org/10.1016/j.trim.2018.03.001 Transplant Immunology. Received 9 March 2018, Accepted 13 March 2018, Available online 18 March 2018.

3. Nuraliev F.M., Giyosov U.E., Anvarov B.M. Virtual 3D universitet o‘quv jarayonini tashkil qilish modellarini yaratish. // TATU xabarlari. №3(47), Vol.1, c.65-75, 2018, – Toshkent.

4. Yoshihiro Okada, Taiki Ura. IntelligentBox for Web-Based VR Applications (WebIBVR) and Its Collaborative Virtual Environments. // Proc. of 8th International Conference on Emerging Internet, Data & Web Technologies (EIDWT 2020), Springer(Advances in Internet, Data and Web Technologies, Lecture Notes on Data Engineering and Communications Technologies 47), pp. 503-515, Feb. 2020.

5. T. Akenine-Moller, E. Haines, and N. Hoffman, Real-Time Rendering.// Boca Raton, FL, USA: CRC Press, 2018.

6. Carlos J. Gayar-Anguita, Antonio J. Rueda-Ruiz, Rafael J. Segura-Sanchez, Miguel Diaz-Medina, va Angel L. García-Fernandez, Gpu-Based Framework for Generating Implicit Datases of Vokselized Polygonal Models. // January 21, 2020, DIO: 10.1109/ACCESS.2020.2965624

7. Artikova M.A., Namozova X. Vizualizatsiyalashtirish jarayonida 3D modellashtirishning ahamiyati. // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqodlar jurnali, 20.12.2021 y.

8. Xamdamov U.R., Elov J.B. Axborot texnologiyalari bo‘yicha multimediali interaktiv on-layn o‘rgatuvchi tizim. // “Aloqa va axborotlashtirish sohasi uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirish muammolari”,Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professor-o‘qituvchilarning ilmiy-uslubiy koferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. Toshkent-2015. –b. 177-180.

Fotima TANGRIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi,
oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, magistrant

O‘QUVCHILAR INTELLEKTUAL RIVOJLANISH DARAJALARINI DIAGNOSTIK O‘RGANISH VA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanish darajalarini aniqlashga qaratilgan diagnostik usullar va ulardan ta’lim amaliyotida foydalanish masalalari yoritilgan. O‘n besh yillik pedagogik faoliyat davomida to‘plangan kuzatishlar asosida, o‘quvchilar o‘rtasida intellektual rivojlanish farqlari qanchalik katta ekanligi va bu farqlarni e’tiborsiz qoldirishning qanday oqibatlarga olib kelishi ko‘rsatib o‘tilgan. Maktab sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan oddiy diagnostik kuzatuv usullari va standart psixologik testlar haqida ma’lumot berilgan. Xulosa qismida differensial yondashuvni kundalik ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llari taqdim etilgan.

Tayanch so‘zlar. Intellektual rivojlanish, boshlang‘ich sinf, diagnostika, differensial yondashuv, kognitiv qobiliyat, rivojlantiruvchi ta’lim, pedagogik kuzatuv, individual yondashuv.

В статье рассматриваются диагностические методы выявления уровней интеллектуального развития учащихся начальных классов и вопросы их практического применения в учебном процессе. На основе наблюдений, накопленных за пятнадцать лет педагогической деятельности, показано, насколько велики различия в интеллектуальном развитии учеников и к каким последствиям приводит игнорирование этих различий. Приводятся примеры из практики и описываются доступные для школы методы диагностического наблюдения. Заключительная часть статьи посвящена способам внедрения дифференцированного подхода в повседневный учебный процесс.

Ключевые слова. Интеллектуальное развитие, начальная школа, диагностика, дифференцированный подход, когнитивные способности, развивающее обучение, педагогическое наблюдение, индивидуальный подход.

This article discusses diagnostic approaches to identifying the levels of intellectual development among primary school students and their practical application in the classroom. Drawing on fifteen years of teaching experience, the author illustrates how significant the differences in students’ intellectual development can be, and what follows when these differences are ignored. Classroom observation techniques and standard assessment tools are described with practical examples. The concluding section presents ways to integrate differentiated instruction into everyday teaching.

Key words. Intellectual development, primary school, diagnostics, differentiated instruction, cognitive ability, developmental learning, pedagogical observation, individual approach.

O‘qituvchi bo‘lib ishlaganimning o‘n beshinchi yili. Shu yillar ichida bir narsani aniq tushundim – sinfdagi o‘ttiz bola, o‘ttiz xil inson. Biri siz tushuntirishni tugatmasdan oldin javobni aytib qo‘yadi, boshqasi bir masalani uch kun urinib tushunishga harakat qiladi. Men ham avvaliga ko‘p o‘qituvchilar kabi bu farqni ‘‘yaxshi bola’’ va ‘‘dangasa bola’’ deb izohlardim. Asta-sekin angladimki, bu umuman to‘g‘ri emas ekan.

Bir kuni – bu taxminan to‘rt yil oldin – sinfimda Ahmadjon ismli bola bor edi. Arifmetikadan doim past baho olardi. O‘qishni esa juda yaxshi ko‘rardi, hikoyalarni aytib

berishda undan zo‘r yo‘q edi. Men Ahmadjonning onasini chaqirib, ‘‘bolangizni ko‘proq ishlating’’ dedim. Ona uyalib ketdi, indamay chiqdi. Keyinchalik o‘sha bola so‘z orqali dunyoni anglaydigan, o‘z turdagi ziyrak bola ekani menga ayon bo‘ldi. Matematikadan kuchsiz edi, lekin intellekti past emas – shunchaki boshqacha edi. O‘sha voqea menga katta saboq bo‘ldi.

Shu voqeadan so‘ng ko‘proq o‘qiy boshladim. Psixologiya, pedagogika, intellekt haqida. Va shuni angladimki – bizning maktablarimizda o‘quvchining intellektual darajasini aniqlab, shunga mos ta’lim berish deyarli yo‘q. Mana shu muammo ushbu maqolaning asosini tashkil etdi.

Intellekt deganda nimani tushunish kerak

Ko‘pchilik ‘‘intellekt’’ deganda biror IQ raqamini ko‘z oldiga keltiradi. Aslida bu tushuncha ancha kengroq. Psixolog olimlar ham, mening o‘z kuzatishlarim ham shuni ko‘rsatadi – intellekt bu odamning hayotdagi muammolarni hal qila olish, yangi bilimlarni qabul qilish va ulardan foydalana olish qobiliyatidir.

Govard Gardner 1983-yilda juda qiziq bir nazariya taklif qildi. Uning fikricha intellekt bir xil emas, bir necha turda bo‘ladi: so‘z bilan ishlash (lingvistik intellekt), raqam va mantiq, rasmlar va fazoni tasavvur qilish, musiqa hissi, jismoniy mahorat va boshqalar. Men bu ro‘yxatni o‘qiganimda darhol Ahmadjonni eslashim bejiz emas – u so‘z va hikoya sohasida hayratlanarli edi. Bu ham intellektning bir turi.

Rus olimi Lev Vigotskiy ‘‘yaqin rivojlanish zonasi’’ degan tushunchani kiritgan. Oddiy qilib aytganda: bola hozir o‘z-o‘zicha bajara olmaydigan, lekin biroz yordam bilan uddalay oladigan vazifalar zonasi – eng muhim ta’lim maydoni. Biz o‘qituvchilar ba’zan juda oson yoki juda qiyin topshiriq beramiz. Ikkalasi ham noto‘g‘ri. To‘g‘ri topshiriq – bolaning cho‘zilsa yetadigan joyida turgan topshiriq.

Kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi yanada oshirish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, risklarni diversifikatsiya qilish, moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish muhim hisoblanadi. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda tarqoq (fragmentatsiyalashgan) manbalarni yagona tizimga birlashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish samaradorligini oshirish, integratsiyalashgan moliyalashtirish tizimini joriy etish orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishni ta’minlaydi. Kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida moliyalashtirishda “bank krediti + mikromoliyalashtirish + lizing + innovatsion moliyalashtirish + davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” mexanizmlarini o‘zaro bog‘liqligini tahminlaydigan integratsiyalashgan moliyaviy-iqtisodiy imperativ modelini tadbiq etish orqali yagona moliyaviy tizimni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


Yuqoridagi taklif bilan birgalikda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi yanada oshirish uchun kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida kichik biznes subyektlarining ijobiy kredit va soliq tarixiga ega tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirishda kreditlar ajratishda ularga garov talabi 50 foizga kamaytirish orqali, kichik biznes subyektlari va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yondashuv kredit risklarini bank va davlat o‘rtasida taqsimlash orqali moliya institutlarining kredit berish faolligini oshiradi. Natijada, norasmiy sektordagi subyektlarning rasmiy iqtisodiyotga jalb etilishi tezlashadi, tadbirkorlik faolligi ortib, bandlik va daromad manbalari ko‘payadi va garovga bo‘lgan ortiqcha talab qisqarishi hisobidan kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

KBS bandlik sohasida ham muhim rol o‘ynamoqda. Iqtisodiy faol aholining kichik biznes sektorida band bo‘lgan ulushi 2023-yildagi 42,1 foizdan 2025-yilga kelib 47,2 foizga yetdi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda ishsizlikni kamaytirishda KBS ning hal qiluvchi roliga dalolat beradi.



1-rasm. KBS da band bo‘lgan ishchi kuchi ulushi (%).

KBS da band bo‘lgan ishchi kuchi ulushining ortib borishi va bu bartqarorlikni ta’minlashda kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida kichik biznes sub’ektlarida ‘‘yaxshi’’ va ‘‘a’lo’’ kredit tarixiga ega bo‘lgan tarmoq subyektlari uchun avval (olgan kreditlari bo‘yicha kafillik yordamidan foydalanayotgan bo‘lishidan qat’i nazar) qo‘shimcha ajratiladigan kreditlar bo‘yicha belgilangan umumiy miqdorlar doirasida kafillik taqdim etish maqsadga muvofiq, ya’ni ‘‘yaxshi’’ va ‘‘a’lo’’ kredit tarixiga ega kichik biznes subyektlariga qo‘shimcha kreditlar bo‘yicha kafillik taqdim etish mexanizmi kredit resurslarini samarali taqsimlashni ta’minlaydi. Bunda moliyaviy intizomli va ishonchli qarz oluvchilarni rag‘batlantirish orqali kredit risklari pasayadi va banklarning kredit berish faolligi oshadi. Natijada, barqaror faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyati kengayadi, ularning o‘sish sur’atlari tezlashadi hamda KBS moliyalashtirish manbalari tarkibini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda O‘zbekiston KBS larining asosiy moliyalashtirish manbai o‘z mablag‘lari (35,6%) hisoblanadi. Bank kreditlari 28,4 foizni, davlat dasturlari 14,2 foizni, mikrokredit 12,8 foizni tashkil etmoqda. Xorijiy investitsiyalar ulushi atigi 5,3 foizni tashkil etishi raqobatbardoshlikni oshirishda xorijiy kapitaldan to‘liq foydalanilmayotganligini ko‘rsatadi [12].



2-rasm. KBS moliyalashtirish manbalari tarkibi (2024).

KBS moliyalashtirish manbalari tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda eksportni qullab-quvvatlash, moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash hamda kreditlashda innovatsion yondoshuv asosida aqlli kreditlash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq, natijada kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonini takomillashtirish maqsadida an’anaviy garovga asoslangan kreditlash amaliyotidan farqli ravishda, mijozning moliyaviy va nomunosabiy (alternativ) ma’lumotlarini kompleks baholash orqali kredit risklarini kamaytirish va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengayadi. Ishlash prinsipi shundan iboratki unda mavjud kichik biznes subyektlari iqtisodiy va moliyaviy holatini aniqlash asosida

kredit qobiliyatini baholovchi skoring modeli yordamida amalga oshiriladi, ya'ni biznes subyektlarini daromadi, aylanma mablag'lari, qarz yuki va boshqa ko'satkichlari tahlili qilingan holda qaror qabul qilinadi. Shu bilan birga kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida kichik biznes subyektlarining jarayonlarni rivojlantirishda tarmoq subyektlari ijobiy kredit va soliq tarixiga ega tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirish uchun kreditlar ajratishda ularga garov talabi 50 foizga kamaytirish natijasida, kichik biznes subyektlari va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yondashuv kredit risklarini bank va davlat o'rtasida taqsimlash orqali moliya institutlarining kredit berish faolligini oshiradi. Natijada, norasmiy sektordagi subyektlarning rasmiy iqtisodiyotga jalb etilishi tezlashadi, tadbirkorlik faolligi ortib, bandlik va daromad manbalari ko'payadi va garovga bo'lgan ortiqcha talab qisqarishi hisobidan kichik biznes sub'ektlarining barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Tadqiqot davomida 500 dan ortiq KBS vakillari bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida moliyalashtirishga kirishdagi asosiy to'siqlar aniqlandi. Quyidagi jadvalda to'siqlar darajasi va ularning tarqalish ko'rsatkichlari keltirilgan [13].

To siqturi	2023 (%)	2024 (%)	2025 (%)	Ahamiyat darajasi
Garovta'minotiningyetarliemasligi	68,4	65,2	61,8	Yuqori
Foiz stavkalarining yuqoriligi	72,1	70,3	67,5	Yuqori
Moliyaviy savodxonlikning pastligi	45,3	42,1	38,6	O'rtacha
Kredittarixiningyo'qligi	38,7	35,4	31,2	O'rtacha
Hujjatlar tayyorlashning murakkabligi	55,2	48,6	42,3	O'rtacha
Banklar bilan uzoq masofa	22,4	19,8	16,5	Past
Valyutariskidanqo'rquv	18,6	16,2	13,4	Past

2-jadval. KBS moliyalashtirishgakirishdagi to'siqlardarajasi (so'rovnomanatijalari, %).

KBS moliyalashtirishga kirishdagi to'siqlarni bartaraf etishda kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida tarmoq subyektlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va aylanma mablag'lar yetishmasligini bartaraf etish, KBS lar uchun yillik 2 mlrd.so'mgacha overdraft kreditlash mexanizmini joriy etishning maqsadga muvofiq, natijasida kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar uzluksizligi ta'minlanadi,likvidlik darajasi oshadi va to'lovga layoqatlilik mustahkamlanadi, tarmoq sub'ektlari o'rtasidagi debitor-kreditor qarzlar aylanishi tezlashadi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlaridagi uzilishlar.

O'zbekiston KBS ko'rsatkichlarini qo'shni va o'xshash rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda asosiy qiyosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

Mamlakat	KBS/YaIM (%) 2024	Kredit kirishuv darajasi (%)	O rtacha foiz stavkasi (%)	Bandlik ulushi (%)
O'zbekiston	**56,8**	**38,4**	**22,5**	**44,6**
Qozog'iston	62,3	52,1	16,8	51,2
Turkiya	74,1	67,3	28,4	63,8
Ozarbayjon	58,4	55,6	18,2	49,3
Vietnam	68,2	61,4	9,8	58,7
OECD o'rtacha	55,8	71,2	5,4	66,3

4-jadval. KBS xalqaro qiyosiy ko'rsatkichlari (2024).

O‘zbekiston va xorijiy davlarlardagi KBS rivojlanish ko’rsatkichlari asosida kichik biznes sub’ektlarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va tarmoq xo‘jaliklarida mahsulotlarini ishlab chiqarishning istiqboldagi 2030-yilgacha strategik prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan bo‘lib, strategik prognoz ko‘rsatkichlari tarmoq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni uzoq muddatli va ilmiy asoslangan rejalashtirish imkonini beradi. Bu orqali resurslardan samarali foydalanish, investitsiya yo‘nalishlarini aniq belgilash va bozor talabiga mos ishlab chiqarish hajmlarini shakllantirish ta’minlanadi. Natijada, tarmoqlarda barqaror o‘sish sur’atlari, raqobatbardoshlik va eksport salohiyati oshadi hamda iqtisodiyotning tarkibiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy imperativlarini 2023–2025-yillar statistik ma’lumotlari asosida kompleks o‘rganish natijasida bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon berdi. O‘zbekistonda KBS sektori barqaror miqdoriy o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda, moliyalashtirish imperativlari sifatida uchta asosiy muammo aniqlandı: (a) kredit resurslarıga cheklangan kirish – foiz stavkalarining yuqoriligi (o‘rtacha 22,5 foiz) va garov talablarining qattiqligi; (b) moliyaviy savodxonlikning past darajasi; (c) kredit tarixi infratuzilmasining takomillashmaganligi. Davlat ko‘mak dasturlari muayyan samaradorlikni ko‘rsatmoqda, lekin ularning qamrovi va koordinatsiyasi hali ham yetarli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborova Z. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining rivojlanishi va uning ilmiy-nazariy asoslari “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali.11-son 2025 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-son Farmoni.

3.Stiglitz J.E., & Weiss, A. (1981). Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. American Economic Review, 71(3), 393–410.

4. Toshmatov A., Xasanov B. (2022). O‘zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishning muammolari. Iqtisodiyot va moliya, 4, 45–58.

5. Mirzaev D., Umarov S. (2023). Kichik biznes moliyalashtirish tizimini isloh qilish. Biznes ekspert, 2, 12–24.

6. Xoliqov F. (2024). KBS raqamli transformatsiyasining iqtisodiy samaradorligi. Raqamli iqtisodiyot, 1(3), 78–95.

7. O‘zbekiston Statistika agentligi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: statistik to‘plam 2025. – Toshkent: Davstat, 2025. – 210 b.

8. O‘zbekiston Statistika agentligi. 2025 yil 1-chorak hisoboti. – Toshkent: Davstat, 2025.

9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2024. – Toshkent: O‘zMB, 2025. – 186 b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Mehnat bozori tahlili 2024–2025. – Toshkent, 2025.

11. Tadbirkorlik vazirligi. KBS moliyalashtirish monitoringi. – Toshkent, 2025. – 68 b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Iqtisodiy faollik turlari bo‘yicha statistika 2025. – Toshkent: Davstat, 2025.

13. O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik vazirligi. KBS ko‘mak dasturlari hisoboti 2024. – Toshkent, 2024. – 95 b.

Ashraf ISHONKULOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil tadqiqotchi

O‘QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISHDA INFORMAL TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING FUNKSIONAL MODELI VA DAVLAT TALABLARI INTEGRATSIYASI

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchilar malakasini oshirishda informal ta’lim texnologiyalarining o‘rni va uni O‘zbekiston Respublikasining davlat ta’lim standartlari hamda kredit-modul tizimi (ECTS) bilan integratsiya qilishning to‘rt bosqichli funksional modeli tahlil qilinadi. Tadqiqot xalqaro tashkilotlar (UNESCO) hisobotlari va andragogika tamoyillariga tayanib, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida mustaqil ta’lim e-portfoliolarining huquqiy va amaliy ahamiyatini asoslaydi.

Tayanch so‘zlar. informal ta’lim, o‘qituvchilar malakasini oshirish, andragogika, kredit-modul tizimi, funksional model, uzluksiz kasbiy rivojlanish, ta’lim integratsiyasi.

В статье анализируется роль неформальных образовательных технологий в повышении квалификации учителей и четырехэтапная функциональная модель их интеграции с государственными образовательными стандартами Республики Узбекистан и кредитно-модульной системой (ECTS). Исследование, опираясь на отчеты международных организаций (ЮНЕСКО) и принципы андрагогики, обосновывает правовую и практическую значимость электронных портфолио самостоятельного образования в непрерывном профессиональном развитии педагогов.

Ключевые слова. неформальное образование, повышение квалификации учителей, андрагогика, кредитно-модульная система, функциональная модель, непрерывное профессиональное развитие, интеграция образования.

This article analyzes the role of informal education technologies in teacher professional development and proposes a four-stage functional model for integrating it with the state educational standards and the credit-module system (ECTS) of the Republic of Uzbekistan. Based on reports from international organizations (UNESCO) and principles of andragogy, the study substantiates the legal and practical significance of independent learning e-portfolios in the continuous professional development of educators.

Key words. Informal learning, teacher professional development, andragogy, credit-module system, functional model, continuous professional development, educational integration.

Uzluksiz ta’lim paradigmasi jadal o‘zgarib borayotgan bugungi axborot jamiyatida o‘qituvchilarning kasbiy malakasini faqat rasmiy (formal) institutlar doirasida oshirish yondashuvi o‘zining yetarli darajada samarador emasligini ko‘rsatmoqda. UNESCOning “O‘qituvchilar bo‘yicha global hisobot” (Global Report on Teachers) ma’lumotlariga ko‘ra, Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (SDG 4) erishish uchun 2030-yilga borib dunyo bo‘ylab 44 million qo‘shimcha o‘qituvchi zarur bo‘lib, ularning maoshlarini moliyalashtirish uchun har yili 120 milliard AQSh dollari miqdorida mablag‘ talab etiladi. Bunday ulkan moliyaviy bosim va kadrlar taqchilligi sharoitida davlatlar pedagoglarning motivatsiyasini saqlab qolish va ularni ish joyining o‘zida uzluksiz rivojlantiruvchi informal ta’lim modellariga o‘tishga majbur bo‘lmoqda. Shu sababli, muassasadan tashqari, kundalik ish jarayoni, raqamli muloqot orqali kechadi-

gan norasmiy o‘rganish jarayonini davlatning rasmiy malaka talablari bilan integratsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Informal ta’limning nazariy-metodologik va fundamental asoslari

O‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishda informal ta’limning mohiyatini chuqur anglash uchun andragogika (kattalar ta’limi) falsafasiga murojaat qilish lozim. Ta’lim nazariyasida informal ta’lim deyilganda, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan, rasmiy qoidalarga bo‘ysunmaydigan hamda ijtimoiy tarmoqlardagi kasbiy muloqotlar va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida tabiiy ravishda yuz beradigan kognitiv faoliyat tushuniladi.

Andragogika nazariyasining asoschisi o‘z tadqiqotlarida isbotlaganidek, kattalar o‘quv jarayonida o‘z-o‘zini yo‘naltirishga moyil bo‘lishadi va ularning o‘rganish motivatsiyasi tashqi bosimdan ko‘ra ichki ehtiyojlarga qarab shakllanadi. Pedagoglar bevosita kundalik hayotida va amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lgan bilimlarnigina tezkorlik bilan o‘zlashtirishga intiladilar. Bu g‘oyalar asosi insonning hayotiy tajribasi va bevosita amaliyoti orqali nostandart vaziyatlarda mulohaza yuritishi kognitiv yuksalishni ta’minlashi haqidagi pragmatik ta’limotga borib taqaladi.

Ushbu chuqur andragogik qadriyatlar o‘zbek pedagogika maktabi klassiklari, xususan, jadidchilik harakati namoyondalari asarlarida ham aks etgan. Mutafakkir Abdulla Avloniyning mashhur o‘giti faqatgina o‘quvchilarga emas, balki muallimlarning o‘z ustida tinimsiz ishlashiga, qotib qolgan dogmalardan voz kechib uzluksiz informal o‘rganishiga ham bevosita qaratilgandir[8]. Axborot oqimi mislsiz darajada o‘sib borayotgan hozirgi davrda, o‘qituvchining doimiy izlanishi uni kasbiy inqirozdan saqlab qoluvchi asosiy vositadir.

Xalqaro tajriba va ilmiy tadqiqotlar tahlili (2020–2026)

So‘nggi yillardagi global o‘zgarishlar masofaviy ish tizimi va raqamli texnologiyalarga asoslangan informal ta’limning pedagoglar malakasini oshirishdagi ulushini keskin oshirdi. Xalqaro empirik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy o‘qituvchilar an’anaviy kurslardan ko‘ra Kasbiy ta’lim tarmoqlari (PLN – Professional Learning Network) orqali samaraliroq bilim olmoqdalar. Xususan, ish joyidagi raqamli informal o‘rganish o‘qituvchilarning pedagogik samaradorligini va AKT ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishi tasdiqlangan.

Rasmiy malaka oshirish seminarlari ko‘pincha muayyan maktabdagi real vaziyatga moslashuvchan bo‘lmaganligi sababli, olimlar tizimli, ammo qat’iy chegaralanmagan “gibrid” malaka oshirish modellarini amaliyotga joriy etishni eng maqbul yechim sifatida tavsiya etmoqdalar. Shuningdek, 2025-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlar o‘qituvchilarning kasbiy o‘zligini anglashida tibbiyot sohasidagi kabi informal muhitning “yashirin o‘quv dasturi” hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqladi. 2026-yildagi so‘nggi ilmiy izlanishlar esa o‘quv jarayonidagi muammolarni hal qilishda muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini aynan pedagogik modellar orqali integratsiya qilish zaruratini ko‘rsatmoqda. UNESCO xulosalariga ko‘ra, hamma uchun ochiq messenjerlar orqali past texnologiyali, biroq sermahsul informal ta’lim guruhlarini joriy etish pedagoglarning ichki motivatsiyasiga keskin ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda uzluksiz kasbiy rivojlanish va qonunchilik asoslari

Xalqaro tendensiyalar fonida O‘zbekiston ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar qonunchilik darajasida o‘qituvchilarga o‘z ustida mustaqil ishlashlari uchun keng yo‘l ochmoqda. Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda birinchi marta informal ta’limga huquqiy maqom berilib, u “oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik

hayotdagi o‘quv faoliyati” deb qat’iy belgilandi.

Endilikda o‘qituvchilarning kasbiy salohiyati faqatgina nazariy bilimlar bilan emas, balki mustaqil izlanishlari yig‘indisi sifatida tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi 867-son qarori bilan “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi(www.onlinedu.uz) va xalqaro ECTS kredit-modul tizimi amaliyotga joriy qilindi [4]. Bu tizim o‘qituvchiga malaka oshirish trayektoriyasini erkin tanlash imkonini berib, informal ta’limni rasmiy doiraga kirituvchi hisob-kitob mexanizmi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori bilan A.Avloniy nomidagi milliy institut zimmasiga maktab xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish vazifasi qo‘yildi. Bunday global ko‘nikmalarni faqat qisqa muddatli kurslarda o‘zlashtirish imkonsiz bo‘lib, o‘qituvchilarning informal usullarda to‘plagan amaliy kompetensiyalarini muntazam baholash va rasman e’tirof etishni taqozo qiladi.

Informal ta’lim texnologiyalarining funksional va integrativ modeli

Xalqaro andragogika yutuqlari hamda O‘zbekistonning davlat malaka talablari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash maqsadida informal ta’limni amaliyotga joriy etishning to‘rt bosqichli innovatsion funksional modeli taklif etilmoqda.

Model Bosqichlari	Faoliyatning mohiyati va pedagogik maqsadi	Qo‘llaniladigan informal ta’lim texnologiyalari	Davlat talablari (ECTS) bilan integratsiyasi
I bosqich: Ehtiyojlarni diagnostika qilish	O‘qituvchi kasbiy bilim va malakasidagi kamchiliklarni o‘zi ongli ravishda, tashqi majburlovsiz anglab yetadi	O‘z-o‘zini tahlil qilish vositalari	Vazirlik platformasidagi joriy diagnostika testlari yordamida o‘quv ehtiyojlarini qonuniy qayd etish
II bosqich: Avtonom o‘rganish	O‘qituvchi kursni kutmasdan, ehtiyojlari asosida bilimlarini ijtimoiy muhitda va tarmoqlarda oshirishga kirishadi	Kasbiy ta’lim tarmoqlari (PLNs), podkastlar, Sun’I intellekt vositalari	Attestatsiyaga tayyorgarlik maqsadida tajriba almashish va innovatsion metodlarni norasmiy tarzda o‘zlashtirish
III bosqich: Amaliyotga joriy etish (e-portfolio)	Informal o‘rgangan ilg‘or amaliyoti tizimlashtirilib, bevosita sinfxonada tatbiq etiladi	Elektron portfoliolar (e-portfolio), videodarslar, bulutli xotira	Ochiq darslar, nashrlar va o‘quvchilar reytingini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy natijalar to‘plash
IV bosqich: Davlat akkreditatsiyasi	Amaliyotda tasdig‘ini topgan informal natijalar ekspertlar yoxud raqamli tizimlar tomonidan baholanadi	Raqamli attestatsiya va AI yordamida portfoliolarni obyektiv tahlil qilish	Informal o‘rganish natijalarini kredit-modul tizimi (ECTS) kreditlariga konvertatsiya qilib, davlat tomonidan rasman tasdiqlash

Ushbu uzluksiz modelning mantig‘i shundaki, o‘rganish tashqi buyruq asosida emas, dars jarayonidagi kognitiv ehtiyojdan tug‘iladi va “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasi orqali yakunda ECTS kreditlariga aylanadi. O‘zbekistonda ushbu tizim ishlashiga yaqqol

misol sifatida, o‘qituvchilar informal ta’lim vositasida kashf qilgan individual amaliyotlarini OAK ro‘yxatidagi ilmiy-metodik nashrlarda maqola qilib chop etishlari ularga attestatsiyada yuqori ball va davlat miqyosida rasmiy e’tirof olib kelishini ko‘rsatish mumkin.

Zamonaviy sharoitda o‘qituvchilar malakasini faqat an’anaviy yondashuv orqaligina tubdan yaxshilab bo‘lmaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanishda informal ta’lim siyosatning uzviy o‘zagiga aylanishi shart. Buni amaliyotga joriy etish uchun quyidagi strategik qadamlar tavsiya etiladi:

Birinchidan, izlanishlarni raqamlashtirish va “mikro-kreditlar” tizimini joriy etish zarur. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasida o‘qituvchilarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi va innovatsion vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini avtomatik tahlil qilib, ularni ECTS tizimi doirasida rasmiy kreditlarga aylantiruvchi raqamli modul ishga tushirilishi lozim.

Ikkinchidan, mustaqil ta’lim e-portfoliolarining yuridik maqomini oshirish talab etiladi. Andragogik tamoyillarga tayanib, o‘qituvchilarning e-portfoliolari shunchaki yordamchi vosita emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri malaka toifasini kafolatlovchi mustaqil yuridik hujjat maqomiga ko‘tarilishi kerak.

Uchinchidan, “informal o‘rganish jamoalari”ni davlat darajasida rag‘batlantirish muhimdir. Maktablarda fan birlashmalari negizida hamkasblar bilan gorizontal tajriba almashish muhitini yaratuvchi tarmoqlarni tuzish hamda bilim ulashuvchi yetakchi ustoz-murabbiylarni moddiy jihatdan kuchli rag‘batlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sifati ustozlarning har kuni mustaqil izlanishni o‘zlarining hayotiy ehtiyojiga aylantirishiga bog‘liq. Davlat tizimining asosiy vazifasi esa o‘qituvchining bu ixtiyoriy kundalik izlanishlarini vaqtida baholashi hamda buni tasdiqlab beruvchi adolatli huquqiy mexanizmlarni yaratishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO & International Task Force on Teachers for Education 2030. (2024). Global Report on Teachers: Addressing teacher shortages and transforming the profession. Paris: UNESCO.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori. – 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi 867-son qarori. – 2024.

4. Knowles M.S. (1970). The modern practice of adult education: Andragogy versus pedagogy. New York: Association Press.

5. Knowles M.S. (1984). Andragogy in Action: Applying Modern Principles of Adult Learning. San Francisco: Jossey-Bass.

6. Dewey J. (1938). Experience and Education. New York: Kappa Delta Pi.

7. Avloniy A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi.

8. Yang N., & Ghislandi P. (2024). Quality teaching and learning in a fully online large university class: a mixed methods study. Frontiers in Education, 9.

9. Zhang X., et al. (2024). Effects of formal and informal professional learning on teachers’ self-perceived growth. Education Sciences, 15(2), 146.

Nafisa ABDULLAYEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK AMALIYOTI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari hamda mazkur yo'nalishdagi pedagogik amaliyotning mazmuni tahlil qilingan. Shuningdek, bolaning eng ustun manfaati, xavfsiz ta'lim muhitini yaratish, erta aniqlash, idoralararo hamkorlik va oila bilan tizimli ishlash kabi tamoyillarning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zo'ravonlik profilaktikasini kuchaytirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanh so'zlar. Bola huquqlari, zo'ravonlik profilaktikasi, huquqiy himoya, xavfsiz ta'lim muhiti, pedagogik amaliyot, idoralararo hamkorlik, ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.

В статье анализируются международные и национальные правовые основы защиты детей дошкольного возраста от всех форм насилия, а также содержание педагогической практики в этом направлении. Также раскрывается теоретическая и практическая значимость таких принципов, как наилучшие интересы ребенка, создание безопасной образовательной среды, раннее выявление, межведомственное сотрудничество и системная работа с семьей. Разработаны педагогические механизмы и практические предложения, направленные на усиление профилактики насилия в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова. Права ребенка, профилактика насилия, правовая защита, безопасная образовательная среда, педагогическая практика, межведомственное сотрудничество, социально-педагогическая поддержка.

The article analyzes the international and national legal foundations for protecting preschool children from all forms of violence, as well as the content of pedagogical practice in this field. It also reveals the theoretical and practical significance of principles such as the best interests of the child, creating a safe educational environment, early detection, interagency cooperation, and systematic work with the family. Pedagogical mechanisms and practical proposals aimed at strengthening the prevention of violence in preschool educational organizations have been developed.

Key words. Children's rights, prevention of violence, legal protection, safe educational environment, pedagogical practice, interagency cooperation, and socio-pedagogical support.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik jismoniy, ruhiy, jinsiy tajovuz, beparvolik va ekspluatatsiya kabi ko'p qirrali shakllarda namoyon bo'ladi va u bolaning sog'lig'i, rivojlanishi, qadr-qimmati hamda ta'lim natijalariga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili 2–17 yoshdagi 1 milliardgacha bola jismoniy, emotsional yoki jinsiy zo'ravonlik yoxud e'tiborsiz qoldirish holatlariga duch keladi; bolalikdagi zo'ravonlik esa umrbod salomatlik va farovonlikka ta'sir qiladi. O'zbekiston bo'yicha UNICEF keltirgan MICS 2021–2022 ma'lumotlarida 1–14 yoshli bolalarning 62 foizi zo'ravon tarzda intizomga chaqirish usullariga duch kelgani qayd etilgan. Bu holat maktabgacha ta'lim bosqichida

profilaktika va himoya mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini yanada dolzarblashtiradi[1].

Xalqaro huquqiy nuqtayi nazardan, BMTning Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi bolaning eng ustun manfaatini bolalarga oid barcha qarorlarda ustuvor mezon sifatida belgilaydi. Konvensiyaning 19-moddasi esa davlatlardan bolani ota-onasi, vasiysi yoki uni parvarish qilayotgan boshqa shaxslar qaramog‘ida bo‘lgan paytda jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik, haqorat, beparvolik, ekspluatatsiya va jinsiy tajovuzning barcha shakllaridan himoya qilish uchun qonunchilik, ma’muriy, ijtimoiy va ta’limiy choralarni ko‘rishni talab qiladi. Demak, bolani himoya qilish faqat huquqni muhofaza qiluvchi chora emas, balki ta’lim va tarbiya tizimining ham majburiy funksiyasidir[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni himoya qilishning milliy huquqiy poydevori. O‘zbekistonda bola huquqlarini ta’minlashning umumiy huquqiy asosi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan bo‘lib, unda mazkur sohadagi munosabatlarni tartibga solish va xalqaro shartnomalar ustuvorligi tamoyili belgilangan. Bu norma bolalarni himoya qilish sohasida milliy va xalqaro standartlarni uyg‘un qo‘llash uchun huquqiy asos yaratadi.

Maktabgacha ta’lim sohasida esa “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim-tarbiya tizimining maqsadi, prinsiplari va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Unda har bir bola uchun maktabgacha ta’lim olish imkoniyati, teng shart-sharoitlar, oila va tashkilot tarbiyaviy ta’sirining birligi, shuningdek, bolalarning xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishini tashkil etishga doir majburiy talablar nazarda tutilgan. Qonunda bolaning rivojlanishi va ta’lim olishida oilaga har tomonlama yordam ko‘rsatish ham davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Ushbu huquqiy poydevorni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqan hujjat O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabr O‘RQ-996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonundir. Mazkur qonunda bolaga nisbatan zo‘ravonlik bolaning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa qonuniy huquqlariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazadigan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan, shu jumladan internet orqali sodir etiladigan qasddan harakat yoki harakatsizlik sifatida ta’riflangan. Qonun profilaktika, aniqlash, baholash, himoya rejasi ishlab chiqish, monitoring va javobgarlikka oid yaxlit mexanizmni belgilab berdi.

Qonunning muhim jihati shundaki, u ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta’lim tashkilotlariga aniq vakolatlar yuklagan. Xususan, ta’lim tashkilotlari bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha dastur va mexanizmlar ishlab chiqishi, tashkilot ichidagi nizom va ichki tartib-qoidalarni tasdiqlashi, xavfli vaziyatlar haqida vakolatli organlarni xabardor qilishi, himoyaga muhtoj bolalarni aniqlashi, jabrlangan bolalarni psixologik, pedagogik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi, shuningdek, xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishi shart. Bu norma maktabgacha ta’lim tashkilotlarini bola xavfsizligining faol subyekti sifatida belgilaydi.

Pedagogik amaliyotning mazmuni va vazifalari

Pedagogik amaliyot nuqtayi nazaridan, maktabgacha ta’lim tashkilotida zo‘ravonlikdan himoya faqat favqulodda holatga reaksiya emas, balki profilaktik, tarbiyaviy va reabilitatsion jarayonlarni qamrab oluvchi doimiy tizim bo‘lishi lozim. UNESCO xavfsiz ta’lim muhiti doirasida ta’lim tashkilotlaridagi zo‘ravonlik jismoniy, psixologik va jinsiy shakllarda namoyon bo‘lishi, shuningdek, kamsitish, chetlatish va resurslardan mah-

[1] Vsemirnaya organizatsiya zdravooxraneniya

[2] OHCHR

rum qilish kabi “institutsional zo‘ravonlik” ko‘rinishlarini ham qamrab olishini ta’kidlaydi. Bunday yondashuv maktabgacha ta’lim tashkilotidagi tashkiliy madaniyat, muomala uslubi va ichki qoidalar ham bola himoyasining bir qismi ekanini ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda zo‘ravonlik holatlarini aniqlash kattalarga tarbiyachi, psixolog, rahbar va ota-onalarga ko‘proq bog‘liq. WHO qayd etganidek, kichik yoshdagi bolalar uchun zo‘ravonlik asosan bolaga mas’ul bo‘lgan kattalar tomonidan sodir etiladi va u bolaning miya rivojlanishi, asab va immun tizimi, kognitiv o‘sishi hamda keyingi ta’lim natijalariga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois maktabgacha ta’limda erta aniqlash mexanizmi bolaning nutqiy, emotsional va hulqiy signallarini kuzatish, davomatdagi o‘zgarishlar, qo‘rquv, muloqotdan qochish, agressiya yoki ortiqcha itoatkorlik kabi belgilarni tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Pedagogik amaliyotning yana bir ustuvor yo‘nalishi zo‘ravon tarbiya usullarini rad etib, pozitiv intizom va hurmatga asoslangan munosabat madaniyatini joriy etishdir. UNICEF ta’kidlaganidek, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda ota-ona va qaramog‘idagi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, xavfsiz maktablar, ijtimoiy xizmatlar va ijobiy ijtimoiy me’yorlarni qaror toptirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachining vazifasi faqat bolani kuzatish emas, balki ota-onalarga ham zo‘ravonliksiz tarbiya, emotsional muloqot va bola huquqlariga hurmat madaniyatini singdirishdan iborat.

Idoralararo hamkorlik va amaliy algoritm

O‘zbekistonda 2025-yil 14-iyulda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, zo‘ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, xavf darajasini baholash va himoya rejasini ishlab chiqishning amaliy tartibini belgilab berdi. Unga ko‘ra, zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki xavf ostidagi bola, uning qonuniy vakili, qarindoshi yoki boshqa shaxs “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, ichki ishlar organlari yoki tegishli davlat tashkilotlariga murojaat qilishi mumkin. Agar murojaat yoki fakt aniqlansa, tegishli tashkilot belgilangan shakldagi xabarnomani to‘ldirib, hududiy “Inson” markazi va ichki ishlar organini xabardor qiladi. Bu tartib ta’lim tashkiloti, ijtimoiy xizmat, tibbiyot va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni institutsionallashtirdi.

Qonunning 27–31-moddalari esa aniqlash, hayotiy vaziyatni baholash, himoya rejasini ishlab chiqish va uning monitoringini yaxlit keys-menejment modeli sifatida belgilaydi. Hayotiy vaziyatni baholash vakolatli davlat organi tomonidan ichki ishlar va zarur hollarda boshqa tashkilotlar jalb etilgan holda amalga oshiriladi. Ta’lim tashkilotlari uchun bu norma har bir holatni “intizomiy muammo” sifatida emas, balki bola himoyasi keysi sifatida ko‘rish, hujjatlashtirish va tegishli xizmatlarga yo‘naltirish zarurligini anglatadi.

Amaldagi muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘tsak. Amaldagi huquqiy baza sezilarli darajada mustahkamlangan bo‘lsa-da, amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. UNICEFning O‘zbekistondagi bolalarni himoya qilish dasturi bo‘yicha baholashida normativ baza shakllangani, biroq uni amalda ishlatuvchi tuzilmalar va mexanizmlar to‘liq ishlamasligi yoki kuchaytirishni talab qilishi ko‘rsatilgan. Ayniqsa, mahalliy darajadagi koordinatsiya, idoralararo standart operatsiya tartiblari va xizmatlarning uzluksiz zanjiri masalalari hali ham dolzarb hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi pedagogik-

tashkiliy choralarni joriy etish maqsadga muvofiq: tashkilot darajasida zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha ichki nizomni ishlab chiqish; xodimlar uchun majburiy trening va keys-tahlil mashg‘ulotlarini joriy etish; bola xavfsizligi indikatorlari asosida erta ogohlantirish kartasini qo‘llash; ota-onalar uchun pozitiv tarbiya bo‘yicha maslahat platformasini tashkil etish; psixologik-pedagogik konsilium orqali xavf guruhidagi bolalarni muntazam muhokama qilish; “Inson” markazi, tibbiyot va mahalla bilan tezkor yo‘naltirish protokolini yo‘lga qo‘yish. Bu takliflar amaldagi qonunchilikda belgilangan vazifalarni tashkilot ichidagi aniq protseduralarga aylantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ancha mustahkamlandi: bola huquqlarining umumiy kafolatlari, maktabgacha ta’lim sohasidagi xavfsizlik talablari, 2024-yilgi maxsus qonun va 2025-yilgi amaliy nizom mazkur sohada kompleks huquqiy mexanizmni shakllantirdi. Biroq huquqiy me’yorning o‘zi yetarli emas; u pedagogik amaliyot, tashkilot madaniyati, xodimlar kompetensiyasi, oila bilan hamkorlik va idoralararo muvofiqlashuv orqali real himoya natijasiga aylanishi kerak. Shu ma’noda, maktabgacha ta’lim tashkiloti bolani tarbiyalash makonigina emas, balki uning huquqlari, qadr-qimmati va xavfsizligini ta’minlovchi profilaktik-himoyaviy institutsional muhit sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Конвенция о правах ребенка: принята резолюцией 44/25 Генеральной Ассамблеи ООН от 20 нояб. 1989 г.; вступила в силу 2 сент. 1990 г. [Электронный ресурс]. Режим доступа: официальный сайт OHCHR. – Дата обращения: 10.04.2026. (OHCHR)

2. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O‘RQ-139-son “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabr O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabr O‘RQ-996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-iyul 440-sonli “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, zo‘ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.

7. World Health Organization. Violence against children. Geneva: WHO, 2022. Режим доступа: официальный сайт WHO. (Всемирная организация здравоохранения)

8. World Health Organization. Child maltreatment. Geneva: WHO, 2024. Режим доступа: официальный сайт WHO. (Всемирная организация здравоохранения)

9. UNESCO. Safe to learn and thrive: ending violence in and through education. Paris : UNESCO, 2024. 47 p. ISBN 978-92-3-100717-0.

10. UNICEF Uzbekistan. Summative Evaluation of UNICEF Uzbekistan’s Child Protection Programme from 2021 to 2024: Evaluation Report. Vol. 1. Tashkent: UNICEF Uzbekistan, 2025. Режим доступа: официальный сайт UNICEF Uzbekistan.

11. UNICEF Uzbekistan. UNICEF welcomes the adoption of the Law on Ending all Forms of Violence Against Children in Uzbekistan. Tashkent: UNICEF Uzbekistan, 2024. Режим доступа: официальный сайт UNICEF Uzbekistan.

Oyatillo RAXMATILLAYEV,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, mustaqil tadqiqotchi

MAKTABGACHA TA’LIMDA MA’LUMOTLARGA ASOSLANGAN QAROR QABUL QILISHNING AXBOROT-TAHLILIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tizimida ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim boshqaruvi samaradorligini oshirish, muassasalar faoliyatini obyektiv baholash, bolalar rivojlanish ko‘rsatkichlarini tizimli monitoring qilish hamda resurslar taqsimotida shaffoflikni ta’minlashda aniq va ishonchli ma’lumotlarning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotda ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlaridagi institutsional, texnologik va metodologik muammolar aniqlangan. Shuningdek, maktabgacha ta’limda axborot-tahliliy boshqaruvni takomillashtirish uchun pedagogik relevantlik, ma’lumotlar ishonchliligi va tizimli monitoring tamoyillari asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, ma’lumotlarga asoslangan qaror, ta’lim siyosati, axborot-tahliliy boshqaruv, raqamli monitoring, pedagogik relevantlik, ta’lim sifati.

В статье анализируются теоретико-методологические основы принятия решений на основе данных в системе дошкольного образования. В условиях цифровой трансформации раскрывается значение достоверных и объективных данных для повышения эффективности управления образованием, оценки деятельности дошкольных организаций, системного мониторинга развития детей и обеспечения прозрачности распределения ресурсов. В исследовании выявлены институциональные, технологические и методологические проблемы сбора, обработки и анализа образовательных данных. Обоснованы принципы педагогической релевантности, достоверности данных и системного мониторинга как важные условия совершенствования информационно-аналитического управления в дошкольном образовании.

Ключевые слова. Дошкольное образование, принятие решений на основе данных, образовательная политика, информационно-аналитическое управление, цифровой мониторинг, педагогическая релевантность, качество образования.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of data-driven decision-making in preschool education. In the context of digital transformation, the study reveals the importance of accurate and reliable data in improving educational management, assessing the performance of preschool institutions, systematically monitoring children’s development, and ensuring transparency in resource allocation. The research identifies institutional, technological, and methodological challenges in collecting, processing, and analyzing educational data. The article also substantiates the principles of pedagogical relevance, data reliability, and systematic monitoring as key conditions for improving information-analytical management in preschool education.

Key words. Preschool education, data-driven decision-making, education policy, information-analytical management, digital monitoring, pedagogical relevance, education quality.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida maktabgacha ta’lim tizimini samarali boshqarish faqat ma’muriy tajriba yoki an’anaviy hisobotlar asosida emas, balki aniq, ishonchli va tizimli tahlil qilingan ma’lumotlarga tayanishni talab etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bola shaxsi rivojlanishining ilk va hal qiluvchi

bosqichi hisoblangani sababli, ushbu tizimda qabul qilinadigan har bir boshqaruv qarori ta’lim sifati, bolalarning rivojlanish trayektoriyasi, pedagogik jarayon samaradorligi va ijtimoiy adolatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish – bu ta’lim tashkiloti, hududiy boshqaruv organi va davlat miqyosidagi strategik rejalashtirish jarayonlarida faktlar, ko‘rsatkichlar, monitoring natijalari va tahliliy xulosalardan ongli foydalanish jarayonidir. Maktabgacha ta’limda bu yondashuv bolalar davomati, rivojlanish xaritasi, pedagoglar malakasi, moliyaviy resurslar, oziq-ovqat ta’minoti, moddiy-texnik baza va ota-onalar bilan hamkorlik kabi ko‘plab ko‘rsatkichlarni yagona tahliliy maydonda ko‘rish imkonini beradi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish va tizimni raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ma’lumotlar bilan ishlash madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha ta’limda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishning axborot-tahliliy asoslarini ilmiy jihatdan yoritish va uning ta’lim boshqaruvidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Avvalo, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, ta’lim boshqaruvi axborot tizimlari va raqamli monitoringga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida ma’lumotlardan foydalanishning mavjud holati institutsional, pedagogik va texnologik nuqtayi nazardan o‘rganildi.

Tahlil jarayonida uchta asosiy yo‘nalishga e’tibor qaratildi: birinchidan, maktabgacha ta’limda yig‘iladigan ma’lumotlarning mazmuni va manbalari; ikkinchidan, ushbu ma’lumotlarning boshqaruv qarorlariga ta’sir qilish darajasi; uchinchidan, ma’lumotlar ishonchliligi, shaffofligi va pedagogik ahamiyatini ta’minlash mexanizmlari.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’limda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish samaradorligi bir nechta muhim shartlarga bog‘liq ekanini ko‘rsatdi.

Birinchidan, ma’lumotlar faqat hisobot uchun emas, balki pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun xizmat qilishi zarur. Masalan, bolalar davomati, rivojlanish ko‘rsatkichlari, pedagogning faoliyati va ta’lim muhiti holati alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinganda boshqaruv qarori aniqroq va samaraliroq bo‘ladi.

Ikkinchidan, axborot-tahliliy boshqaruvda ma’lumotlar ishonchliligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar ma’lumotlar inson omili ta’sirida noto‘g‘ri kiritilsa, sun’iy oshirilsa yoki turli tizimlarda bir-biriga mos kelmasa, qabul qilinadigan qarorlar ham real holatni aks ettirmaydi. Shuning uchun maktabgacha ta’limda ma’lumotlarni avtomatik tekshirish, solishtirish va verifikatsiya qilish mexanizmlari zarur.

Uchinchidan, ma’lumotlarning pedagogik relevantligi ta’minlanishi lozim. Ya’ni axborot tizimida to‘plangan har bir ko‘rsatkich bolaning rivojlanishi, ta’lim sifati, pedagogik yordam yoki boshqaruv samaradorligiga xizmat qilishi kerak. Aks holda raqamlashtirish qog‘ozbozlikning elektron shakliga aylanib qolishi mumkin.

To‘rtinchidan, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimi barcha darajalarda – tarbiyachi, metodist, direktor, hududiy boshqaruv va vazirlik darajasida foydalanishga qulay bo‘lishi kerak. Ma’lumotlar faqat yuqori tashkilotlarga hisobot berish vositasi emas, balki quyi bo‘g‘indagi amaliy faoliyatni yengillashtiruvchi tahliliy yordamchi vazifasini ham bajarishi lozim.

Maktabgacha ta’limda ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni joriy etish ta’lim sifatiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, u muassasa faoliyatini baholashda

subyektivlikni kamaytiradi, ikkinchi tomondan, resurslar taqsimotini adolatli tashkil etishga yordam beradi. Masalan, hududlar kesimida pedagoglar yetishmovchiligi, moddiy-texnik baza holati yoki bolalar rivojlanishidagi farqlar aniq ma'lumotlar orqali ko'rinsa, davlat siyosatini manzilli tashkil etish imkoniyati kuchayadi.

Biroq bu jarayonda ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, pedagoglarning raqamli savodxonligi va infratuzilmaviy tengsizlik kabi muammolar ham mavjud. Ayniqsa, qishloq hududlarida internet sifati, texnik vositalar yetishmasligi va xodimlarning raqamli ko'nikmalari pastligi ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvning to'liq ishlashiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu sababli maktabgacha ta'limda axborot-tahliliy boshqaruvni joriy etish bosqichma-bosqich, metodik qo'llab-quvvatlash va kadrlar tayyorlash bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur. Bunda asosiy e'tibor faqat texnik platformaga emas, balki ma'lumotlardan pedagogik maqsadlarda foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish ta'lim boshqaruvining zamonaviy, shaffof va natijador yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv ta'lim sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, bolalar rivojlanishini tizimli kuzatish va pedagogik jarayonni ilmiy asosda takomillashtirish imkonini beradi.

Maqola natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Maktabgacha ta'limda ma'lumotlar ishonchliligini ta'minlovchi yagona monitoring tizimini shakllantirish.

2. Bolalar rivojlanish ko'rsatkichlari, pedagoglar faoliyati va resurslar ta'minotini o'zaro bog'liq tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish.

3. Ma'lumotlardan foydalanishda pedagogik relevantlik tamoyilini asosiy mezon sifatida belgilash.

4. MTT rahbarlari va pedagoglari uchun raqamli tahlil, ma'lumotlar bilan ishlash va axborot xavfsizligi bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdul-Hamid H. Data for Learning: Building a Smart Education Data System. World Bank Group, 2017.

2. Williamson B. Big Data in Education: The digital future of learning, policy and practice. London: SAGE Publications, 2017.

3. UNICEF. Education Sector Analysis: Situation Analysis of Children and Adults in Uzbekistan. Tashkent, 2022.

4. Karimov A.A. Ta'limni raqamlashtirishning nazariy asoslari. –Toshkent, 2024.

5. Sharipova Z.Sh. Digital transformation of the education system in Uzbekistan: Challenges, opportunities, and future prospects. 2025.

Ugilshod TASHBAYEVA,
"Termiz iqtisodiyot va servis universiteti" nodavlat oily ta'lim muassasasi,
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi, o'qituvchi

PEDAGOGLAR EMOTSIONAL INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KOMMUNIKATIV TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada pedagoglarning emotsional intellektini rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarlik darajasini oshirish texnologiyasi tahlil qilinadi. Emotsional intellekt, shuningdek, pedagoglarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ishda emotsional intellekt va kommunikativ tayyorgarlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, pedagoglarni tayyorlash jarayonida emotsional intellektni rivojlantirish usullari va metodlari ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar. Emotsional intellekt, kommunikatsiyalashuv, pedagog, ta'lim, o'qituvchilar, kommunikativ tayyorgarlik, metodologiya.

В статье анализируется технология повышения уровня коммуникативной готовности педагогов посредством развития их эмоционального интеллекта. Эмоциональный интеллект также является одним из ключевых факторов, обеспечивающих успешность педагогов в образовательном процессе. В работе рассматривается взаимосвязь эмоционального интеллекта и коммуникативной подготовки, а также методы и приемы развития эмоционального интеллекта в процессе подготовки учителей.

Ключевые слова. Эмоциональный интеллект, коммуникация, педагог, образование, учителя, коммуникативный тренинг, методика.

